
REFERENCES

1. Kövecses, Z. (2000). Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. Cambridge University Press, pp. 182–210. Find on Google Books
2. Safayeva, S. S. (2012). Cognitive and Comparative Analysis of Somatic Phraseology in English and Uzbek. National University of Uzbekistan Press, pp. 74–92.
3. Shafiyeva, D. (2018). Linguistic and Cultural Aspects of Emotional Concept in English and Uzbek Languages. Journal of Philology and Linguistics, 14(2), 45–58.
4. Wierzbicka, A. (1999). Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. Cambridge University Press, pp. 31–65. Find on Google Books
5. Yusupov, U. K. (2007). Theoretical Foundations of Contrastive Linguistics. Fan Publishing House, pp. 112–134.
6. Zvegintsev, V. A. (2001). Language and Cultural Context: Principles of Comparative Study. Progress Publishers, pp. 204–221.



**“YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA
KARDIOREABILITATSIYA:GLOBAL TAVSIYALAR VA ILMIY
DALILLAR”**

Maxmudova Zulayho Shavkatovna

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, jismoniy tarbiya va xalq tabobati kafedrası “Terapiya: xalq tabobati” yo‘nalishi magistri. E-

mail: zziyovuddinova.sh@gmail.com

Adilov Shuxrat Kayumovich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, jismoniy tarbiya va xalq tabobati kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi, PhD. E-mail:

shuxratkayumovich@gmail.com

Muxitdinova Omina Yusup qizi –

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Ichki

kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrası assisenti, tibbiyot fanlari nomzodi,
PhD.

E-mail: muxitdinovaoyu@gmail.com

ANNOTATSIYA: Yurak-qon tomir kasalliklari zamonaviy tibbiyotda global miqyosda o‘lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, ularning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati yuqoriligicha qolmoqda. So‘nggi yillarda diagnostika va farmakoterapiya sohasida erishilgan yutuqlarga qaramay, bemorlarning funksional holatini tiklash, asoratlardan va qayta kasallanish xavfini kamaytirishda kompleks yondashuvni talab etuvchi kardioreabilitatsiya muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kardioreabilitatsiya yurak-qon tomir kasalliklarini boshdan kechirgan bemorlarda jismoniy imkoniyatlarni oshirish, psixosotsial holatni barqarorlashtirish hamda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ko‘p komponentli tibbiy jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi yurak-qon tomir kasalliklarida kardioreabilitatsiya dasturlarining klinik samaradorligi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish hamda xalqaro klinik tavsiyalar asosida ularning amaliy tibbiyotdagi o‘rnini baholashdan iborat. Adabiyotlar sharhi doirasida so‘nggi yillarda chop etilgan randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar, meta-tahlillar va yetakchi kardiologik tashkilotlarning rasmiy tavsiyalari o‘rganildi. O‘tkazilgan tahlil natijalari kardioreabilitatsiya dasturlarida ishtirok etgan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari sababli o‘lim va qayta gospitalizatsiya ko‘rsatkichlarining pasayishi, funksional holat va jismoniy bardoshlilikning yaxshilanishi hamda hayot sifatining oshishini ko‘rsatdi. Kardioreabilitatsiya yurak-



Learning and Sustainable Innovation

qon tomir kasalliklarida davolashning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

KALIT SO‘ZLAR: kardioreabilitatsiya, yurak-qon tomir kasalliklari, klinik samaradorlik, global klinik tavsiyalar, jismoniy reabilitatsiya, hayot sifati, sekundar profilaktika.

KIRISH: Yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) zamonaviy tibbiyotda global miqyosda sog‘liqni saqlash tizimi oldida turgan eng muhim tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi [1]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklari har yili dunyo bo‘yicha taxminan 17–18 million kishining hayotiga zomin bo‘lib, umumiy o‘lim holatlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi [1]. Ushbu ko‘rsatkichlar yurak-qon tomir patologiyalarining nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ham yaqqol namoyon etadi. JSST prognozlariga ko‘ra, aholi sonining ortishi, qarish jarayonining tezlashuvi hamda xavf omillarining keng tarqalishi natijasida yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog‘liq yuk kelgusi yillarda yanada oshishi kutilmoqda [1,3]. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yurak-qon tomir kasalliklarining epidemiologik tuzilmasi o‘xshash bo‘lib, arterial gipertenziya, ishemik yurak kasalligi, miokard infarkti va surunkali yurak yetishmovchiligi yetakchi o‘rinlarni egallaydi [7,8]. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, yurak-qon tomir kasalliklaridan kelib chiqadigan o‘lim holatlarining 75 foizdan ortig‘i past va o‘rta daromadli mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi [1]. Bu esa ushbu hududlarda kasalliklarning oldini olish, davolash va reabilitatsiya qilish bo‘yicha kompleks strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Aholi orasida chekish, jismoniy faollikning yetishmasligi, noto‘g‘ri ovqatlanish, semirish va surunkali stress kabi modifikatsiya qilinadigan xavf omillarining keng tarqalishi yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. [24] So‘nggi o‘n yilliklarda kardiologiya sohasida diagnostika, farmakoterapiya va invaziv davolash texnologiyalarining jadal rivojlanishiga qaramay, yurak-qon tomir kasalliklarini boshdan kechirgan bemorlarning katta qismida funksional imkoniyatlarning cheklanishi, mehnat qobiliyatining pasayishi, qayta kasallanish va asoratlar xavfining yuqoriligi saqlanib qolmoqda. [6,8] Klinik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, faqat farmakologik yoki jarrohlik davolash usullari bemorlarning uzoq muddatli prognozini yaxshilash uchun yetarli emas [16]. Shu sababli JSST tomonidan yurak-qon tomir kasalliklarini boshqarishda davolash, reabilitatsiya va ikkilamchi profilaktikani o‘z ichiga olgan uzluksiz yondashuv tavsiya etiladi [2,3]. Kardioreabilitatsiya yurak-qon tomir kasalliklarini boshdan kechirgan bemorlarda jismoniy, psixoemotsional va ijtimoiy holatni tiklashga qaratilgan, ko‘p komponentli



va tizimli tibbiy yondashuv hisoblanadi [2]. JSST ta'rifiga ko'ra, reabilitatsiya bemorlarning funksional mustaqilligini maksimal darajada tiklash va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim sog'liqni saqlash xizmatidir [2]. Kardioreabilitatsiya dasturlari jismoniy mashqlar terapiyasi, hayot tarzini modifikatsiya qilish, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda yurak-qon tomir xavf omillarini nazorat qilish choralarini o'z ichiga oladi [9,10]. Ushbu yondashuv yurak mushagining funksional zaxirasini oshirish, periferik qon aylanishini yaxshilash, metabolik jarayonlarni optimallashtirish va jismoniy bardoshlilikni oshirish orqali bemorlarning klinik holatini barqarorlashtirishga qaratilgan [20]. JSST va yetakchi xalqaro kardiologik tashkilotlarning global tavsiyalarida kardioreabilitatsiya miokard infarktidan keyin, koronar revaskulyarizatsiyadan so'ng, surunkali yurak yetishmovchiligi va boshqa yurak-qon tomir kasalliklarida davolashning ajralmas bosqichi sifatida ko'rsatilgan [2,7,10]. Ilmiy tadqiqotlar va meta-tahlillar natijalari kardioreabilitatsiya dasturlarida muntazam ishtirok etish yurak-qon tomir sababli o'lim va qayta hospitalizatsiya xavfini kamaytirishini, shuningdek, hayot sifati va uzoq muddatli klinik prognozni yaxshilashini tasdiqlaydi [4,5,18]. Shunga qaramay, JSST hisobotlarida kardioreabilitatsiya xizmatlaridan foydalanish darajasi global miqyosda pastligicha qolayotgani, ayniqsa past va o'rta daromadli mamlakatlarda ushbu xizmatlarning yetarli darajada joriy etilmaganligi ta'kidlanadi. Yuqorida keltirilgan holatlarni inobatga olgan holda, yurak-qon tomir kasalliklarida kardioreabilitatsiyaning klinik samaradorligi, uning asosiy komponentlari va global tavsiyalar asosidagi o'rni bo'yicha mavjud ilmiy dalillarni tizimli tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur adabiyotlar sharhi kardioreabilitatsiyaning zamonaviy sog'liqni saqlash tizimidagi rolini chuqurroq yoritish, uni amaliyotga keng joriy etish imkoniyatlarini baholash hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi yurak-qon tomir kasalliklarida kardioreabilitatsiya dasturlarining klinik samaradorligi bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni chuqur tahlil qilish, JSST va boshqa yetakchi xalqaro tashkilotlarning global klinik tavsiyalarini umumlashtirish hamda kardioreabilitatsiyaning amaliy tibbiyotdagi ahamiyatini ilmiy asoslangan holda yoritib berishdan iborat.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tavsiyalari: JSST reabilitatsiyani sog'liqni saqlash tizimining asosiy komponentlaridan biri sifatida baholab, uni universal sog'liqni saqlash qamroviga erishishning muhim vositasi deb hisoblaydi [2,3]. Tashkilot ta'rifiga ko'ra, reabilitatsiya bemorlarning funksional imkoniyatlarini maksimal darajada tiklash, mustaqilligini oshirish va jamiyat hayotida faol ishtirok



etishini ta'minlashga qaratilgan uzluksiz jarayondir. JSSTning global strategik hujjatlarida yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'riqan bemorlarda reabilitatsiya xizmatlarini erta bosqichdan boshlash va ularni uzoq muddatli kuzatuv bilan uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlanadi [2]. JSST ma'lumotlariga ko'ra, yurak-qon tomir kasalliklaridan keyingi davrda reabilitatsiya dasturlarining yetarli darajada joriy etilmasligi bemorlarda nogironlik, qayta hospitalizatsiya va o'lim xavfining ortishiga olib keladi [1,25]. Shu sababli tashkilot kardioreabilitatsiyani faqat shifoxona sharoitida emas, balki ambulator va uy sharoitida ham amalga oshirishni, shuningdek, resurslari cheklangan hududlarda soddalashtirilgan va moslashtirilgan reabilitatsiya modellarini joriy etishni tavsiya etadi.

Yevropa kardiologiya jamiyati (ESC) tavsiyalari: ESC klinik qo'llanmalarida kardioreabilitatsiya yurak-qon tomir kasalliklarini davolash va ikkilamchi profilaktikaning ajralmas qismi sifatida belgilangan. Jamiyat tavsiyalariga ko'ra, miokard infarktidan keyin, koronar revaskulyarizatsiya amaliyotlaridan so'ng, shuningdek surunkali yurak yetishmovchiligi va stabil ishemik yurak kasalligi bo'lgan bemorlarda kardioreabilitatsiya I-darajali tavsiya sifatida ko'rsatiladi [7,8]. Bu esa uning samaradorligi yuqori darajadagi ilmiy dalillar bilan tasdiqlanganligini anglatadi. ESC kardioreabilitatsiya dasturlarining asosiy komponentlariga jismoniy mashqlar terapiyasi, yurak-qon tomir xavf omillarini modifikatsiya qilish, farmakoterapiyaga rioya etishni oshirish hamda psixosozial qo'llab-quvvatlashni kiritadi. Tavsiyalarda reabilitatsiya dasturlarini individual yondashuv asosida, bemorning klinik holati, yosh, komorbid kasalliklar va funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligi ta'kidlanadi. ESC ma'lumotlariga ko'ra, kardioreabilitatsiya yurak-qon tomir sababli o'lim va qayta hospitalizatsiya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi hamda hayot sifatini yaxshilaydi [6,7].

Global tavsiyalarni umumlashtirish: WHO, ESC va AHA tomonidan ishlab chiqilgan global klinik tavsiyalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, kardioreabilitatsiya yurak-qon tomir kasalliklarida davolashning majburiy va uzluksiz bosqichi hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar kardioreabilitatsiyaning klinik samaradorligini yuqori darajadagi ilmiy dalillar asosida tasdiqlab, uni sog'liqni saqlash tizimiga keng joriy etishni tavsiya etadi. Shu bilan birga, global tavsiyalarda kardioreabilitatsiya xizmatlarining mavjudligini oshirish, bemorlarni jalb qilish darajasini yaxshilash va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Amerika yurak assotsiatsiyasi yurak-qon tomir kasalliklarida kardioreabilitatsiyani dalillarga asoslangan tibbiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uni standart



Learning and Sustainable Innovation

davolash va ikkilamchi profilaktikaning ajralmas bosqichi deb hisoblaydi. AHA tomonidan ishlab chiqilgan klinik qo'llanmalar va ilmiy bayonotlarda kardioreabilitatsiya miokard infarkti, koronar revaskulyarizatsiya (AKSh va stentlash), surunkali yurak yetishmovchiligi, stabil ishemik yurak kasalligi hamda yurak operatsiyalaridan keyingi davrda yuqori darajadagi tavsiya sifatida ko'rsatilgan. AHA tavsiyalariga ko'ra, kardioreabilitatsiya dasturlarining asosiy maqsadi yurak-qon tomir kasalliklarini boshdan kechirgan bemorlarda jismoniy bardoshlilikni oshirish, yurak-qon tomir xavf omillarini samarali nazorat qilish, qayta kasallanish va o'lim xavfini kamaytirish hamda hayot sifatini yaxshilashdan iborat. Assotsiatsiya kardioreabilitatsiyani ko'p tarmoqli yondashuv sifatida ta'riflab, uning tarkibiga nazorat ostidagi jismoniy mashqlar terapiyasi, sog'lom hayot tarzini shakllantirish, farmakoterapiyaga rioya etishni kuchaytirish va psixososial qo'llab-quvvatlash choralarini kiritadi. AHA hujjatlarida jismoniy mashqlar kardioreabilitatsiyaning markaziy komponenti sifatida ko'rsatiladi. Aerob yuklamalar, yurak urish tezligi va arterial bosimni nazorat qilgan holda bosqichma-bosqich oshirilishi tavsiya etiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, AHA tomonidan tavsiya etilgan reabilitatsiya dasturlarida ishtirok etish maksimal kislorod iste'moli (VO_2 max), 6 daqiqalik yurish testi natijalari va yurak funksional zaxirasining sezilarli yaxshilanishi bilan bog'liq. Shuningdek, AHA kardioreabilitatsiyaning psixososial jihatlariga alohida e'tibor qaratadi. Yurak-qon tomir kasalliklarini boshdan kechirgan bemorlarda depressiya, xavotir va stress holatlari keng tarqalgan bo'lib, ular klinik prognozni yomonlashtiruvchi mustaqil omillar sifatida qaraladi. AHA tavsiyalariga ko'ra, kardioreabilitatsiya dasturlariga psixologik baholash va qo'llab-quvvatlash komponentlarini kiritish bemorlarning reabilitatsiyaga bo'lgan sodiqligini oshiradi va uzoq muddatli natijalarni yaxshilaydi. Amerika yurak assotsiatsiyasi tomonidan e'lon qilingan meta-tahlillar va yirik kuzatuv tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, kardioreabilitatsiya dasturlarida qatnashgan bemorlarda yurak-qon tomir sababli o'lim xavfi 20–30 foizga, qayta hospitalizatsiya holatlari esa sezilarli darajada kamayadi [4,18]. Bundan tashqari, ushbu bemorlarda arterial bosim, lipid profili va glyukemik nazorat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi qayd etilgan. AHA so'nggi yillarda masofaviy va uy sharoitida olib boriladigan kardioreabilitatsiya dasturlarini rivojlantirishni ham qo'llab-quvvatlamoda. Assotsiatsiya raqamli texnologiyalar, telemonitoring va mobil sog'liq ilovalari yordamida amalga oshiriladigan reabilitatsiya modellarini an'anaviy dasturlarga muqobil yoki qo'shimcha yondashuv sifatida tavsiya etadi [10.11].

Mazkur adabiyotlar sharhi natijalari yurak-qon tomir kasalliklarida



Learning and Sustainable Innovation

kardioreabilitatsiya dasturlarining yuqori klinik samaradorligini tasdiqlovchi kuchli ilmiy dalillar mavjudligini ko'rsatadi. O'tkazilgan meta-tahlillar va tizimli sharhlar kardioreabilitatsiya dasturlarida ishtirok etish yurak-qon tomir sababli o'lim, qayta gospitalizatsiya va funksional cheklanish xavfini sezilarli darajada kamaytirishini ishonchli tarzda namoyon etadi. Ushbu natijalar kardioreabilitatsiyaning zamonaviy kardiologiyada faqat qo'shimcha choratadbir emas, balki davolash va ikkilamchi profilaktikaning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Meta-tahlillar natijalarida qayd etilgan o'lim ko'rsatkichlarining 20–30% ga kamayishi kardioreabilitatsiyaning klinik jihatdan muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi [4,18]. Ushbu samaradorlik bir necha patofiziologik mexanizmlar bilan izohlanadi. Jumladan, nazorat ostidagi jismoniy mashqlar yurak mushagining funksional zaxirasini oshiradi, periferik qon aylanishini yaxshilaydi va metabolik jarayonlarni optimallashtiradi. Bundan tashqari, kardioreabilitatsiya dasturlari yurak-qon tomir xavf omillarini, xususan arterial gipertenziya, dislipidemiya va glyukemik nazoratni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu omillarning kompleks tarzda nazorat qilinishi uzoq muddatli klinik prognozga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Funksional holat va jismoniy bardoshlilik ko'rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishi ham kardioreabilitatsiyaning muhim natijalaridan biri hisoblanadi. VO_2 max va 6 daqiqalik yurish testi natijalaridagi ijobiy o'zgarishlar bemorlarning kundalik hayotda mustaqilligini oshiradi, mehnat qobiliyatini tiklashga yordam beradi hamda sog'liq bilan bog'liq hayot sifati ko'rsatkichlarini yaxshilaydi [13,20]. Bu esa kardioreabilitatsiyaning faqat klinik emas, balki ijtimoiy ahamiyatini ham ko'rsatadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kardioreabilitatsiyaning psixososial komponentlari ham klinik natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yurak-qon tomir kasalliklarini boshdan kechirgan bemorlarda depressiya va xavotir holatlari keng tarqalgan bo'lib, ular qayta kasallanish va o'lim xavfini oshiruvchi mustaqil prognostik omillar sifatida qaraladi. Kardioreabilitatsiya dasturlariga psixologik qo'llab-quvvatlash va hayot tarzini modifikatsiya qilish komponentlarining kiritilishi bemorlarning reabilitatsiyaga sodiqligini oshiradi hamda uzoq muddatli natijalarni yaxshilaydi [1,25]. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili ayrim cheklovlarni ham aniqlaydi. Meta-tahlillarga kiritilgan tadqiqotlarda reabilitatsiya dasturlarining davomiyligi, intensivligi va tarkibiy qismlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Bundan tashqari, ayrim hududlarda, ayniqsa past va o'rta daromadli mamlakatlarda kardioreabilitatsiya xizmatlarining cheklanganligi bemorlarni qamrab olish darajasini pasaytiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisobotlarida ushbu muammo global miqyosda dolzarb ekanligi ta'kidlanadi va resurslarga moslashtirilgan reabilitatsiya modellarini joriy etish zarurligi qayd etiladi. Yevropa kardiologiya



Learning and Sustainable Innovation

jamiyati va Amerika yurak assotsiatsiyasi tavsiyalari bilan solishtirilganda, kardioreabilitatsiyaning klinik samaradorligi bo'yicha dalillar yuqori darajada izchil va bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega. Ushbu tashkilotlar tomonidan berilgan I-darajali tavsiyalar meta-tahlillar natijalari bilan to'liq mos keladi va kardioreabilitatsiyani standart klinik amaliyotga keng joriy etish zarurligini ilmiy asoslaydi [7,8]. Umuman olganda, mavjud ilmiy dalillar kardioreabilitatsiyaning yurak-qon tomir kasalliklarida klinik, funksional va psixososial jihatdan samarali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar kardioreabilitatsiyani sog'liqni saqlash tizimining muhim bo'g'ini sifatida rivojlantirish, uni klinik protokollarga keng joriy etish va bemorlarni qamrab olish darajasini oshirish zarurligini ta'kidlaydi.

XULOSA: Mazkur adabiyotlar sharhi natijalari yurak-qon tomir kasalliklarida kardioreabilitatsiya dasturlarining klinik jihatdan yuqori samaradorligini tasdiqlovchi keng qamrovli va ishonchli ilmiy dalillar mavjudligini ko'rsatdi. Tizimli sharhlar va meta-tahlillar natijalariga ko'ra, kardioreabilitatsiya yurak-qon tomir sababli o'lim va qayta gospitalizatsiya ko'rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytiradi, bemorlarning funksional holati va jismoniy bardoshlilikini yaxshilaydi hamda sog'liq bilan bog'liq hayot sifati ko'rsatkichlarini oshiradi. Ushbu natijalar kardioreabilitatsiyaning yurak-qon tomir kasalliklarida davolash jarayonining ajralmas va uzluksiz bosqichi ekanligini ilmiy asoslaydi. Global klinik tavsiyalar, jumladan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Yevropa kardiologiya jamiyati va Amerika yurak assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalar kardioreabilitatsiyani miokard infarkti, koronar revaskulyarizatsiya, surunkali yurak yetishmovchiligi va boshqa yurak-qon tomir patologiyalarida standart klinik amaliyotning muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiya etadi. Ushbu tavsiyalar meta-tahlillar natijalari bilan uyg'un bo'lib, kardioreabilitatsiyaning samaradorligi yuqori darajadagi ilmiy dalillar bilan tasdiqlanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, reabilitatsiya dasturlarining kompleks va individual yondashuv asosida tashkil etilishi klinik natijalarni yanada yaxshilashda muhim omil ekanligi aniqlanadi. Shu bilan bir qatorda, mavjud adabiyotlar tahlili kardioreabilitatsiya xizmatlaridan foydalanish darajasi global miqyosda yetarli emasligini ko'rsatadi. Ayniqsa, past va o'rta daromadli mamlakatlarda reabilitatsiya infratuzilmasining cheklanganligi, mutaxassislar yetishmasligi va bemorlarni jalb qilish darajasining pastligi ushbu xizmatlarning samarali joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bu holat sog'liqni saqlash tizimlarida resurslarga moslashtirilgan, soddalashtirilgan va masofaviy texnologiyalarni o'z ichiga olgan kardioreabilitatsiya modellarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, kardioreabilitatsiyani sog'liqni saqlash tizimiga keng joriy etish yurak-qon tomir



kasalliklarida uzoq muddatli klinik prognozni yaxshilash, nogironlik va o'lim darajasini kamaytirish hamda bemorlarning hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida kardioreabilitatsiya dasturlarini takomillashtirish, ularning mavjudligini kengaytirish va individual ehtiyojlarga moslashtirish yurak-qon tomir kasalliklarini samarali boshqarish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. World Health Organization. Cardiovascular diseases (CVDs): Fact sheet. Geneva: WHO; 2023.
2. World Health Organization. Rehabilitation in health systems. Geneva: WHO; 2017.
3. World Health Organization. Rehabilitation 2030: A Call for Action. Geneva: WHO; 2017.
4. Anderson L, Thompson DR, Oldridge N, et al. Exercise-based cardiac rehabilitation for coronary heart disease. *Cochrane Database Syst Rev.* 2016;1:CD001800.
5. Taylor RS, Long L, Mordi IR, et al. Exercise-based rehabilitation for heart failure. *Cochrane Database Syst Rev.* 2019;4:CD003331.
6. Piepoli MF, Corrà U, Benzer W, et al. Secondary prevention through cardiac rehabilitation. *Eur Heart J.* 2014;35(46): 2921–2943.
7. Visseren FLJ, Mach F, Smulders YM, et al. 2021 ESC Guidelines on cardiovascular disease prevention. *Eur Heart J.* 2021;42(34):3227–3337.
8. McDonagh TA, Metra M, Adamo M, et al. 2021 ESC Guidelines for the diagnosis and treatment of acute and chronic heart failure. *Eur Heart J.* 2021;42(36):3599–3726.
9. Balady GJ, Williams MA, Ades PA, et al. Core components of cardiac rehabilitation/secondary prevention programs. *Circulation.* 2007;115(20):2675–2682.
10. Thomas RJ, Beatty AL, Beckie TM, et al. Home-based cardiac rehabilitation. *Circulation.* 2019;140(1):e69–e89.
11. Anderson L, Sharp GA, Norton RJ, et al. Home-based versus centre-based cardiac rehabilitation. *J Am Coll Cardiol.* 2017;70(5): 552–562.
12. Heran BS, Chen JM, Ebrahim S, et al. Exercise-based cardiac rehabilitation for coronary heart disease. *Am J Med.* 2011;124(10): 905–914.
13. O'Connor CM, Whellan DJ, Lee KL, et al. Efficacy and safety of exercise training in patients with heart failure. *JAMA.* 2009;301(14):1439–1450.
14. Lawler PR, Filion KB, Eisenberg MJ. Efficacy of exercise-based cardiac rehabilitation. *Am Heart J.* 2011;162(4):571–584.
15. Taylor RS, Brown A, Ebrahim S, et al. Exercise-based rehabilitation for patients with coronary heart disease. *Am J Med.* 2004;116(10):682–692.



16. Ades PA. Cardiac rehabilitation and secondary prevention of coronary heart disease. *N Engl J Med.* 2001;345(12):892–902.
17. Oldridge N, Guyatt G, Fischer M, et al. Cardiac rehabilitation after myocardial infarction. *Am J Cardiol.* 1988;62(18):1242–1246.
18. Anderson L, Oldridge N, Thompson DR, et al. Exercise-based cardiac rehabilitation reduces mortality. *J Am Coll Cardiol.* 2016;67(1):1–12.
19. Clark AM, Hartling L, Vandermeer B, McAlister FA. Meta-analysis of secondary prevention programs. *Ann Intern Med.* 2005;143(9):659–672.
20. Hambrecht R, Wolf A, Gielen S, et al. Effect of exercise on coronary endothelial function. *N Engl J Med.* 2000;342(7):454–460.
21. Lavie CJ, Milani RV. Cardiac rehabilitation and exercise training. *Prog Cardiovasc Dis.* 2011;53(6):397–403.
22. Grace SL, Turk-Adawi KI, Contractor A, et al. Cardiac rehabilitation delivery model. *Nat Rev Cardiol.* 2020;17(7):453–467.
23. Dalal HM, Doherty P, Taylor RS. Cardiac rehabilitation. *BMJ.* 2015;351:h5000.
24. Franklin BA, Brinks J, Berra K, et al. Using exercise to improve cardiovascular health. *Circulation.* 2020;141(9):e1–e12.
25. Turk-Adawi K, Sarrafzadegan N, Grace SL. Global availability of cardiac rehabilitation. *Lancet.* 2014;384(9949):1422–1432.



TIL O'RGANISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

*TDYU huzuridagi Namangan akademik litseyi "Tillar" kafedrasida ingliz tili fani
o'qituvchisi*

Sojida Xamrayeva Kodirbekovna

E-mail: hsojida@inbox.ru

Tel: +998910888282

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada chet tilini o'rganish jarayonida autentik materiallardan foydalanishning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati kompleks tarzda o'rganiladi. Autentik materiallar real kommunikativ muhitni aks ettiruvchi yozma, audio va video manbalar sifatida talqin qilinib, ularning til o'rganuvchilarning og'zaki nutqi, tinglab tushunish, yozma ifoda, leksik boyligi va madaniyatlararo kompetensiyasiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy tajriba-sinov ishlari natijalari ham keltirilgan. Natijalar autentik materiallardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda real til muhitiga moslashish jarayonini tezlashtirishda samarali vosita ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: autentik materiallar, nutqiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv, chet tili metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, real til muhiti.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish, raqamlashtirish va xalqaro kommunikatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Chet tilini o'rganish bugungi kunda shaxsiy va professional rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli til o'rgatishda grammatik bilimlardan tashqari real kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. An'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha sun'iy matnlar va soddalashtirilgan dialoglarga asoslanadi. Bunday materiallar o'quvchilarning grammatik bilimlarini oshirishi mumkin, biroq real hayotdagi nutq tezligi, aksentlar, madaniy kontekst va tabiiy til birliklarini to'liq aks ettira olmaydi. Natijada o'quvchilar real muloqot jarayonida nutqni tushunishda yoki erkin fikr bildirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu nuqtai nazardan autentik materiallardan foydalanish zamonaviy



kommunikativ yondashuvning muhim elementi sifatida qaraladi. Ular tilni real kontekstda o'rganish imkonini beradi, o'rganuvchilarni tabiiy til muhitiga yaqinlashtiradi va nutqiy kompetensiyaning kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi autentik materiallarning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni va samaradorligini chuqur ilmiy tahlil qilish hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Autentik materiallar tushunchasi va ilmiy asoslari

Til o'qitish metodikasida autentik materiallar tushunchasi kommunikativ yondashuv rivojlanishi bilan keng qo'llanila boshladi. Ilmiy adabiyotlarda autentik materiallar o'quv maqsadlari uchun maxsus yaratilmagan, balki real kommunikatsiya ehtiyojlari uchun ishlab chiqilgan matnlar va media manbalar sifatida ta'riflanadi. Tadqiqotchilar autentik materiallarni tilning tabiiyligini saqlab qoluvchi vosita sifatida baholaydilar. Bunday materiallarda grammatik strukturalar, so'z birikmalari va nutqiy strategiyalar real kontekstda qo'llaniladi. Shu sababli ular o'rganuvchilarga tilni sun'iy emas, balki hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirish imkonini beradi.

Autentik materiallar kommunikativ kompetensiya nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariya til o'rganishda faqat grammatik to'g'rilik emas, balki nutqiy moslik va kommunikativ samaradorlik ham muhimligini ta'kidlaydi. Real materiallar aynan shu maqsadga xizmat qilib, o'rganuvchilarning tilni kontekstual tushunishiga yordam beradi.

Autentik materiallarning turlari va pedagogik imkoniyatlari

Autentik materiallar turli shaklda bo'lishi mumkin va har bir tur til ko'nikmalarining muayyan jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yozma autentik materiallar — gazeta maqolalari, bloglar, reklama matnlari, ijtimoiy tarmoq postlari, rasmiy hujjatlar — o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ular o'rganuvchilarga real diskurs tuzilishini anglash, matn tahlili qilish va fikrni mantiqiy ifodalash imkonini beradi.

Audio materiallar — podkastlar, radio eshittirishlari, intervyular — tinglab tushunish, talaffuz va intonatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tabiiy nutq tezligi o'rganuvchilarning eshitish orqali tilni idrok etish qobiliyatini oshiradi.

Video materiallar — filmlar, seriallar, yangiliklar — nutqiy vaziyatlarni vizual kontekst bilan birlashtirib, og'zaki nutq va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Ular mimika, jestlar va ijtimoiy rollarni tushunishga ham imkon yaratadi.

Nutqiy kompetensiya va uning tarkibiy jihatlari



Nutqiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, til o'rganuvchining real vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi. U bir nechta komponentlarning uyg'un rivojlanishiga asoslanadi.

Leksik kompetensiya — so'z boyligi va frazeologik birliklarni bilish. Grammatik kompetensiya — til qoidalarini to'g'ri qo'llash. Fonetik kompetensiya — talaffuz, urg'u va intonatsiyani to'g'ri qo'llash. Diskursiv kompetensiya — nutqni mantiqiy tashkil eta olish. Madaniyatlararo kompetensiya — til ortidagi ijtimoiy va madaniy kontekstni tushunish.

Autentik materiallar ushbu komponentlarning barchasini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini beradi, chunki ular tilni real kommunikativ muhitda taqdim etadi.

Autentik materiallarning nutqiy kompetensiyaga ta'siri

Autentik materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Real voqealarga asoslangan materiallar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularda fikr bildirish va munozara qilish istagini kuchaytiradi.

Bunday materiallar orqali o'rganuvchilar:

- tabiiy nutq tezligini tushunishni o'rganadilar;
- zamonaviy leksikani o'zlashtiradilar;
- ijtimoiy vaziyatlarga mos nutq strategiyalarini rivojlantiradilar;
- madaniy farqlarni anglay boshlaydilar.

Shuningdek, autentik materiallar o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi, chunki ular real manbalar bilan ishlashni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot B1–B2 darajadagi o'rganuvchilar ishtirokida amalga oshirildi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash asosida nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhi dars jarayonida autentik materiallardan muntazam foydalandi, nazorat guruhi esa an'anaviy darsliklarga tayanib o'qitildi. Ma'lumotlarni yig'ish uchun diagnostik testlar, og'zaki nutq baholash mezonlari, so'rovnomalar va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot bir necha oy davomida olib borilib, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasidagi o'zgarishlar muntazam ravishda qayd etildi.

Natijalar va ilmiy tahlil

Tajriba yakunida autentik materiallardan foydalangan guruhda og'zaki nutq ravonligi, so'z boyligi va tinglab tushunish darajasi sezilarli oshgani kuzatildi. O'quvchilar real



kommunikativ vaziyatlarda o'z fikrlarini erkin ifodalashga moyillik ko'rsatdilar. Nazorat guruhida esa grammatik aniqlik oshgan bo'lsa-da, nutqiy erkinlik darajasi pastroq bo'lib qoldi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, autentik materiallar til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda an'anaviy materiallarga nisbatan samaraliroq vosita hisoblanadi.

Ilmiy muhokama

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, autentik materiallar kommunikativ yondashuvning samarali komponenti ekanini tasdiqlaydi. Biroq materiallarni tanlashda o'quvchilarning til darajasi, yosh xususiyatlari va madaniy tajribasini hisobga olish muhim. Juda murakkab materiallar o'quvchilarda motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois autentik materiallarni soddalashtirish emas, balki ularni metodik jihatdan to'g'ri moslashtirish tavsiya etiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot chet tilini o'rganish jarayonida autentik materiallardan foydalanish nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda muhim va samarali pedagogik vosita ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Olib borilgan nazariy tahlil va tajriba-sinov ishlari natijalari autentik materiallar til o'rganuvchilarning real kommunikativ muhitga moslashuvini tezlashtirishini, ularning og'zaki va yozma nutq faolligini oshirishini hamda tilni amaliy jihatdan qo'llash qobiliyatini kuchaytirishini ko'rsatdi.

Tadqiqot jarayonida autentik materiallar bilan ishlash o'rganuvchilarning leksik boyligini kengaytirishi, tabiiy nutq tezligi va intonatsiyasini yaxshiroq idrok etishiga yordam berishi aniqlangan. Shuningdek, bunday materiallar orqali o'quvchilar til birliklarini kontekstda o'zlashtiradi, bu esa grammatik va diskursiv kompetensiyaning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, audio va video autentik materiallardan foydalanish fonetik ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, autentik materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshiradi, ularni mustaqil fikr bildirishga, munozara qilishga va tanqidiy yondashishga undaydi. Real hayotga oid mavzular va materiallar o'quvchilarni faol kommunikatsiyaga jalb etib, ularning nutqiy ishonchini mustahkamlaydi. Bu holat, o'z navbatida, kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, autentik materiallar til o'rganishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ular o'rganuvchilarga til ortidagi ijtimoiy, madaniy



va pragmatik jihatlarni anglash imkonini beradi, bu esa noto'g'ri talqinlar va kommunikativ to'siqlarning kamayishiga olib keladi. Shu orqali o'quvchilar global muloqot muhitida samarali ishtirok etishga tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytganda, autentik materiallardan foydalanish chet tili ta'limining samaradorligini oshirish, nutqiy kompetensiyani kompleks rivojlantirish va o'rganuvchilarni real muloqotga tayyorlashda muhim metodik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy chet tili ta'limida autentik materiallarni tizimli, maqsadli va metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish tavsiya etiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar autentik materiallardan foydalanishning turli yosh va til darajalaridagi o'rganuvchilarga ta'sirini chuqurroq o'rganishga, shuningdek, raqamli platformalar asosidagi autentik materiallarning samaradorligini aniqlashga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Richards, J. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press.

Harmer, J. How to Teach English. Longman.

Gilmore, A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning.

Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson.

Kramersch, C. Language and Culture. Oxford University Press.



THE ROLE OF AUTHENTIC MATERIALS IN DEVELOPING SPEAKING COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING

*Teacher of English
Department of “Languages”
Namangan Academic Lyceum under*

*Tashkent State University of Law (TSUL)
Sojida Khamrayeva Kodirbekovna
E-mail: hsojida@inbox.ru
Tel: +998910888282*

Abstract

This scientific article provides a comprehensive analysis of the importance of using authentic materials in the process of foreign language learning and their role in developing speaking competence. Authentic materials are interpreted as written, audio, and video sources that reflect a real communicative environment. Their impact on learners' speaking skills, listening comprehension, written expression, lexical development, and intercultural competence is analyzed from a scientific perspective. Along with theoretical approaches, the study also presents the results of practical experimental work. The findings demonstrate that the use of authentic materials is an effective tool for increasing learners' speaking activity, developing communicative competence, and accelerating adaptation to a real language environment.

Keywords: authentic materials, speaking competence, communicative approach, foreign language methodology, intercultural communication, real language environment.

Introduction

The modern education system is developing in close connection with globalization, digitalization, and international communication processes. Learning a foreign language



has become one of the key factors of personal and professional development today. Therefore, in language teaching, alongside grammatical knowledge, forming the ability to communicate effectively in real-life situations has become a priority task.

Traditional teaching methods are often based on artificial texts and simplified dialogues. While such materials may improve learners' grammatical knowledge, they fail to fully reflect real-life speech speed, accents, cultural context, and natural language units. As a result, learners face difficulties in understanding speech or expressing their ideas freely in real communication situations.

From this perspective, the use of authentic materials is considered an important element of the modern communicative approach. They provide opportunities to learn language in a real context, bring learners closer to a natural language environment, and contribute to the comprehensive development of speaking competence.

The main aim of this article is to conduct an in-depth scientific analysis of the role and effectiveness of authentic materials in developing speaking competence and to develop methodological recommendations for their integration into the educational process.

The Concept of Authentic Materials and Theoretical Foundations

In language teaching methodology, the concept of authentic materials became widely used with the development of the communicative approach. In scientific literature, authentic materials are defined as texts and media sources that are not created specifically for educational purposes but are produced for real communicative needs.

Researchers consider authentic materials as a means of preserving the naturalness of language. In such materials, grammatical structures, collocations, and communicative strategies are used in real contexts. Therefore, they allow learners to acquire language not artificially, but through real-life situations.

Authentic materials are based on the theory of communicative competence, which emphasizes that not only grammatical accuracy but also communicative appropriateness and effectiveness are essential in language learning. Real materials serve exactly this purpose by helping learners understand language contextually.



Types of Authentic Materials and Their Pedagogical Potential

Authentic materials can take various forms, each contributing to the development of specific language skills.

Written authentic materials such as newspaper articles, blogs, advertisements, social media posts, and official documents are effective in developing reading and writing skills. They help learners understand real discourse structures, analyze texts, and express ideas logically.

Audio materials including podcasts, radio programs, and interviews develop listening comprehension, pronunciation, and intonation skills. Natural speech speed enhances learners' ability to perceive language through listening.

Video materials such as films, TV series, and news programs combine speech situations with visual context, supporting the development of speaking skills and intercultural competence. They also help learners understand facial expressions, gestures, and social roles.

Speaking Competence and Its Components

Speaking competence is a core component of communicative competence and refers to a learner's ability to communicate effectively in real situations. It is based on the harmonious development of several components:

- Lexical competence – knowledge of vocabulary and phraseological units;
- Grammatical competence – correct use of language rules;
- Phonetic competence – accurate pronunciation, stress, and intonation;
- Discourse competence – ability to organize speech logically;
- Intercultural competence – understanding the social and cultural context behind the language.

Authentic materials allow all these components to develop simultaneously, as they present language in a real communicative environment.



The Impact of Authentic Materials on Speaking Competence

Lessons based on authentic materials increase learners' speaking activity. Materials based on real events stimulate learners' interest and enhance their desire to express opinions and participate in discussions.

Through such materials, learners:

- learn to understand natural speech speed;
- acquire modern vocabulary;
- develop speech strategies appropriate to social situations;
- become aware of cultural differences.

Authentic materials also promote independent learning skills, as they require learners to work with real sources.

Research Methodology

The study was conducted with B1–B2 level learners. Participants were randomly divided into experimental and control groups. The experimental group regularly used authentic materials in the learning process, while the control group relied on traditional textbooks.

Data were collected using diagnostic tests, speaking assessment criteria, questionnaires, and observation methods. The research lasted several months, during which changes in learners' speaking competence were systematically recorded.

Results and Scientific Analysis

At the end of the experiment, the group using authentic materials demonstrated a significant improvement in speaking fluency, vocabulary range, and listening comprehension. Learners showed a greater tendency to express their ideas freely in real communicative situations.

In the control group, grammatical accuracy improved; however, the level of speaking fluency remained relatively low.



The results indicate that authentic materials are a more effective tool for developing communicative competence compared to traditional materials.

Scientific Discussion

The findings are consistent with international research, confirming that authentic materials are an effective component of the communicative approach. However, it is important to consider learners' language level, age characteristics, and cultural experience when selecting materials. Overly complex materials may lead to decreased motivation.

Therefore, it is recommended not to simplify authentic materials, but rather to adapt them methodologically.

Conclusion

This study scientifically substantiates that the use of authentic materials in foreign language learning is an important and effective pedagogical tool for developing speaking competence. The theoretical analysis and experimental results demonstrate that authentic materials accelerate learners' adaptation to a real communicative environment, increase their oral and written language activity, and enhance their ability to use language practically.

The research shows that working with authentic materials expands learners' vocabulary and improves their perception of natural speech speed and intonation. Moreover, learners acquire language units in context, which strengthens grammatical and discourse competence. In particular, the use of audio and video authentic materials plays a significant role in developing phonetic skills.

The results also reveal that lessons based on authentic materials increase learners' motivation, encourage independent expression, discussion, and critical thinking. Real-life topics and materials engage learners in active communication and strengthen their confidence in speaking, which is a crucial factor in the development of communicative competence.

In addition, authentic materials contribute to the development of intercultural competence by enabling learners to understand the social, cultural, and pragmatic



aspects behind the language. This reduces misinterpretations and communicative barriers and prepares learners for effective participation in global communication.

In conclusion, the use of authentic materials is a key methodological approach in increasing the effectiveness of foreign language education, developing speaking competence comprehensively, and preparing learners for real communication. Therefore, it is recommended to integrate authentic materials systematically, purposefully, and methodologically into modern foreign language teaching. Future research should focus on exploring the impact of authentic materials on learners of different age groups and proficiency levels, as well as examining the effectiveness of authentic materials delivered through digital platforms.

References

- Richards, J. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press.
- Harmer, J. How to Teach English. Longman.
- Gilmore, A. Authentic Materials and Authenticity in Foreign Language Learning.
- Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson.
- Kramsch, C. Language and Culture. Oxford University Press.

**LEYKEMIYA: PATOGENEZI, KLINIK XUSUSIYATLARI,
DIAGNOSTIKASI VA ZAMONAVIY DAVOLASH YONDASHUVLARI****Tojiddinov Mirzoulug'bek Avazbek og'li**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali Anatomiya kafedrası assistenti

[Xat yozish uchun: E-mail drmirzoulugbek@gmail.com]**Karimova Mubinaxon Toxirjon qizi**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali Davolash ishi yonalishi talabasi

[Xat yozish uchun: E-mail E-mailkmubina601@gmail.com]

Annotatsiya: Ushbu maqolada leykemiyaning patogenezi, klinik xususiyatlari, diagnostikasi va zamonaviy davolash usullari haqida ilmiy adabiyotlar asosida ma'lumot berildi. Leykemiya suyak iligida qon hosil qiluvchi hujayralarning genetik o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, normal gemopoez jarayonining buzilishiga olib keladi. Kasallik rivojlanishida mutatsiyalar, rivojlanishning izdan chiqishi hamda patologik hujayralarning nazoratsiz ko'payishi muhim o'rin tutadi. Maqolada leykemiyaning asosiy turlari, klinik belgilari hamda laborator va molekulyar diagnostika imkoniyatlari yoritildi. Shuningdek, kimyoterapiya, maqsadli terapiya, immunoterapiya va gematopoetik ildiz hujayra transplantatsiyasi kabi davolash yondashuvlari ko'rib chiqildi. Leykemiyaning erta aniqlash va kompleks davolash kasallik prognozini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: leykemiya, gematoonkologiya, patogenezi, diagnostika, blast hujayralar, kimyoterapiya, immunoterapiya, maqsadli terapiya

Kirish

Leykemiya qon hosil qiluvchi tizimning xavfli kasalliklari qatoriga kiradi va gematopoetik ildiz hujayralarning genetik o'zgarishlari natijasida rivojlanadi [1,2]. Kasallik global miqyosda gematoonkologik patologiyalar orasida muhim o'rin egallab, zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [3]. Hujayra siklini boshqaruvchi genlarda yuzaga keladigan mutatsiyalar proliferatsiya jarayonining nazoratsiz faollashuviga sabab bo'ladi hamda normal gemopoez mexanizmlarini izdan chiqaradi [2].

So'nggi yillarda molekulyar biologiya va sitogenetika sohasidagi tadqiqotlar leykemiyaning rivojlanishida signal uzatish yo'llari, onkogenlar va o'smani bostiruvchi genlar o'rtasidagi muvozanat buzilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda [4]. Bu esa kasallikni erta aniqlash va individual davolash



strategiyalarini ishlab chiqishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Tasnifi

Leykemiya odatda klinik kechishi va zararlangan hujayra liniyasiga qarab tasniflanadi [3]. O'tkir leykemiya blast hujayralarning tez ko'payishi bilan tavsiflanib, davolashsiz qisqa vaqt ichida og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin [5]. Surunkali leykemiya esa nisbatan sekin rivojlanadi va ko'pincha tasodifiy laborator tekshiruvlar vaqtida aniqlanadi [1].

Zamonaviy WHO tasnifiga ko'ra, leykemiya sitogenetik va molekulyar belgilar asosida ham ajratiladi, bu esa prognozni aniqlash va optimal terapiya tanlashda muhim ahamiyatga ega [3].

Patogenez

Leykemiya patogenezining markazida gematopoetik ildiz hujayraning malign transformatsiyasi yotadi [2]. Birlamchi mutatsiya proliferativ ustunlikka ega bo'lgan klon shakllanishiga olib keladi, keyingi genetik o'zgarishlar esa kasallikning progressiyasini tezlashtirishi mumkin [4].

Differensiyalanish jarayonining buzilishi natijasida yetilmagan blast hujayralar suyak iligida to'planadi va sog'lom hujayralar ishlab chiqarilishi kamayadi [1]. Bundan tashqari, apoptoz mexanizmlarining susayishi o'sma hujayralarining uzoq muddat yashab qolishiga sharoit yaratadi [2].

Ba'zi leykemiyalarda xromosomal translokatsiyalar aniqlangan bo'lib, ular onkogen faollashuviga olib keladi. Natijada tirozin-kinaza kabi fermentlar orqali hujayra o'sishi rag'batlantiriladi [4].

Klinik xususiyatlari

Leykemiyaning klinik belgilari ko'pincha suyak iligi yetishmovchiligi bilan bog'liq bo'ladi. Bemorlarda tez charchash, umumiy holsizlik, terining oqarishi va jismoniy faollikning pasayishi kuzatiladi [1]. Isitma va tez-tez infeksiyalarga chalinish immun himoyaning susayganidan dalolat beradi [5].

Trombotsitopeniya fonida teri osti qon quyilishlari, milk qonashi yoki burun qonashlari paydo bo'lishi mumkin. Ayrim holatlarda suyak og'riqlari hamda limfa tugunlari kattalashishi kuzatiladi [2]. O'sma hujayralarining ekstramedullar infiltratsiyasi jigar va taloqning kattalashishiga olib kelishi mumkin [3].

Diagnostikasi

Leykemiyaning aniqlashda laborator va instrumental tekshiruvlar majmuasi qo'llaniladi. Umumiy qon tahlili leykotsitlar sonining o'zgarishi, anemiya yoki trombotsitopeniyaning aniqlash imkonini beradi [1]. Suyak iligi aspiratsiyasi va



biopsiyasi tashxisni tasdiqlashda asosiy usullardan biri hisoblanadi [2].

Immunofenotiplash hujayralarning differensiyalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, sitogenetik tekshiruvlar esa xromosomal anomaliyalarni ko'rsatadi [4]. Molekulyar-genetik tahlillar minimal rezidual kasallikni aniqlash hamda davolash samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Davolash yondashuvlari

Leykemiya davosi kasallik turi, sitogenetik xususiyatlari va bemorning umumiy holatiga qarab tanlanadi. Kimyoterapiya o'sma hujayralarini yo'q qilishga qaratilgan asosiy davolash usuli bo'lib qolmoqda [1]. Zamonaviy maqsadli preparatlar o'sma hujayralaridagi aniq molekulyar nuqsonlarga ta'sir ko'rsatib, terapiya samaradorligini oshirmoqda [4].

Immunoterapiya, jumladan monoklonal antitanalar va CAR-T hujayra terapiyasi ayrim bemorlarda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda [5]. Gematopoetik ildiz hujayra transplantatsiyasi esa yuqori xavfli leykemiyalarda uzoq muddatli remissiyaga erishish imkonini beruvchi muhim davolash strategiyalaridan biridir [2].

Profilaktika va prognoz

Leykemiyaning aniq profilaktik chorasi mavjud emas, biroq radiatsiya va toksik kimyoviy moddalar bilan kontaktni cheklash xavfni kamaytirishi mumkin [1]. Prognoz kasallikning molekulyar xususiyatlari, bemorning yoshi hamda davolashga bo'lgan javobiga bog'liq [4].

Zamonaviy terapiya usullarining takomillashuvi natijasida ko'plab bemorlarda uzoq muddatli remissiya holatiga erishilmoqda va hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanmoqda [5].

Xulosa

Leykemiya gematoonkologiyaning murakkab kasalliklaridan biri bo'lib, uning rivojlanishida gematopoetik ildiz hujayralarning genetik o'zgarishlari muhim ahamiyatga ega. Differensiyalanish jarayonining buzilishi va patologik hujayralarning nazoratsiz ko'payishi normal gemopoezni izdan chiqarib, turli klinik belgilarni yuzaga keltiradi. Zamonaviy diagnostika usullari kasallikni erta aniqlash imkonini berib, davolash samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kimyoterapiya bilan bir qatorda maqsadli terapiya va immunoterapiyaning qo'llanilishi bemorlar prognozini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoffbrand A. V. et al. (ed.). Postgraduate haematology. – John Wiley & Sons, 2016.
2. Kumar V., Abbas A. K., Aster J. C. Robbins y Cotran. Patología estructural y funcional. – Elsevier Health Sciences, 2021.
3. Swerdlow S. H. et al. World Health Organization classification of tumours of haematopoietic and lymphoid tissues. – 2008.
4. Goldman L., Schafer A. Goldman-Cecil Medicine (pp. 2458-63). – 2020.
5. Short N. J., Rytting M. E., Cortes J. E. Acute myeloid leukaemia //The Lancet. – 2018. – T. 392. – №. 10147. – C. 593-606.



FASTFUD ISTE'MOLINING TALABALAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Kodirova Sh.A.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda hayot sur'ati doimiy ravishda tezlashib bormoqda, bu esa kundalik hayotning ko'plab jihatlarida, jumladan, ovqatlanishda ham o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bunday o'zgarishning yorqin misollaridan biri tez tayyorlanadigan taomlarning ommalashuvidir. Fastfud mahsulotlarining keng tarqalishi aholi, jumladan yoshlar orasida ovqatlanish madaniyatining o'zgarishiga va sog'liq holatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada fastfud iste'molining organizmga ta'siri va salbiy oqibatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: fastfud, moddalar almashinuvi buzilishi, organizm, salomatlik

Abstract: In the modern world, the pace of life is constantly accelerating, which leads to changes in many aspects of everyday life, including nutrition. A striking example of such a change is the popularity of instant meals. The widespread availability of fast food products is affecting the change in the culture of nutrition and the state of health among the population, including young people. The article describes the impact and negative consequences of consuming fast food on the body.

Keywords: fast food, metabolic disorders, body, health

Kirish Hozirgi kunda jamiyat hayotining jadallashuvi ovqatlanish odatlarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, vaqt tanqisligi sharoitida tez tayyorlanadigan taomlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Fastfud mahsulotlarining keng tarqalishi aholi, jumladan yoshlar orasida ovqatlanish madaniyatining o'zgarishiga va sog'liq holatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu holat fastfud iste'molining nojo'ya oqibatlarini ilmiy jihatdan o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Fastfud mahsulotlari odatda yuqori kaloriyali bo'lib, tarkibida yog', tuz va qand miqdori yuqori, vitamin va mineral moddalar esa yetarli emas. Bunday ovqatlarni muntazam iste'mol qilish organizmda modda almashinuvining buzilishiga va turli surunkali kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.



Learning and Sustainable Innovation

Fastfud iste'molining salomatlikka ta'siri

Fastfud mahsulotlarini tez-tez iste'mol qilish ortiqcha kaloriya qabul qilinishiga olib keladi. Bu esa jismoniy faollik past bo'lgan sharoitda ortiqcha vazn va semirish xavfini oshiradi. Semirish o'z navbatida qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari va gipertoniya rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Fastfud tarkibida uchraydigan transyog'lar qonda "yomon" xolesterin miqdorini oshirib, qon tomirlar devorlarida aterosklerotik o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat yurak ishemik kasalliklari va insult xavfini kuchaytiradi. Shuningdek, bunday mahsulotlarda tolalarning kamligi hazm qilish tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ich qotishi, oshqozon noqulayliklari va funksional buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Sun'iy shirinliklar va gazli ichimliklar bilan birga iste'mol qilingan fastfud organizmda qand almashinuvini buzadi. Ularni muntazam iste'mol qilish insulinga qarshilikning oshishi va yallig'lanish jarayonlarining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, sog'lom ovqat moddalarining yetishmasligi ruhiy holatga ham ta'sir ko'rsatib, charchoq, diqqatning pasayishi va emotsional beqarorlikka olib kelishi ehtimoli mavjud. Olimlar tadqiqotlariga ko'ra, doimiy ravishda sog'lom bo'lmagan ovqat iste'mol qilish charchoq, diqqatning pasayishi va hatto depressiya holatlariga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, o'smirlar uchun bu juda xavfli, chunki ularning organizmi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Meva, sabzavot va don mahsulotlarini yetarli darajada iste'mol qilmaslik tufayli asosiy vitaminlar va minerallarning yetishmasligi, fastfud tarkibidagi qand va yog' miqdori ko'pligi tufayli 2-tipli diabet va semirish xavfi ortadi.

Fastfud mahsulotlarini muntazam iste'mol qilish nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagilar va keksa aholi salomatligi uchun ham jiddiy xavf omillaridan biri hisoblanadi. Yosh o'tishi bilan organizmning moslashuv qobiliyati pasayadi, modda almashinuvi sekinlashadi va hazm qilish tizimining funksional imkoniyatlari cheklanadi. Shu sababli yuqori kaloriyali, yog' va tuzga boy bo'lgan fastfud mahsulotlari ushbu yosh guruhida salbiy ta'sirlarni tezroq namoyon qilishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlarda keltirilishicha katta yoshdagilarda fastfud iste'mol qilish darajasi: 20–39 yoshda 15,2%, 40–59 yoshda 11,9%, 60 va undan katta yoshda 7,6% teng ekanligi aniqlangan. Katta yoshdagilarda fastfud iste'molining ortishi yurak-qon tomir kasalliklari, gipertoniya va qandli diabet rivojlanish xavfini oshiradi. Bu holat



mehnat qobiliyatining pasayishi, ish unumdorligining kamayishi va vaqtinchalik yoki doimiy mehnatga layoqatsizlik holatlarining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, noto'g'ri ovqatlanish aqliy faoliyatga ham ta'sir ko'rsatib, diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Keksa aholida esa fastfud mahsulotlarini muntazam iste'mol qilish mavjud surunkali kasalliklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, kalsiy va boshqa mineral moddalar yetishmasligi tufayli osteoporoz rivojlanishi yoki uning og'irlashishi kuzatiladi. Shuningdek, yuqori yog'li va tuzli taomlar artrit, oshqozon-ichak trakti kasalliklari hamda jigar faoliyati bilan bog'liq muammolarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Umuman olganda, katta yoshdagilar va keksa aholi uchun fastfud iste'moli salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, hayot sifati va davomiyligining pasayishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi. Shu bois ushbu yosh guruhlarida sog'lom ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi va usullari: Tadqiqotning maqsadi: talabalar o'rtasida fastfud iste'molining ommaviyligi, iste'mol miqdori va salomatlikka ko'rsatayotgan ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqot ob'ekti sifatida ToshDavTuning 3–4 kurslarida tahsil olayotgan 35 nafar talaba tanlab olindi. Ishtirokchilarning yoshi 20–24 yosh oralig'ida bo'lib, o'rtacha yosh 21,4 yoshni tashkil etdi. Tadqiqot anonim so'rovnoma usulida o'tkazildi. Ularga maxsus savollardan tuzilgan anketalar tarqatildi va ularning bergan javoblari tahlil qilindi va olingan natijalar statistik tahlil qilindi.

Natijalar :Olib borilgan tadqiqot natijalari fastfud mahsulotlarini iste'mol qilish zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan ovqatlanish odati ekanligini va uning salomatlikka ta'siri ko'p qirrali ekanligini ko'rsatdi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari fastfudning asosan qulayligi va oson topilishi sababli iste'mol qilinayotganini aniqladi. Biroq ushbu mahsulotlarni muntazam ravishda iste'mol qilish ortiqcha vazn to'planishi va hazm qilish bilan bog'liq muammolar rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi kuzatildi.

So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning yarmi (51.3%) oyiga 1-3 marta fastfud iste'mol qilsa qolgan talabalar (48,7%) da oylik iste'mol qilishlar soni 10 martagacha va undan ko'proq ekan. So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning ko'pchiligi iste'molga sabab sifatida har qadamda topish mumkinligini (51,9%) va ishda o'qishda ovqatlanish uchun qulayligini (37,8%) belgilagan. Fastfud iste'molidan yuzaga kelgan



nojo'ya ta'sir sifatida so'rovnoma ishtirokchilarning deyarli yarmi (43,4%) salomatligida o'zgarishlar sezmganligini, qolgan asosiy qismi esa vazn ortishi (29,6%) va qabziyat yoki diareyadan qiynalishini(18,7%) belgilagan. Bu holat fastfud iste'molining individual ta'siri turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari fastfudni muntazam ravishda iste'mol qilish salomatlik uchun muayyan xavflar tug'dirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, yoshlar orasida noto'g'ri ovqatlanish odatlarining shakllanishi kelajakda surunkali kasalliklar rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin. Fastfudni kam-kam iste'mol qilish katta xavf tug'dirmasligi mumkin, biroq uni doimiy odatga aylantirish semirish, yurak-qon tomir va hazm qilish tizimi kasalliklarining rivojlanish ehtimolini oshiradi. Shu bois talabalar o'rtasida sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, axborot-ta'lim ishlarini olib borish, aholini sog'lom turmush tarziga yo'naltirish jamiyat salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ta'limiy va profilaktik ishlar jamiyat salomatligini saqlash, hayot sifati va davomiyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimova Sh.Sh. **Yoshlar salomatligi va to'g'ri ovqatlanish.** Samarqand, 2021
2. Bayaskar, S. (2025). **Fast food and its effects on physical health and psychological well-being.** International Journal of Research and Scientific Innovation.
3. Габриэлян В.А., Князев Ю.А. **Гигиена питания.** – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2017.
4. Toshmatova, G. A., & Ergashbayev, S. D. (2025). **The convenience of fast food and its impact on health: Benefits and risks.** Web of Medicine.
5. Тутелян В.А. **Рациональное питание и здоровье человека.** – Москва: Медицина, 2019.
6. Ismoilov N.I., Abduraxmonov B.R. **Inson fiziologiyasi.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. World Health Organization (WHO). **Diet, nutrition and the prevention of chronic diseases.** – WHO Press.



8. Malik V.S., Popkin B.M., Bray G.A. **Fast food consumption and increased caloric intake.** // **Journal of Nutrition**, 2018.
9. Monteiro C.A. et al. **Ultra-processed foods and human health.** // **Public Health Nutrition**, 2019.
10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. **Sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma.** – Toshkent, 2021.



O'zbek tiliga hurmat va chet so'zlarning noo'rin qo'llanilishi muammosi

Mamadaliyeva Mohidil

Qo'qond Nodavlat Universiteti filologiya, tillarni o'qitish (o'zbek) yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilida so'zlashuv va yozma nutqda chet so'zlarning ortiqcha va noo'rin qo'llanilishi, tilga hurmat masalasi, yoshlar tilida kuzatilayotgan lingvistik muammolar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda asosiy muammo, kuzatish metodlari, tahlil natijalari va muhokamalar bayon etilgan hamda tilimizni toza saqlash bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, filologiya, chetdan kirib kelgan so'zlar, tilga hurmat, leksikologiya

Kirish

O'zbek tili — boy tarixiy ildizlarga ega, davlat maqomiga ega milliy til. Ammo globallashuv davrida ko'plab xorijiy so'zlar, atamalar va iboralar o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Bir tomondan bu jarayon tilni boyitishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan noo'rin qo'llanilishi milliy tilning sofligiga zarar yetkazadi. Ayniqsa, yoshlar orasida inglizcha, ruscha yoki turkcha so'zlarni ortiqcha ishlatish, hatto ularning o'zbekcha muqobillari mavjud bo'lsa ham, keng tarqalmoqda.

Tilga hurmat — milliy o'zlikni saqlashning eng muhim shartidir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “O'zbek tili — millatimizning ruhi va g'ururi”. Demak, tilni asrash, uni noo'rin aralashmalardan himoya qilish nafaqat tilshunoslarning, balki jamiyatning umumiy vazifasidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi — o'zbek tilida chet so'zlarning noo'rin ishlatilishi muammosini o'rganish, uning ijtimoiy va lingvistik oqibatlarini tahlil qilish va tilga hurmatni oshirish bo'yicha tavsiyalar berishdir.

Metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Kuzatuv metodi — ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok), reklama bannerlari va matbuot materiallari kuzatildi.
2. So'rovnomalar — 100 nafar talaba (18–25 yosh) orasida chet so'zlardan foydalanish



odatlari haqida savollar berildi.

3. Taqqoslash metodi — chet soʻzlar va ularning oʻzbekcha muqobillari solishtirildi. Masalan: meeting — uchrashuv, project — loyiha, weekend — dam olish kuni.

4. Adabiyot tahlili — tilshunos olimlarning asarlari, davlat dasturlari va maqolalari oʻrganildi.

1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi Qonuni qabul qilindi. Pirovard natijada, bugungi kunda jahondagi koʻplab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzlari – Oʻzbekiston Respublikasi bayrogʻi, gerbi, davlat madhiyasi qatorida oʻzbek tiliga ham hurmat bilan qarab, nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar. Maʼrifatparvar va zabardast adibimiz Abdulla Avloniy: “Har bir millatning dunyoda borligʻini koʻrsatadurgan oynayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmakdur”- degan aniq va teran fikrlarni bayon etganda naqadar haq edi.

Natijalar

1. Soʻrovnoma natijalari
 - Talabalarning 67 foizi oʻz nutqida inglizcha yoki ruscha soʻzlardan tez-tez foydalanishini aytdi.
 - 45 foizi chet soʻzlarni oʻzbekcha muqobilidan koʻra “zamonaviyroq” deb hisoblaydi.
 - 23 foizi esa chet soʻzlardan qochishga harakat qilsa-da, reklama va ijtimoiy tarmoqlarda ular taʼsirida qolishini tan oldi.

2. Kuzatuv natijalari
 - Toshkent shahridagi reklama bannerlarining qariyb 70 foizida inglizcha soʻzlar ishlatilgan: shop, fashion, sale, beauty, best, clinic.
 - Yoshlar nutqida esa “okey”, “bye”, “sorry”, “problem yoʻq”, “like qildim” kabi iboralar keng qoʻllanmoqda.

Kuzatishlarimizga qaraganda, leksikologiyaga oid boshqa adabiyotlardan oʻrin olgan taʼriflar ham atash maʼnoli leksik soʻz – leksemalar asosida yaratilgan. Toʻgʻri, mazkur adabiyotlarda soʻzning his-tuygʻu, grammatik yoki modal maʼno ifodalashi ham aytilgan, lekin ular yuqorida qayd etilganidek, qoʻshimcha maʼlumot sifatida berilib, taʼriflarda aks etmagan. Vaholanki, leksik soʻz, grammatik soʻz, lisoniy soʻz, mustaqil soʻz, yor damchi soʻz, alohida olingan soʻz, oʻzgarmas soʻz, nom lovchi soʻz, koʻrsatuvchi soʻz, ifodalovchi soʻz, olmosh lovchi soʻz, atovchi soʻz deganlarimizning



barchasining asosida ham serqirra mohiyatli, turli ma'no-vazifa, ko'rinishli so'z yotadi. Ularning hammasi ham so'z, uning u yoki bu turi. Binobarin, ular ham ta'rifda o'z aksini topishi, e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Shundagina u so'zning umumiy-universal ta'rifi bo'ladi va har qanday so'zni qamrash xususiyatiga ega bo'ladi.

3. Taqqoslash

Chet so'z	O'zbekcha muqobil ko'rinishi	Qo'llanish uslubi
manager	rahbar, boshqaruvchi	“manager” ko'p hollarda reklama va suhbatda ishlatilmoqda
style	uslub	O'zbekcha muqobil holatda kam ishlatilmoqda
online	onlayn, tarmoqda	Tilimizga singib ketgan, ammo o'zbekcha variantlari mavjud
relax	hordiq chiqarish	Noo'rin qo'llanadi,

Muhokama

O'zbek tilida chet so'zlarning noo'rin qo'llanishi ikki asosiy sabab bilan izohlanadi:

1. Globallashuv va internet ta'siri — ingliz tilining xalqaro mavqei, rus tilining tarixiy ta'siri va turk tilidagi seriallarning ommalashuvi yoshlar nutqini bevosita shakllantirmoqda.

2. Tilga e'tiborsizlik — ko'pchilik chet so'zlarni ishlatish orqali “zamonaviy” yoki “obro'liroq” ko'rinishga urinadi, ammo bu jarayon milliy tilning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Shuningdek, tilimizda mavjud bo'lgan boy lug'at, sinonimlar va ifodaviy vositalardan foydalanmaslik, ularni unutishga olib keladi. Agar bu jarayon davom etsa, o'zbek tilining sofliigi va milliy o'zligi xavf ostida qoladi. Biroq, barcha chet so'zlarni rad etish ham to'g'ri emas. Fan, texnika va yangi texnologiyalar bilan bog'liq atamalar (kompyuter, internet, lazer) zarur bo'lishi mumkin. Masalan — ularni me'yorida va o'zbek tilining qonuniyatlariga moslashtirib ishlatishda.

Xulosa



Learning and Sustainable Innovation

1. Chet so‘zlarning noo‘rin ishlatilishi tilning sofligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.
2. Yoshlar, reklama sohasi va ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonning asosiy manbai bo‘lib turibdi.
3. O‘zbek tiliga hurmatni oshirish uchun:
 - maktab va oliy ta‘limda ona tiliga e‘tiborni kuchaytirish;
 - reklama va ommaviy axborot vositalarida o‘zbekcha muqobillarni targ‘ib qilish;
 - til bo‘yicha davlat siyosatini qat‘iylashtirish;
 - jamiyatda “toza nutq” madaniyatini shakllantirish zarur.

Adabiyotlar

ro‘yxati

1. Jo‘rayev A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2021-yil.
3. Xudoyberdiyeva D. Globallashuv sharoitida til muammolari. Toshkent: Universitet, 2022.



O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar samarasi

Эффективность интерактивных методов и педагогических технологий в изучении современной истории Узбекистана.

The effectiveness of interactive methods and pedagogical technologies in studying the modern history of Uzbekistan

Soipova Orzugul Inomjon qizi

Qo'qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar tillar fakulteti Tarix yo'nalishi 202 –
guruh talabasi

e-mail: orzugulsoipova72@gmail.com

Tel: +998933848115

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish jarayonida interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Unda tarix fanini o'qitishda muammoli ta'lim, klaster, aqliy hujum, debat, keys-stadi kabi interfaol usullarning o'quvchilarda tarixiy tafakkur, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari va raqamli ta'lim platformalarining dars jarayoniga integratsiyasi orqali bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari interfaol yondashuvlar O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние использования интерактивных методов и современных педагогических технологий на эффективность обучения в процессе изучения современной истории Узбекистана. Подчеркивается роль интерактивных методов, таких как проблемно-ориентированное обучение, кластерный анализ, мозговой штурм, дебаты, тематические исследования, в преподавании истории в формировании исторического мышления, самостоятельного мышления и аналитических навыков у учащихся. Также показаны возможности достижения глубокого усвоения знаний посредством интеграции информационно-коммуникационных технологий, мультимедийных



средств и цифровых образовательных платформ в учебный процесс. Результаты исследования подтверждают, что интерактивные подходы способствуют повышению качества и эффективности обучения современной истории Узбекистана.

Abstract

This article analyzes the impact of the use of interactive methods and modern pedagogical technologies on educational effectiveness in the process of studying the modern history of Uzbekistan. It highlights the role of interactive methods such as problem-based learning, cluster, brainstorming, debate, case study in teaching history in the formation of historical thinking, independent thinking and analytical skills in students. It also shows the possibilities of achieving thorough mastery of knowledge through the integration of information and communication technologies, multimedia tools and digital educational platforms into the teaching process. The results of the study confirm that interactive approaches serve to improve the quality and effectiveness of education in teaching the modern history of Uzbekistan.

Kalit soʻzlar: Oʻzbekistonning eng yangi tarixi, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, tarix taʼlimi, innovatsion taʼlim, muammoli taʼlim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, taʼlim samaradorligi, tarixiy tafakkur, mustaqil fikrlash.

Ключевые слова: Новейшая история Узбекистана, интерактивные методы, педагогические технологии, историческое образование, инновационное образование, проблемно-ориентированное обучение, информационно-коммуникационные технологии, эффективность образования, историческое мышление, самостоятельное мышление.

Keywords: The latest history of Uzbekistan, interactive methods, pedagogical technologies, history education, innovative education, problem-based learning, information and communication technologies, educational effectiveness, historical thinking, independent thinking.

Kirish

Inson oʻz tarixini oʻrganish, bilish orqali kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyotining bosqichlarim, jamiyatning inqirozli holatga tushish sababdan va bu holatdan chiqish yoʻlidagi tajribalarini tushunib oladi, oʻtmish saboqlaridan xulosa chiqaradi va kelajakda toʻgʻri yoidan borish lozimligini anglab



yetadi Shu jihatdan, tarix fani tarixiy jarayonlarning qonuniyatlari va anʼanalarini tushunib yetishga, hozirgi zamonni toʻgʻri anglab kelajakni asosli ravishda koʻra bilishga koʻmaklashuvchi ilm manbaidir.

Xalqimizning davlatchilik tajribasi ham boy va qadimiy. Oʻzbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari bundan salkam 3000 yil muqaddam (mil.av. 1-ming yillik boshlarida) paydo boʻlib, oʻtgan ming yilliklar davomida takomillashib, dunyo davlatchiligi rivojiga munosib hissa qoʻshib keldi. Bugungi mustaqil xalqimizning davlatchilik tajribasi ham boy va qadimiy. Oʻzbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari bundan salkam 3000 yil muqaddam (mil.avv. 1-ming yillik boshlarida) paydo boʻlib, oʻtgan ming yilliklar davomida takomillashib, dunyo davlatchiligi rivojiga munosib hissa qoʻshib keldi. Bugungi mustaqil Oʻzbekiston davlati xalqimizning ming yillik davlatchiligining tarixiy vorisi - davomchisidir. Oʻzbekistonning eng yangi tarixi fani anashu mustaqil Oʻzbekiston davlatining zarvorli tarixini oʻrganuvchi fandır. Oʻzbekiston davlati xalqimizning ming yillik davlatchiligining tarixiy vorisi - davomchisidir. Oʻzbekistonning eng yangi tarixi fani anashu mustaqil Oʻzbekiston davlatining zarvorli tarixini oʻrganuvchi fandır.

Mamlakatimizning 1991 -yildan keyingi mustaqillik davri xalqimiz qadimiy tarixining uzviy va tadrijiy qismi hisoblanadi. Chunki aynan shu tarixiy sanadan oʻzbek xalqining davlatchilik tarixi yangi bir bosqichga kirdi. “Oʻzbekistonning eng yangi tarixi” deb ataladigan mazkur davr Vatanimiz tarixiga tub ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy-madaniy oʻzgarishlar, asriy orzularimizning roʻyobi, buyuk kelajak va farovonlik jamiyatni qurish davri boʻlib kirdi. Hayotimiz va tafakkurimizda roʻy berayotgan oʻzgarishlarni tahlil qilish, erishilgan yutuqlar va muammolarimizdan toʻgʻri xulosa chiqarish tarixiy zaruratga aylandi[1].

Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida tarix fanini oʻqitish jarayoniga yangicha yondashuvlar joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Oʻzbekistonning eng yangi tarixini oʻrganish yosh avlodda milliy oʻzlikni anglash, vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois mazkur fan mazmunini zamonaviy taʼlim talablari asosida takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Anʼanaviy oʻqitish usullari talaba(oʻquvchi)larning faolligini toʻliq taʼminlay olmasligi, tarixiy jarayon va voqealarni chuqur anglashga yetarli sharoit yaratmasligi bilan ajralib turadi. Bu holat taʼlim jarayonida interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishni taqozo etadi. Interfaol yondashuvlar oʻquvchini taʼlim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, bilimlarni tayyor holatda emas,



balki izlanish va muloqot orqali egallashiga imkon yaratadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishda interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarning samaradorligini oshirish, tarixiy voqealarga nisbatan tahliliy yondashuvni kuchaytirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ularning amaliy samaradorligini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar samarasi mavzusini yoritishda X. H. Matyoqubov [1], M. N. Inatov, L. S. Xolnazarova, S. I. Maxammadiyeva[2], A. N. Maxmudova, A. A. Raxmonov, Sh.M. Usanov, N. X. Choriyev[3], O. Haydarov, Sh. Qoraboyev[4] asarlaridan, o'quv va uslubiy qo'llanmalaridan hamda internet saytlaridan foydalanildi.

Xususan, X. H. Matyoqubovning ilmiy asarlarida tarix fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy asoslari va ularning o'quvchilarning bilim faolligini oshirishdagi o'rni keng yoritilgan. Muallif tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muammoli ta'lim, bahs-munozara, guruhli ishlash kabi metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab beradi [1]. M. N. Inatov, L. S. Xolnazarova hamda S. I. Maxammadixyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari, xususan, innovatsion ta'lim texnologiyalarining mazmuni va ularni tarix fanini o'qitishda qo'llash mexanizmlari tahlil qilingan. Ularning ishlarida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va interfaol metodlarning o'zaro uzviy bog'liqligi ko'rsatib berilgan [2]. Shuningdek, A. N. Maxmudova, A. A. Raxmonov, Sh. M. Usanov va N. X. Choriev asarlarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitish jarayonida zamonaviy didaktik vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, tarixiy manbalarni tahlil qilish orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan [3]. O. Haydarov va Sh. Qoraboyev tadqiqotlarida esa, fanni o'rganishda chuqurlashtirilgan tizm, metodologiya va axborot telekommunikatsiyalaridan foydalanilgan xolda dars va o'quv ishlanmalarini yaratish samarali natija ko'ratishiga ishora qilingan [4]. Va shu bilan birgalikda bir qancha rasmiy va ishonchli internet saytlaridan olingan ma'lumotlar ilmiy tadqiqotni yoritish mobaynida tahlil qilib o'tildi.

Muammoni o'rganishda umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, mavhumlikdan aniqlikka yuksalish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish usullari qo'llanilgan.



Natija va muhokama

Vatanimiz tarixida mustaqillik arafasi va mustaqillik yillaridagi yuzaga kelgan jarayonlarni o‘rganish, xususan, mamlakatimizda mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustaqillik sari yo‘l tutilishi va bu jarayonlarda mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lining mohiyati va mazmunini anglab yetish talab etiladi. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim.

O‘zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o‘zini-o‘zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig‘inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an‘anaviy funksiyalar bajarilishining o‘zi bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to‘ldirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Masalan, ushbu mavzuni turli texnologiyalar bilan yoritib ko‘ramiz: **“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy–siyosiy jarayonlar**

Insert usuli – ushbu usulning maqsadi quyidagidan iborat. U tinglovchilarga yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu usul tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi. Usulni amalga oshirish tartibi:

- O‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- Tinglovchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgi	1 - matn	2 - matn	3 - matn
“V” – tanish ma‘lumot			



“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim			
“+” – bu ma’lumot men uchun yangilik			
“-” – bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman			

Ilova

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo’lgan ma’lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to’liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg’ulot yakunlanadi[2].

“Rezyume” texnologiyasi

Texnologiyaning harakteristikasi. Bu texnologiya murakkab, ko’p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o’rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir vaqtda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, qiyinchiliklar va natijalar, hamkorliklar va qarama – qarshiliklar, siyosat va iqtisodiyot.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o’quvchi)larni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo’lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o’quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o’z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o’tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo’llay olishga o’rgatish.

Texnologiyaning qo’llanishi: ma’ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo’lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan) tartibda o’tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo’llash mumkin.

Mashg’ulotda foydalaniladigan vositalar: A-3 qog’ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarkatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi:

- o’qituvchi talaba (yoki o’quvchi)larning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik



guruhlarga ajratadi;

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yukori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarini tarqatadi;

- har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarni afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;

- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;

- o'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;

- o'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

“O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanini chuqur o'rganish tegishli soha doirasidagi muammolarni anglash va hal qilishda muhim rol o'ynaydi. “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fanining asosiy maqsadi talabalarda Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayoni, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosi, davlatlarning tashkil topishi, ularning ichki va tashqi siyosatini o'rganadi. Ushbu maqsadga erishish uchun mazkur fan mamlakatimiz hamda etakchi xorijiy davlatlarning ilm-fan yutuqlari, ilg'or pedagogik texnologiyalari va ilmiy adabiyotlari asosida talabalarda Mustaqillik, suverenitet, demokratiyaning maqsadi va vazifalarini shakllantirish haqida nazariy bilimlarni, ularga uslubiy yondashuv amaliy ko'nikmalarini hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi[3].

Har qanday fan kabi “O'zbekistonning eng yangi tarixi” fani ham o'zining uslubiy ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzini ortib borishi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiynazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro'yobga chiqishi uchun ma'sul bo'lgan yuksak intellektual ilmiyamaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi ya'ni,



tarix fani 1 rivojlanishida metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. Chunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi[4].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi metodik markaz O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini, mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan, jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi idoralararo ilmiy-muvofiqlashtirish va maslahat organi – O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanadi. Markaz o'z faoliyati doirasida xorijiy ahamiyatga ega[5].

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti mamlakat milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini o'rganish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv-metodik, ma'rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish borasidagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalaridan biri. Institutda O'zbekiston eng yangi tarixining turli jabhalarini tadqiq etuvchi "Yangi va eng yangi tarix", "Etnologiya va antropologiya", "Tarixshunoslik va manbashunoslik" bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu yerda eng yangi tarixni o'rganishda tarix, xalqaro munosabatlar nazariyasi, sotsiologiya, antropologiya, etnologiya, falsafa, iqtisodiy nazariya, siyosiy muammolarni qamrab olgan yangi fanlararo yondashuvlar tahlili amalga oshirilmoqda. Yana ahamiyatli jihati, institutning olti nafar yetakchi olimi Jamoatchilik kengashi a'zosi hamdir[6].

Xulosa

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi tadqiqot davomida aniqlandi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirib, tarixiy voqealarga nisbatan mustaqil, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada bilimlar chuqurroq va barqaror o'zlashtiriladi.

Ilmiy maqolani yoritishda namuna sifatida ko'rsatilgan va yana bir qancha pedagogik texnologiyalar yordamida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish samarali natija ko'rsatadi. Bu esa talaba(o'quvchi)larda milliy tarixga bo'lgan qiziqish va mas'uliyat hissini oshiradi, ularni tarixiy jarayonlarni obyektiv baholashga



yo‘naltiradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalarni tizimli va maqsadli qo‘llash O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘qitish sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu yondashuvlar ta‘lim jarayonini takomillashtirish, zamonaviy ta‘lim talablariga mos kadrlar tayyorlash hamda tarix fanining tarbiyaviy va ta‘limiy ahamiyatini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyoqubov X. H. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent, 2021
2. Inatov M.N., Xolnazarova L.S., Maxammadiyeva S.I. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Toshkent, ToshDTU, 2021
3. Maxmudova A. N., Raxmonov A.A., Usanov Sh. M., Choriyev N.X. O‘zbekistonning eng yaqin tarixi. – Termiz, 2023
4. Haydarov O., Qoraboyev Sh. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – Samarqand, 2022
5. <https://tmarkaz.academy.uz/>
6. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekistonning-eng-yangi-tarixini-o-rganish-dolzarb-masala-14-08-2017>
7. “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanidan o‘quv - uslubiy qo‘llanma.



**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INTEGRALLASHGAN AXBOROT
TIZIMINI LOYIHALASH VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH
(YANGI ASR UNIVERSITETI MISOLIDA)**

**O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Axborot xavfsizligi"
mutaxassisligi 2-kurs
magistranti Turdiyev Muxtorjon Muqimjon o'g'li**

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari faoliyatini kompleks raqamlashtirishga qaratilgan integratsiyalashgan platformani ishlab chiqish jarayonida olingan natijalar, uslubiy yondashuvlar va amaliy qo'llanilish tajribasi yoritiladi. Tadqiqot davomida universitet boshqaruvi, qabul jarayoni, talabalar bilan ishlash, moliyaviy operatsiyalar va elektron kutubxona kabi jarayonlarning yagona raqamli tizimga birlashtirilishi samaradorlik va xavfsizlik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Ishlab chiqayotgan platformamiz Yangi Asr universiteti jarayonlariga moslashtirildi va bu orqali oliy ta'lim muassasasida raqamli boshqaruvning real ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: Integratsiyalashgan platforma, oliy ta'lim boshqaruvi, raqamlashtirish, elektron tizimlar, axborot xavfsizligi, universitet jarayonlari, Yangi Asr universiteti.

Kirish. Oliy ta'lim faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash avvalgidan ko'ra dolzarb bo'lmoqda. Bo'limlar o'rtasidagi uzilishlar, hujjatlar aylanishida inson omiliga yuqori darajada bog'liqlik, to'lov jarayonlarining tarqoqligi, talabalar bilan ishlashda yagona axborot makonining yo'qligi ko'plab universitetlar uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, talabalarning o'qishga qabul jarayonidan boshlab o'qishni tugatguncha bo'lgan barcha bosqichlarni yagona axborot tizimi orqali boshqarish imkoniyati yetarli darajada shakllanmagani boshqaruvning sekinlashishiga, xodimlar yuklamasining keraksiz oshishiga sabab bo'ladi.

Ushbu tadqiqotimiz aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan. Universitet faoliyatida uchraydigan barcha jarayonlarni birlashtiruvchi, bir-biriga ulanadigan, real vaqt rejimida ishlovchi va boshqaruv qarorlarini yengillashtiruvchi kompleks raqamli platformani loyihalashga kirishildi. Mazkur maqola – ushbu platformaning ilmiy asoslari, texnik yondashuvlari va amaliy natijalari haqida yig'ilgan tajribalarimning tahliliy ko'rinishidir.

Tadqiqot natijalari va tahlil



Learning and Sustainable Innovation

Ishlab chiqayotgan platformamizning markazida “bitta jarayon – bitta tizim emas, balki barcha jarayon – bitta ekotizim” tamoyili yotadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, universitetlarda jarayonlar alohida-alohida dasturlar orqali amalga oshirilgani uchun ma‘lumotlar takrorlanadi, koordinatsiya sekinlashadi va tizimlar bir-biri bilan moslashmaydi. Biz yaratgan kompleks platforma esa qabul jarayonidan boshlab, shaxsiy kabinet, to‘lovlar, shartnomalar, akademik ma‘lumotlar, elektron kutubxona va CRM funksiyalarigacha bo‘lgan barcha faoliyatni bir joyda jamlaydi.

Platformani ishlab chiqishda birinchi navbatda abituriyentlar bilan ishlash moduli shakllantirildi. Pasport ma‘lumotlarini avtomatik tanish texnologiyasidan foydalanish xodimlarning qo‘l mehnatini sezilarli kamaytiradi. Amaliy test natijalariga ko‘ra, ID-karta skaneri orqali kiritilgan ma‘lumotlarning 80 foizi inson tomonidan qayta tekshirishsiz tasdiqlanishi mumkin. Bu esa qabul jarayonining tezligi va aniqligini oshiradi.

Shuningdek, to‘lov tizimlari bilan integratsiya platformaning eng muhim ustunliklaridan biridir. Universitetlarda to‘lovlarni alohida excel varaqalarida yuritish yoki qo‘lda tekshirish katta xato ehtimolini tug‘diradi. Biz ishlab chiqayotgan tizimda esa har bir to‘lov avtomatik tarzda talaba profiliga birikadi, shartnoma QR-kod orqali tasdiqlanadi, barcha moliyaviy hisobotlar real vaqt rejimida shakllanadi. Bu nafaqat xodimlar yuklamasini kamaytiradi, balki universitetning moliyaviy shaffofligini ham kuchaytiradi.

Elektron kutubxona moduli ham alohida e‘tibor talab qiladi. Bepul va pullik resurslarni bir joyda jamlash, ularga kirishni nazorat qilish va mualliflik huquqini saqlash uchun himoyalangan PDF ko‘rish texnologiyasidan foydalanildi. Tizim foydalanuvchilarning yuklab olish urinishlarini bloklaydi va har bir o‘quv materialining foydalanish statistikasini yuritadi.

Platformaning yana bir muhim jihati – boshqaruvning markazlashuvi. Admin panelida barcha bo‘limlar faoliyati to‘liq kuzatiladi. Xodimlarga rollar bo‘yicha turli darajadagi vakolatlar beriladi, amalga oshirilgan har bir o‘zgarish loglanib boriladi. Bu esa axborot xavfsizligi bo‘yicha talablarni to‘liq qondiradi. Shuningdek, tizimning asosiy ustunliklaridan biri – har qanday noxush urinish, parol sinash, ruxsatsiz kirish holatlari bo‘yicha avtomatik ogohlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Maqolaning amaliy qismi sifatida, platformani Yangi Asr universiteti jarayonlariga moslashtirish tajribasi alohida ahamiyatga ega. Universitetdagi asosiy muammolardan biri – qabul jarayonining qo‘lda yuritilishi, shartnomalar bilan bog‘liq kechikishlar va moliyaviy bo‘limning katta yuklamasi edi. Platforma joriy etilishi natijasida bu muammolar sezilarli darajada kamaydi: qabul jarayonida hujjatlar bir necha daqiqa



ichida to'liq qayd qilinadigan bo'ldi, shartnomalar avtomatik shakllandi, to'lov tizimi esa inson xatosini butunlay kamaytirib, jarayonni shaffoflashtirdi.

Bundan tashqari, talabalar uchun shaxsiy kabinetning yaratilishi ularning universitet bilan muloqotini yangi bosqichga olib chiqdi. Avvaliga talaba akademik ma'lumot, to'lov tarixi yoki hujjatlarni olish uchun bo'limga murojaat qilishi kerak edi. Hozir esa barcha ma'lumotlar onlayn bir joyda jamlangan. Bu, bir tomondan, talabalar uchun qulaylik yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xodimlarning vaqtini sezilarli darajada tejadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, platformaning universitet boshqaruviga keltirgan eng muhim o'zgarishi – tezkor qaror qabul qilish imkoniyatining paydo bo'lishidir. Real vaqt ma'lumotlari asosida rektorat, dekanlar va bo'lim boshliqlari vaziyatni darhol baholashi, ta'lim jarayonini optimallashtirishi va rejalashtirish bo'yicha aniq qarorlar qabul qilishi mumkin bo'ldi.

Xulosa

Yaratilgan platforma oliy ta'lim muassasasi uchun nafaqat axborot tizimi, balki boshqaruvning yangi modeli sifatida xizmat qiladi. Jarayonlarning avtomatlashtirilishi, ma'lumotlar xavfsizligi, bo'limlararo uzilishlarning bartaraf etilishi va kengaytiriladigan arxitektura uni uzoq muddatli rivojlanish uchun barqaror yechimga aylantiradi. Yangi Asr universiteti misolida ko'rilgan natijalar integratsiyalashgan raqamli platformalarni joriy etish universitetlarning kundalik faoliyatini yengillashtirishi, boshqaruvni soddalashtirishi va ta'lim sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli iqtisodiyot" konsepsiyasi, 2020–2030.
2. UNESCO. Digital Transformation in Higher Education. 2023.
3. Matyoqubov I. Elektron boshqaruv tizimlari va ularning ta'limga integratsiyasi. Toshkent, 2022.
4. Yangi Asr universitetining ichki reglament hujjatlari, 2024.
5. IEEE Xplore. Information Security in University Information Systems (2021–2024).



**Oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini rivojlantirish va boshqaruv
samaradorligini oshirish masalalari**

Yuldashev Feruz Isroil o'g'li,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti va global raqobat sharoitida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini shakllantirish va boshqarishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Raqobat kategoriyasining tarixiy evolyutsiyasi, klassik iqtisodiy maktab vakillari qarashlari hamda zamonaviy menejment yondashuvlari tahlil qilinib, oliy ta'lim tizimida raqobat muhitining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligiga berilgan ilmiy ta'riflar qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, muallif tomonidan tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan yangi ta'rif taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, raqobatbardoshlik, bozor iqtisodiyoti, strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati.

Kirish. Mamlakat iqtisodiyotining muntazam rivojlanishi va barqarorlikka erishishi uchun yetarli choralarni qo'llash masalasi bugungi kun jamiyat hayotining barcha jabhalarida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi¹. Ta'lim sifatini baholash, uning monitoringini olib borish, indikatorlarni doimiy ravishda takomillashtirib borish bugungi kundagi eng muhim yo'nalishlardan biri sanalib, ta'lim sifatining zaruriy darajasini ta'minlash, ta'lim sifati menejmentining samarali metodlarini ishlab chiqishga nisbatan metodologik yondashuvni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi². Garchi bugungi kunda aholining oliy ta'lim bilan qamrovini oshirish tadbirlari amaliyotda keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, oliy ta'lim muassasalari bugungi kun bozor talablariga munosib bo'lgan kadrlarni tayyorlab berishda sustkashlikka yo'l qo'ymoqdalar. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi³".

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 son qarori

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" NMIU, 2019

³ Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tqazilgan 2021-yil 16-iyundagi oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi <https://yuz.uz/uz/news/oliy-talim-tizimidagi-ustuvor-vazifalar-belgilandi>



Learning and Sustainable Innovation

Shu sababli mamlakat iqtisodiyotining istiqbolini ta'minlashda oliy ta'lim tizimining ahamiyatini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari uchun keng ko'lamda imkoniyatlar ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021-yildagi PQ-60-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021-yildagi PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori shular jumlasidandir.

Rivojlanishning joriy holatida ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim muassasalarida ustoz-shogird an'alarini mustahkamlanishi, ilmiy tadqiqot ishlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining oshirilishi orqali jamiyatimizda yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan shijoatli yoshlar safi kengayishiga hamda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Metod. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini shakllantirish va boshqarishning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganishda umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlili asosida konseptual xulosalar ishlab chiqildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, oliy darajadagi mutaxassislarni tayyorlashga ketgan xarajat uning hayot faoliyati davomida o'zini to'la oqlaydi va hatto bir necha baravar ziyod daromad keltiradi⁴. Ko'rinib turibdiki, ilm-fanning rivojlanishi mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Natijalar. Bugungi bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda, farovon jamiyat hayoti va uzluksiz ijtimoiy munosabatlarni raqobatsiz tasavvur etish qiyin. Ta'lim tizimi jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy munosabatlar ta'siri doirasida shakllanadi. Shu boisdan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim sohasida ham raqobatga asoslangan munosabatlarni chuqur tahlil qilish zaruriyati yuzaga keladi. Mazkur raqobat muhitini yaratish ta'lim sohasining izchil rivojlanishiga xizmat qiladi va uning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Garchi raqobat to'g'risida chuqur ilmiy izlanishlar yaqin o'tmishdan boshlangan bo'lsa-da, Adam Smit, David Rikardo, shuningdek iqtisodchi-siyosatchi Karl Marks tomonidan uy xo'jaligi iqtisodiyotidan zamonaviy iqtisodiyotga qadar rivojlanishning dastagi sifatida ta'kidlangan. Xususan, A.Smit birinchi o'rinda raqobat foyda darajalarini tenglashtirish orqali mehnat va kapitalning optimal taqsimlanishiga olib

⁴ N.R.Raxmonov. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.iqt.f.dok.diss.



kelishini isbotlab, taklifning qisqarishi narxlarning oshishiga olib kelishini tushuntirgan⁵. Shuningdek, taklif hajmi katta bo'lib, narx avvalgiga nisbatan past bo'lsa, sotuvchilar o'rtasidagi xaridorlarni jalb qilish maqsadida raqobat kurashi boshlanadi.

Raqobat to'g'risidagi ta'riflar ma'lum davrlarda bozor munosabatlari va subyektlar faolligi ko'lamidan kelib chiqib turlicha izohlangan. Masalan, sanoat inqilobiga qadar raqobat asosan agrar jamiyatlarda mavjud bo'lib, asosan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo kabi sohalarda kuzatilgan.

Subyektlar yirik o'troq jamiyatlar hosildor tuproq va suv resurslariga ega bo'lish orqali ustunlikka erishganlar. Sanoat inqilobi davrida esa mashina ishlab chiqarishning joriy etilishi bilan raqobat yangi shaklga kirdi. Zavodlar va mashinalar ishlab chiqarishni kuchaytirib, mahsulot sifatini va miqdorini oshirish imkonini berib, mahsulot ishlab chiqarish va transport tizimlarini samarali qilish raqobatning asosiy omiliga aylandi. Keyinchalik, elektr energiyasi, kimyo, po'lat ishlab chiqarish va og'ir sanoat taraqqiyoti bilan bog'liq bu davrda raqobatning yangi bosqichi paydo bo'ldi. Bu davrda innovatsiya va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish orqali kompaniyalar o'z ustunliklarini mustahkamlashga intildi.

Keyingi iqtisodiy inqilob (1960) davrida esa raqobat kategoriyasi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ya'ni kompyuterlar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari va ITning taraqqiyoti bilan ilmiy adabiyotlarda izohlangan. Keyinchalik internet, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili va mobil texnologiyalar raqobatning sifat jihatdan yangi bosqichiga o'tishni taqozo qildi. Joriy davrda OTMlar ham raqamli raqobatda ishtirok etishni boshladi, bu esa masofaviy ta'lim va onlayn kurslarning ommaviylashishiga olib keldi.

Menejment nuqtayi nazaridan, bu jarayon strategik rejalashtirish, tashqi muhit tahlili va barqaror raqobat ustunliklarini aniqlash kabi yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Ta'lim muassasalari o'z faoliyatini samarali tashkil etish uchun bozor kon'yunkturasini muntazam monitoring qilishi, innovatsion yondashuvlar asosida xizmatlarini diversifikatsiya qilishi va manfaatdor tomonlar bilan qiymat yaratish zanjirini boshqarishni yo'lga qo'yishi zarur.

1-jadval

Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligiga berilgan ta'riflar⁶

Iqtisodchi olimlar OTM raqobatbardoshligiga ta'rif

⁵ Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В2 т. Т. 2 / А. Смит. – М. : Наука, 1993. – 570 с

⁶ Muallif tomonidan jamlangan



Santiago, P., Tremblay, K., Basri, E. va Arnal, E.	OTM raqobatbardoshligi ⁷ bu global raqobat muhitida talabalar, kadrlar, tadqiqot grantlarini jalb qila olish bilan birgalikda sifat, samaradorlikni saqlab qolish va oshirish qobiliyatidir
Agha, S. H., Razzaque, M. A. va Jasimuddin, M.	OTM raqobatbardoshligi ⁸ akademik nufuz, tadqiqot yutuqlari, sanoat va boshqa turdagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash orqali barqaror ustunlikka erishish samaradorligini anglatadi
Altbach, P. G. va Knight, J.	OTM raqobatbardoshligi ⁹ uning xalqaro oliy ta'lim bozorida iste'dodlar, resurslar va nufuz uchun raqobat kurashida muvaffaqiyatli ishtirok etish darajasini anglatadi
Voronov, A. A., Garkovenko, V. E., Safonov, A. M. va Kosnikov, S. N.	OTM raqobatbardoshligi ¹⁰ - bu uning barqaror rivojlanish salohiyatini ta'minlovchi samarali faoliyat yo'nalishlari hamda qiyosiy ustunlikka erishish uchun mavjud operatsion va marketing resurslaridan optimal foydalanish qobiliyatini anglatadi
Muallif ta'rifi	OTM raqobatbardoshligi ¹¹ — ta'lim sifati, ilmiy-pedagogik salohiyat, xalqaro hamkorlik, bitiruvchilarning mehnat bozoriga integratsiyasi va boshqaruv samaradorligiga tayanuvchi, moliyaviy, moddiy-texnik, inson, vaqt va axborot resurslaridan samarali hamda maqsadli foydalanish orqali, raqamli va innovatsion texnologiyalar bilan uyg'un strategik ustunliklarni barqaror shakllantirish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatidir

Raqobatbardoshlikni boshqarishga berilgan ta'riflar uni tadbirkorlik faoliyatining asosiy vositasi sifatida, jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning ajralmas

⁷ Santiago, P., Tremblay, K., Basri, E., & Arnal, E. (2008). Tertiary Education for the Knowledge Society. OECD. <https://doi.org/10.1787/9789264046535-en>

⁸ Agha, S. H., Razzaque, M. A., & Jasimuddin, M. (2012). The impact of flexibility on firm performance: the moderating role of dynamic capabilities. *International Journal of Production Economics*, 135(2), 373–381. <https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2011.07.022>

⁹ Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The internationalization of higher education: Motivations and realities. *Journal of Studies in International Education*, 11(3–4), 290–305.

¹⁰ Voronov, A. A., Garkovenko, V. E., Safonov, A. M., & Kosnikov, S. N. (2018). Higher Education Competitiveness: Definition, Assessment and Ways of Growth. *European Research Studies Journal*, 21(Special 1), 525–534.

¹¹ Muallif tomonidan taklif qilingan



bo'lagi va umumijtimoiy xarakterga ega faoliyat sifatida talqin qilish imkoniyatini beradi. Raqobat esa, R. X. Karlibayeva va A. A. Temirovlarning fikrlariga¹² ko'ra, ijtimoiy jarayon ishtirokchilari o'rtasida farovon hayotga erishish yo'lida olib boriladigan kurashni ifodalaydi.

1-jadvaldagi ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan yondashuvlarga asosan OTM raqobatbardoshligini talabalar oqimi, grantlar, akademik nufuz yoki xalqaro ishtirok darajasi kabi alohida ko'rsatkichlar orqali tavsiflaydi. Biroq muallif tomonidan taklif etilgan ta'rif ushbu tushunchaga tizimli yondashib, ilmiy-pedagogik salohiyat, boshqaruv samaradorligi, bitiruvchilarning mehnat bozoriga integratsiyasi, strategik rejalashtirish hamda innovatsion texnologiyalar asosidagi ustunliklarni qamrab oladi. Mazkur ta'rif o'zining keng qamrovi, zamonaviyligi va ichki tashkiliy omillar bilan uyg'unligiga ko'ra raqobatbardoshlikni chuqurroq ifodalash imkonini beradi. Shu bois ushbu yondashuv O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun dolzarb va amaliy ahamiyatga ega mexanizm yaratishga asos bo'la oladi.

Xulosa. Shu tariqa OTM raqobatbardoshligining zamonaviy talqini raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, robototexnika, bulutli hisoblash tizimlari hamda katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) integratsiyasi bilan yanada mustahkamlanmoqda¹³. Biz tomonidan ilgari surilgan ta'rifga ko'ra, hozirgi bosqich oliy ta'lim muassasalarini faqatgina mahalliy ta'lim bozorida emas, balki xalqaro ta'lim tizimining integral qismi sifatida global raqobatda faol ishtirok etishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" NMIU, 2019
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tqazilgan 2021-yil 16-iyundagi oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi <https://yuz.uz/uz/news/oliy-talim-tizimidagi-ustuvor-vazifalar-belgilandi>
4. N.R.Raxmonov. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish.iqt.f.dok.diss.

¹² Karlibayeva R.X., Temirov A.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. – T.: Iqtisodiyot, 2019. -155 bet.

¹³ Kuldashv Sh.A. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish: 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Samarqand, 2023.



5. Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов. В2 т. Т. 2 / А. Смит. – М. : Наука, 1993. – 570 с
6. Karlibayeva R.X., Temirov A.A. Korxonalarni raqobatbardoshligini baholash. – T.: Iqtisodiyot, 2019. -155 bet.
7. Santiago, P., Tremblay, K., Basri, E., & Arnal, E. (2008). Tertiary Education for the Knowledge Society. OECD. <https://doi.org/10.1787/9789264046535-en>
8. Agha, S. H., Razzaque, M. A., & Jasimuddin, M. (2012). The impact of flexibility on firm performance: the moderating role of dynamic capabilities. *International Journal of Production Economics*, 135(2), 373–381. <https://doi.org/10.1016/j.ijpe.2011.07.022>
9. Altbach, P. G., & Knight, J. (2007). The internationalization of higher education: Motivations and realities. *Journal of Studies in International Education*, 11(3–4), 290–305.
10. Voronov, A. A., Garkovenko, V. E., Safonov, A. M., & Kosnikov, S. N. (2018). Higher Education Competitiveness: Definition, Assessment and Ways of Growth. *European Research Studies Journal*, 21(Special 1), 525–534.
11. Kuldashv Sh.A. Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish: 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi – Samarqand, 2023.

**GAVHARSHODBEGIM - DAVLAT ARBOBI VA BUYUK BUNYODKOR****Salohiddinova Mohira Shahobiddin qizi**

Qo‘qon davlat universiteti 2-bosqich talabasi

mohirasalohiddinova369@gmail.com +9981215483

ORCID ID 0009-0003-1301-6802

Annotatsiya

Ushbu maqolada Temuriylar sulolasining eng nufuzli ayollaridan biri, Shohruh Mirzoning xotini Gavharshodbegimning (1379-1457) hayoti, siyosiy faoliyati va bunyodkorligi yoritiladi. Maqolada malikaning davlat boshqaruvida tutgan o‘rni, ma’rifatparvarlik faoliyati, qurilish ishlari va siyosiy kurashlarini yoritadi. Gavharshodbegim faqat hokimning xotini emas, balki saltanat ishlarini boshqargan, mustaqil qarorlar qabul qilgan, ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlagan davlat arbobi sifatida taqdim etiladi.

Abstract

This article discusses the life, political activity and creativity of Gavharshodbegim (1379-1457), one of the most influential women of the Timurid dynasty, the wife of Shahrukh Mirza. The article highlights the role of the queen in state administration, her educational activities, construction work and political struggles. Gavharshodbegim is presented not only as the wife of the governor, but also as a statesman who managed the affairs of the kingdom, made independent decisions, and supported science and culture.

Аннотация

В данной статье рассматривается жизнь, политическая деятельность и творчество Гавхаршодбегим (1379–1457), одной из самых влиятельных женщин династии Тимуридов, жены Шахруха Мирзы. В статье освещается роль царицы в государственном управлении, её образовательная деятельность, строительные работы и политическая борьба. Гавхаршодбегим представлена не только как жена губернатора, но и как государственный деятель, управлявшая делами королевства, принимавшая независимые решения и поддерживавшая науку и культуру.

Kalit so‘zlar: Gavharshodbegim, Temuriylar, Shohruh Mirzo, Ulug‘bek, Hirot, bunyodkorlik, madrasa, davlat boshqaruvi, ma’rifatparvarlik, XV asr.

Keywords: Gavharshodbegim, Timurids, Shahrukh Mirza, Ulugbek, Herat, creativity, madrasa, state administration, education, 15th century.



Ключевые слова: Гавхаршодбегим, Тимуриды, Шахрух Мирза, Улугбек, Герат, творчество, медресе, государственное управление, образование, XV век.

XV asrda Temuriylar davlati Sharqning eng kuchli va madaniyatli davlatlaridan biriga aylangan edi. Bu davrning buyuk siymolaridan biri - Gavharshodbegim o'zining donoligi, siyosiy mahorati va bunyodkorligi bilan tarixga munosib iz qoldirgan. U nafaqat hukmdorning xotini, balki saltanat ishlarini boshqargan, mustaqil qarorlar qabul qilgan va davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatgan noyob shaxslardan edi.

Gavharshodbegim 1379-yilda Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin Tarxonning oilasida tug'ilgan. Uning avlodi Chig'atoy ulusida yuqori hurmat-e'tiborga sazovor bo'lgan. 1393-yilda 14 yoshida Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Gavharshodbegimdan uch o'g'il va ikki qiz dunyoga kelgan. Uning o'g'illari mashhur olim va hukumdor Ulug'bek Mirzo, san'at homiysi Boysung'ur Mirzo hamda harbiy boshqaruvchi Muhammad Jo'ki Mirzo edi.[1]

Tarixiy manbalar Gavharshodbegimni yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, qat'iyatli va go'zal ayol sifatida tasvirlaydi.

Shohruh Mirzo tabiatan dindor kishilik toat-ibodat va kitob mutolaa qilishga ko'proq vaqt ajratardi. Saltanat va devon ishlarini boshqarish esa ko'p jihatdan Gavharshodbegimning zimmasiga tushgan. Amriddin Berdimurodovning tadqiqotlariga ko'ra, Gavharshodbegim hatto shaxsiy muhrga ega bo'lgan - bu uning ayrim davlat ishlarida mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lganini yaqqol dalili hisoblanadi. Bu muhur to'q yashil nefritdan yasalgan bo'lib, unda suls yozuvi bilan "Gavharshodbegim G'iyosiddin Tarxonning qizi" deb yozilgan. Hozirda Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyida saqlanayotgan bu noyob yodgorlik malikaning siyosiy hokimiyatining moddiy dalilidir.[2]

Gavharshodbegimning ixtiyorida quyidagi masalalar bo'lgan: viloyatlarga hokimlar tayinlash, qo'shinga sarkarlar belgilash, in'om va jazolarni belgilash va davlat moliyasini boshqarish kabi masalalar.

Masalan, 1440-yil 6-mayda mashhur Hirot tarixchisi Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad Xavofiy malikaning g'azabiga uchrab, ikki marta qisqa muddatli qamoqqa hukm qilingan.[3].

Gavharshodbegimning eng muhim xizmati uning ma'rifatparvarlik va bunyodkorlik sohasidagi faoliyatidir. Uning dasturida madaniy va ma'rifiy hayot birinchi o'rinda turgan. 1418-yilda Gavharshodbegimning farmoniga ko'ra Mashhaddagi Imom Rizo qabri yonida g'oyatda hashamatli masjidi jome qurilishi boshlangan. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy bu qurilish haqida batafsil ma'lumotlar bergan.



Gavharshodbegim Hirotida katta qurilish ishlari olib borgan. Jumladan ikkita yirik madrasa (1410-1411 va keyinroq), masjid va xonaqoh majmualari, maqbara va dahmalar, musofirxona va shifoxonalar qurdirgan. Uning qurdirgan Hirot madrasasi vafotidan keyin ham uzoq muddat turli mutaxassislar tayyorlovchi yirik ilm-ma'rifat markazi bo'lib faoliyat olib borgan. Bu me'moriy yodgorliklar hozirda ham Hirotida saqlanib qolgan.

Gavharshodbegim hayotining so'nggi yillari siyosiy kurashlar bilan to'lgan. Tarixda ko'p uchragani kabi Gavharshodbegim ham taxt vorisi sifatida o'z nabirasi Aloud Davla Mirzoni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ko'plab mojarolarga sabab bo'ldi. Shohruh Mirzo og'ir kasallanganida, malika Gavharshodbegim Aloud Davla Mirzoni valiahd etib, unga bay'at berishni tashkil qildi.[4]. Biroq Shohruh Mirzo tuzalgach, bu reja amalga oshmadi. Muhammad Jo'ki Mirzo onasining bunday harakatidan qattiq xafa bo'ldi.

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etgach, taxt uchun qonli kurash boshlandi. Gavharshodbegim nabirasi Aloud Davlani hokimiyatga keltirish uchun harakat qildi. 1450-yilda taxtni Abulqosim Bobur Mirzo qo'lga kiritdi. 1457-yilda u to'satdan vafot etgach, Samarqand hukmdori Sulton Abusayid Mirzo Xurosonni bosib oldi. 80 yoshga yaqinlashgan qarib qolgan Gavharshodbegim hali ham taxt uchun kurashdan to'xtamadi. U nabirasi Sulton Ibrohim Mirzoni Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko'tarishga undaydi. Bundan xabar topgan Sulton Abusayid Mirzo 1457-yilda malikani o'ldirishga buyruq berdi. Gavharshodbegim chopib o'ldirildi va o'zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung'ur dahmasiga dafn etildi.[5] U Sharq tarixida davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan ayollarning yorqin namunasidir. 2003 yilda Qobulda ochilgan xotin-qizlar universiteti Gavharshodbegim nomi bilan atalganligi buning yaqqol dalili. Mirzo Ulug'bek onasi haqida shunday degan: "Onamning ismi-yu ko'zlarigina gavhar emas, balki aqli ham gavhar edi." Bu so'zlar Gavharshodbegimning nafaqat tashqi go'zalligi, balki aql-zakovati va donoligi uchun hurmat-e'tiborga sazovor ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Gavharshodbegim Temuriylar davri tarixining eng muhim siymolaridan biri bo'lgan. U 78 yillik umrida davlat arbobi, ma'rifatparvar, bunyodkor va siyosatchi sifatida katta iz qoldirgan. Shohruh Mirzo davrida Xuroson, xususan Hirot shahrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishida uning hissasi beqiyos.

Gavharshodbegim shaxsiy muhriga ega bo'lgan, davlat ishlarida mustaqil qarorlar qabul qilgan va saltanat boshqaruvida katta rol o'ynagan. Uning bunyod etgan madrasalar, masjidlar va xonaqohlar uzoq vaqt ilm-ma'rifat markazlari bo'lib xizmat



qilgan. Hirot va Mashhaddagi me'moriy yodgorliklari bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Gavharshodbegimning siyosiy faoliyati, ayniqsa, taxt uchun kurashda faol ishtirok etishi, o'sha davr uchun noodatiy hodisa edi. Garchi uning oxirgi yillaridagi siyosiy ishlari fojiali oqibatlariga olib kelgan bo'lsa-da, bu uning kuchli irodasi va davlat ishlariga chuqur aralashganligining dalilidir. Bugungi kunda Gavharshodbegim xotirasi hurmat bilan esda tutilmoqda. Qobuldagi xotin-qizlar universitetining uning nomi bilan atalishi, Hirotidagi me'moriy yodgorliklarning saqlanib qolishi va tarixiy tadqiqotlarda unga bo'lgan katta e'tibor - bularning barchasi Gavharshodbegim merosining davom etayotganidan dalolat beradi. U nafaqat o'z davri uchun, balki keyingi avlodlar uchun ham ma'rifatparvar ayol, qobiliyatli davlat arbobi va buyuk bunyodkorning yorqin namunasi bo'lib qoldi.

Adabiyotlar:

1. The Zafarnamah by Maulana Sharfuddin Ali of Yazd. I-II, Kalkutta, 1885-88. Шарофиддин Али Яздий. "Зафарнома". I-II, Мухаммад Аббосий, Техрон, хижрий 1336. Шарофиддин Али Яздий. "Зафарнома". А. Ўринбоев. – Тошкент, 1972.
2. Абдураззок Самаркандий, Матлаи саълайн на мажман бахрайн. 2-жилд, 1-қисм. Форс тилидан А. Ўринбоев таржимаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
3. Турғун Файзиев. Темурий маликалар. – Т., 1994. – Б. 8-9.
4. Бердимуродов А. Гавҳар Шод бегим // Бухоро мавжлари. – Бухоро. 2012. - №3. – Б. 11-13;
5. Файзиев Т. Хонзодабегим, Гулбаданбегим // Бухоро мавжлари. – Бухоро: 2010. - №4. – Б. 22-23.
6. Ҳайдаров И, Турдихўжаева М. Манбаларда Гавҳаршод Бегим сиймоси. // Sharq mash'ali № 3, 2022 – Б. 53-57

**THE ROLE OF MOTIVATION IN LEARNING ENGLISH**

Qo‘qon universiteti

Jahon tillari kafedrası o‘qituvchisi

Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi

gmail:yokubjanovadilnavoz@gmail.com

Tel: +998908315153

Umarova Rayxona Baxromjon qizi

FTI 3_25_group

+998917452107

r0128561@gmail.com**ANNOTATION**

This article examines the role and importance of motivation in learning English as a foreign language. Motivation is considered one of the key factors that influences learners' success, interest, and persistence in the learning process. The study highlights different types of motivation, such as intrinsic and extrinsic motivation, and explains how they affect students' language acquisition, participation, and overall performance. Furthermore, the article discusses the role of teachers in increasing students' motivation through effective teaching methods, positive learning environments, and encouragement. The research concludes that motivated learners are more active, confident, and successful in mastering English, and motivation significantly contributes to achieving language learning goals.

Keywords: motivation, English language learning, intrinsic motivation, extrinsic motivation, foreign language, teaching methods, learning process, student success, language acquisition, education.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganishda motivatsiyaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Motivatsiya o‘quvchilarning muvaffaqiyati, qiziqishi va o‘rganish jarayonidagi qat‘iyatiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotda motivatsiyaning ichki (intrinsic) va tashqi (extrinsic) kabi turlari yoritilib, ularning o‘quvchilarning tilni egallashi, dars jarayonidagi ishtiroki hamda umumiy natijalariga qanday ta‘sir ko‘rsatishi tushuntiriladi. Bundan tashqari, maqolada o‘qituvchilarning samarali o‘qitish usullari, ijobiy o‘quv muhiti yaratish va rag‘batlantirish orqali o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishdagi roli ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot xulosasiga ko‘ra, motivatsiyaga ega o‘quvchilar ingliz tilini o‘zlashtirishda yanada faol, ishonchli va muvaffaqiyatli bo‘ladilar hamda motivatsiya



til o'rganish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, ingliz tilini o'rganish, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, chet tili, o'qitish usullari, o'quv jarayoni, o'quvchi muvaffaqiyati, tilni egallash, ta'lim

Introduction

Motivation plays a crucial role in learning English as a foreign language. It is considered one of the most important psychological factors that directly influence learners' success, interest, and persistence in the language learning process. Without motivation, learning a new language can become difficult, boring, and ineffective. However, when students are motivated, they show greater enthusiasm, put more effort into learning, and achieve better results. Motivation encourages learners to attend classes regularly, complete assignments, practice language skills, and overcome difficulties. There are two main types of motivation in learning English: intrinsic motivation and extrinsic motivation. Intrinsic motivation comes from within the learner. It is driven by personal interest, enjoyment, curiosity, and the desire for self-development. For example, some students learn English because they enjoy learning new languages, want to communicate with foreign people, or are interested in English culture, movies, and books. These learners usually show strong commitment and long-term engagement. Extrinsic motivation, on the other hand, comes from external factors such as good grades, exams, rewards, scholarships, career opportunities, or social recognition. For instance, many students learn English to pass exams, enter universities, or find better jobs in the future. Both types of motivation are important and can positively influence the learning process.

Literature review and Methodology

Motivation also affects the development of four main language skills: listening, speaking, reading, and writing. Motivated students are more willing to practice speaking, even if they make mistakes. They listen more carefully, read additional materials, and try to write correctly. Motivation increases learners' confidence and reduces their fear of making errors. As a result, students become more active participants in the classroom and improve their language competence more effectively. The role of the teacher is also very important in increasing students' motivation. Teachers can motivate students by using modern and interactive teaching methods, such as group work, discussions, games, multimedia tools, and real-life communication activities. Creating a positive and supportive learning environment helps students feel comfortable and confident. Encouragement, praise, and constructive feedback also play a significant role in maintaining learners' motivation. When teachers show interest in



students' progress and support their efforts, students feel more inspired to learn. In addition, the learning environment, family support, and personal goals also influence motivation. Students who have clear goals, such as studying abroad, traveling, or building an international career, are usually more motivated. Modern technology, including the internet, social media, and mobile applications, also provides new opportunities for students to learn English in interesting and engaging ways. Motivated learners usually set clear goals for themselves and try their best to achieve them. For example, some students want to study at foreign universities, work in international organizations, or communicate with people from different countries. These goals inspire learners to improve their English skills continuously. Motivation also helps students manage learning difficulties. Learning a foreign language requires time, patience, and regular practice. Students who are motivated do not give up easily when they face challenges such as difficult grammar, new vocabulary, or pronunciation problems. Instead, they continue practicing and improving their skills step by step. Another important aspect of motivation is its influence on learners' independence. Highly motivated students often take responsibility for their own learning. They try to learn not only during lessons but also outside the classroom. For instance, they watch English videos, listen to English songs, read books, and use mobile applications to improve their language skills. This independent learning helps students develop their abilities faster and more effectively. Motivation also increases learners' concentration and attention, which are necessary for understanding and remembering new information.

Furthermore, emotional factors are closely connected with motivation. When students feel confident, supported, and interested, their motivation increases. Positive emotions create a favorable learning atmosphere and help students express themselves freely. On the other hand, fear, stress, and negative experiences can reduce motivation and slow down progress. For this reason, it is important to create a friendly and encouraging learning environment where students feel safe and respected.

Conclusion

In conclusion, motivation is a key factor in learning English successfully. It helps students stay focused, overcome challenges, and achieve their language learning goals. Both intrinsic and extrinsic motivation contribute to effective learning. Teachers, educational institutions, and learners themselves should pay attention to maintaining and increasing motivation. Highly motivated students are more confident, active, and successful in mastering the English language.



References:

1. Second Language Acquisition and Second Language Learning. Ellis, R. (1997). Oxford: Oxford University Press.
2. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). New York: Plenum Press.
3. Educational Psychology: Theory and Practice. Slavin, R. E. (2012). Boston: Pearson Education.
3. Bourdieu, P. (1984). *Distinction: A social critique of the judgment of taste*. Cambridge, MA: Harvard university press.
4. Börekci, C., & Uyangör, N. (2021). Analyzing pre-service teachers' educational philosophy preferences, curriculum design orientation, and epistemological beliefs with structural equation model. *Participatory Educational Research*, 8(3).
5. Celce-Murcia, M. & Larsen-Freeman, D. (1983). *The grammar book: An EFL/ESL teacher's course*. New York: Newbury house.



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA SHARTNOMA HUQUQINING RIVOJLANISHI

**Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi
fakulteti 4-kurs talabasi Xusanov Sardor Shuhratovich**

Annotatsiya

Raqamli texnologiyalar davrida shartnoma huquqi jadal rivojlanib, an'anaviy yondashuvlar zamonaviy raqamli yechimlar bilan boyitilmoqda. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida shartnoma huquqining taraqqiyoti ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Elektron shartnomalarni tuzish va elektron raqamli imzolarni qo'llashning huquqiy asoslari, "aqlli shartnoma" (smart contract) tushunchasining paydo bo'lishi va uning huquqiy maqomi, shuningdek, raqamli muhitda kelib chiqayotgan yangi huquqiy muammolar yoritiladi. Turli xorijiy va mahalliy manbalarga asoslangan holda, shartnoma huquqini raqamli asr talablari va imkoniyatlariga moslashtirish zarurati ilmiy asosda bayon etiladi. Natijalarda raqamli texnologiyalar shartnoma tuzish jarayonlarini qanday osonlashtirayotgani hamda bu boradagi ehtimoliy xatar va yechimlar tahlil qilinadi. Maqola doirasida yetuk olimlar fikrlari va qonunchilikdagi o'zgarishlar sharhi ham keltirilib, raqamli davrda shartnoma huquqining istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlariga doir xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar

Shartnoma huquqi, raqamli texnologiyalar, elektron shartnoma, elektron raqamli imzo, aqlli shartnoma (smart contract), blockchain, elektron tijorat, huquqiy tartibga solish.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning hayotimizning deyarli barcha jabhalariga kirib borishi huquqiy munosabatlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, shartnoma huquqi sohasida raqamli transformatsiya natijasida shartnomalarni tuzish, ijro etish va ta'minlash usullari keskin o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Ilgari shartnomalar ko'pincha qog'oz ko'rinishida, shaxsan uchrashuv yoki qo'lda imzolash orqali tuzilgan bo'lsa, endilikda elektron xatlar, SMS-xabarlar va internetdagi platformalar vositasida ham bitimlar tuzilishi kundalik holga aylangan. Masalan, zamonaviy huquqda hatto oddiy "👍" (yaxshi) emoji belgisi ham tarafning roziligini ifoda etishi va shartnoma qabul qilinganini bildirishi mumkinligi sud amaliyotida qayd etildi. 2023 yilda Kanadada sud "bosh barmoq" emojisining SMS orqali yuborilishini



Learning and Sustainable Innovation

shartnomani qabul qilish belgisi deb topib, fermer xo'jaligini don yetkazib bermaganligi uchun javobgarlikka tortdi. Bu misol shuni ko'rsatadiki, axborot almashish shakli o'zgargani bilan, shartnoma tuzishning huquqiy mohiyati saqlanib qoladi – ya'ni tomonlarning o'zaro roziligi har qanday shaklda bo'lsa-da, huquqiy kuchga ega bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, raqamli davr shartnomaviy huquqni zamon talablariga moslashtirish uchun davlatlar tomonidan keng ko'lamli qonunchilik islohotlarini talab qilmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlarida elektron tijorat va elektron imzo to'g'risidagi qonunlar qabul qilinib, elektron hujjatlar va xabarlar qog'ozdagi hujjatlar bilan tenglashtirilgan. BMTning "Xalqaro shartnomalarda elektron aloqalardan foydalanish to'g'risida"gi 2005 yilgi Konvensiyasi elektron xabarlar va hujjatlarning qog'oz hujjatlar bilan teng huquqiy kuchga egaligini e'tirof etgan bo'lib, bu xalqaro miqyosda raqamli shartnomalar tuzishni yengillashtirdi. Xususan, AQShda 2000 yilda qabul qilingan **E-SIGN Act** va bir qator shtatlarda amal qiluvchi **UETA** qonunlari elektron imzo va yozuvlarni qonuniy tan oladi – natijada raqamli bitimlar huquqiy ijro etilish jihatidan an'anaviy shartnomalardan kam bo'lmagan darajada kuchga ega bo'ldi. Yevropa Ittifoqida ham 2016 yildan kuchga kirgan **eIDAS** reglamenti elektron identifikatsiya va ishonch xizmatlari bo'yicha yagona talablarni joriy etib, a'zo davlatlarda elektron imzo va elektron shartnomalarning huquqiy maqomini yagona darajaga ko'tardi. Bu hujjatlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hujjatlar ham xuddi qo'lda imzolangandek kuchga ega ekanini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli texnologiyalar asrida shartnoma huquqini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2004 yilda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun va 2003 yildagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonun raqamli bitimlar uchun huquqiy zamin yaratgan edi. Yangi raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu qonunlar takomillashtirilib, 2022 yilda "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi yangi Qonun kuchga kirdi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, elektron tijoratda tomonlarning shartnoma shartlarini elektron hujjatlar yoki elektron xabarlarni tasdiqlash orqali kelishishi natijasida tuzilgan bitim haqiqiy shartnoma deb e'tirof etiladi. Ya'ni, elektron yozishmalar va fayllar ko'rinishidagi shartnoma hujjati qonuniy kuchga ega bo'lib, u tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Qonunchilik shuningdek, agar qonun yoki tomonlarning kelishuviga binoan bitimni qo'l bilan imzolash talab etilsa, bunday hollarda elektron hujjat tegishli tarzda elektron raqamli imzo qo'yilsa, imzolangan deb hisoblanishini alohida qayd etgan. Demak, elektron raqamli imzo qo'yilgan elektron shartnoma huquqiy jihatdan qo'lda imzolangan qog'oz shartnoma



bilan teng hisoblanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston qonunchiligida elektron tijorat munosabatlarida hujjatni imzolagan shaxsni identifikatsiya qilish va roziligini tasdiqlashga xizmat qiluvchi boshqa elektron usullar (SMS-kod, biometrik identifikatsiya – masalan, Face ID va hokazo) ham imzo o‘rnida tan olinishini belgilab qo‘ygan. Nihoyat, qonunda muhim tamoyil sifatida qayd etiladiki, faqat axborot tizimlari vositasida tuzilganiga asoslanib, shartnomani haqiqiy emas deb topish mumkin emas. Bu norma shuni anglatadiki, raqamli muhitda tuzilgan bitimlar faqatgina “raqamli” ekani uchun bekor qilinmaydi – aksincha, odatdagi fuqarolik-huquqiy bitimlar singari haqiqiy hisoblanadi.

Keltirilgan holatlar raqamli texnologiyalar davrida shartnoma huquqining qanchalik tez o‘zgarib, yangi sharoitlarga moslashib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida shartnomaviy huquq institutining rivojlanishi, uning afzalliklari va muammolari hamda kelgusida takomillashtirish yo‘nalishlari batafsil tahlil qilinadi. **Kirish** qismida muammo umumiy tavsifi va dolzarbligi yoritildi. Keyingi bo‘limlarda tadqiqot metodlari, olingan natijalar, ularning muhokamasi keltirilib, s‘yngra umumiy xulosalar va takliflar beriladi.

Ushbu ilmiy tadqiqotda shartnoma huquqining raqamli texnologiyalar sharoitidagi rivojlanishini o‘rganish uchun zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Avvalo, huquqiy-normativ manbalar hamda xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar bo‘yicha adabiy tahlil o‘tkazildi. Tadqiqot davomida huquqiy ma‘lumotlar bazalari (masalan, Lex.uz milliy huquqiy bazasi) va xalqaro ilmiy maqolalar (Google Scholar va JSTOR orqali)dan foydalangan holda, dolzarb nazariy yondashuvlar o‘rganildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil va formal-huquqiy tahlil usullari tanlandi. Ushbu usullar yordamida raqamli transformatsiyaning shartnoma huquqiga ta‘sir ko‘rsatish xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari aniqlab chiqildi, ijobiy va salbiy jihatlar tahlil qilindi, shuningdek, shartnoma institutining raqamlashtirish sharoitida rivojlanish tendensiyalari belgilandi. Qo‘shimcha ravishda, tarixiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilib, shartnoma huquqining raqamli texnologiyalar ta‘siridagi taraqqiyoti tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham o‘rganildi. Turli davlatchilik tajribalarini qiyoslash va ilmiy nuqtai nazarlarni solishtirish orqali mazkur masalada shakllangan doktrinal yondashuvlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga, sud amaliyotiga doir hujjatlar o‘rganilib, ularni taqqoslash usuli qo‘llandi. **Ma‘lumot to‘plash usullari** sifatida ochiq huquqiy manbalar va axborot tizimlaridan foydalandik. Olingan ma‘lumotlar tahlili asosida shartnoma huquqini raqamli davrga moslashtirish borasida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida Nik Szabo,



Learning and Sustainable Innovation

George H. Singer, Nodiraxon Abdurahmonova kabi olim va mutaxassislarning ilmiy ishlari, shuningdek, xalqaro konferensiya materiallari va qonunchilik hujjatlaridan keng foydalanildi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida shartnoma huquqining rivojlanishi bo'yicha tahlillar quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi:

Dunyo miqyosida shartnomalar bo'yicha huquqiy normalar "media neytral" tamoyili asosida rivojlanib, elektron shakldagi kelishuvlar to'liq qonuniy kuchga ega deb tan olindi. Xalqaro va milliy huquq normalari elektron xatlar, matnli xabarlar, veb-saytdagi rozilik tugmalari orqali tuzilgan bitimlarni haqiqiy shartnoma sifatida qabul qilmoqda. Masalan, yuqorida aytib o'tilganidek, Kanadada **Achter Land & Cattle Ltd. v. South West Terminal Ltd.** ishida SMS orqali yuborilgan 👍 emoji shartnomani qabul qilish ifodasi sifatida e'tirof etildi. AQSh qonunchiligida E-SIGN Act (2000) va UETA singari qonunlar elektron imzo va yozuvlarni an'anaviy imzo va hujjatlarga tenglashtirgan bo'lsa, Yevropa Ittifoqida eIDAS reglamenti elektron imzo va elektron shartnomalarni barcha a'zo davlatlarda bir xil huquqiy kuchga ega ekanini kafolatladi. Shuningdek, BMTning 2005 yilgi Konvensiyasi elektron kommunikatsiyalarni qog'oz hujjatlar bilan teng deb topib, transchegaraviy elektron shartnomalarni tan olishga zamin yaratdi. **O'zbekiston** misolida esa 2022 yilgi yangi tahrirdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun elektron hujjatlar va elektron xabarlar bilan tuzilgan bitimlar to'liq qonuniy kuchga ega ekanini mustahkamladi. Unga ko'ra, elektron tijoratda taraflar elektron hujjat yoki xabarlar orqali kelishgan shartnoma **asl hujjat** hisoblanadi va qog'ozdagi imzolangan shartnomaga tenglashtiriladi. Qonun shuningdek, elektron bitimlarni imzolash masalasiga aniqlik kiritib, agar qonun qo'l bilan imzolashni talab etsa, bunday hujjatga elektron raqamli imzo qo'yilsa, hujjat imzolangan hisoblanishini belgiladi. Shu tariqa, xalqaro va milliy darajada elektron shartnomalarning legitimligi ta'minlandi. Bu normativ o'zgarishlar raqamli iqtisodiyot sharoitida shartnomaviy munosabatlarning uzluksiz va ishonchli amalga oshirilishi uchun huquqiy poydevor yaratdi.

Raqamli texnologiyalar tufayli shartnomalarni tuzish va bajarish sezilarli darajada tezlashdi va soddalashdi. **Elektron hujjat aylanishining** joriy etilishi natijasida endilikda shartnoma matnlarini, ariza va ilovalarni elektron shaklda rasmiylashtirish va darhol almashish imkoni mavjud bo'lib, bu jarayonlarni ancha tezlashtiradi va ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytiradi. Masofadan turib turli huquqiy xizmatlarni amalga oshirish imkoni paydo bo'ldi: masalan, advokat va mijoz o'rtasida onlayn videoaloqa orqali maslahatlashuv o'tkazish yoki masofadan turib shartnoma tuzish



amaliyoti yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa vaqt va geografik masofalarni bartaraf etib, tezkor kelishuvlarga zamin yaratmoqda. **Onlayn shartnoma platformalari** joriy qilinib, internet orqali masofaviy tarzda shartnoma tuzish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, elektron tijorat saytlarida foydalanuvchi mahsulotni sotib olish uchun “Qabul qilaman” tugmasini bosishi bilan shartnoma tuzilgan hisoblanadi – bu esa bir necha soniyada bitimni rasmiylashtirish imkonini beradi. Xizmat ko‘rsatish sohalarida ham maxsus mobil ilovalar yoki veb-platformalar orqali avtomatik rejimda shartnoma tuzish trendga aylandi. **Avtomatlashtirilgan shartnoma tuzish tizimlari** yaratilmoqda – bunda tayyor shablonlar yoki sun‘iy intellekt yordamida tuziladigan shartnomalar qo‘llanilib, hujjat tayyorlash tezligi keskin oshdi. Shu jumladan, kontraktlarni tuzish va tekshirishga mo‘ljallangan dasturiy vositalar (“legal tech”) huquqshunoslar ishini yengillashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar tufayli bitim tuzishda hududiy chegara va masofa tushunchasi ham ahamiyatini yo‘qotmoqda – dunyoning ikki chekkasida joylashgan kompaniyalar bir necha daqiqada onlayn shartnoma imzolash imkoniyatiga ega bo‘lib, bu xalqaro savdo aloqalarini ham yengillashtirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamlashtirish jarayoni shartnomaviy munosabatlarda tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi, kelishuv tezkorligini oshiradi va shaffoflikni ta‘minlaydi. O‘zbekiston sharoitida ham davlat xizmatlari va sud tizimida elektron hujjat aylanishi joriy etilib, bu masalan sudlarda da‘vo arizalarini onlayn topshirish, shartnomalarni elektron ro‘yxatdan o‘tkazish kabi qulayliklarni yaratdi. Umuman, natijalar ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar shartnoma tuzish jarayonini ancha samarali va qulay qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning yanada rivojlanishi natijasida shartnomaviy munosabatlarda **aqli shartnoma** tushunchasi paydo bo‘ldi. Aqli shartnoma deganda – odatdagi shartnoma shartlarining bajarilishini avtomatik ravishda ta‘minlaydigan maxsus dasturiy kod tushuniladi. Bu tushunchani ilk bor amerikalik kriptograf va huquqshunos **Nik Szabo** 1990-yillarda ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, u aqli shartnomani elektron tashuvchidagi raqamli kod sifatida tariflagan edi. Aqli shartnomalar blockchain (blokcheyn) texnologiyasi bazasida ishlaydi va unda shartnoma shartlari dastur ko‘rinishida yozib qo‘yiladi. Tomonlar oldindan belgilab olgan shartlar ro‘yobga kelishi bilan tizim avtomatik tarzda tegishli majburiyatlarni bajaradi yoki huquqlarni amalga oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aqli shartnomalar vositasida vositachilarsiz, inson omilisiz bitimlarni bajarish imkoni mavjud bo‘lib, bu juda murakkab va ko‘p qatnashchili tranzaksiyalarni ham ishonchli va tezkor amalga oshirishga xizmat qiladi. **Masalan**, Shri Vishnu Muhandislik kollejidan Hema Pavani Pearl keltirgan misolga ko‘ra, “aqli ipoteka” shartnomasini



qo'llash natijasida ipoteka bitimini rasmiylashtirish muddati odatiy 50-60 kundan atigi 4-6 kunga tushgan. Bu aqlli shartnomalarning real sektordagi samaradorlik salohiyatini yaqqol ko'rsatadi. Shunga o'xshash tarzda, aqlli shartnomalar **sug'urta** sohasida sug'urta hodisasi sodir bo'lganda to'lovlarni avtomatik amalga oshirish, **sog'liqni saqlash** sohasida bemorlar ma'lumotini monitoring qilish kabi jarayonlarda qo'llanilmoqda va sezilarli samaralar bermoqda. Masalan, tibbiyot sohasida bemor haqidagi ma'lumotlar va dori ta'minoti jarayonlariga aqlli shartnomalarni tatbiq etish har yili minglab insonlarning hayotini saqlab qolishi mumkinligi aytilmoqda.

Dunyo miqyosida energiya resurslaridan tejamkor foydalanish, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorini kamaytirish va avtomobil transportining umumiy samaradorligini oshirish muhim vazifa bo‘lib bormoqda. Ichki yonuv dvigatelarda yoqilg‘i narxlarining o‘zgaruvchanligi, neftga bo‘lgan global talabning ortib borishi va ekologik talablarning kuchayishi transport vositalarini muqobil yoqilg‘ilarga o‘tkazish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Transport vositalarini gazlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy tomoni, balki ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va



avtomobillarning ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Yurtimizda sharoitidan kelib chiqib gaz resurslarining yuqoriligi va ularning arzonligi transportni gazlashtirishni yana ham dolzarb qiladi.

Transport vositalarini gazlashtirish jarayoni, o'zining ekologik tozaligi, narx-navo jihatidan arzonligi va ichki resurslarga asoslanishi kabi xususiyatlari bilan iqtisodiy samaradorlikni oshirishga hamda atrof-muhitni himoya qilishga katta hissa qo'shadi. O'zbekistonda ham ushbu jarayonni kengaytirish va joriy etish tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatda transport tizimini gazlashtirish bo'yicha bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu esa nafaqat transport tizimining energiya samaradorligini oshiradi, balki ekologik vaziyatni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Ma'lumki, transport sohasidagi gazlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun, avvalo uni rivojlantirishning bosqichlarini, zarur infratuzilma va tizimdagi o'zgarishlarni ko'rib chiqish muhimdir. Ushbu maqolada transport vositalarini gazlashtirishning zarurati, uning afzalliklari, rivojlanish bosqichlari va yurtimizda bu jarayonni kengaytirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Maqolaning asosiy maqsadi, transport vositalarini gazlashtirishning zarurati va uning rivojlanish bosqichlarini batafsil tahlil qilish, shuningdek, yurtimizda transportni gazlashtirishning bugungi holati va istiqbollarni ko'rib chiqishdir. Bu jarayonning ekologik va iqtisodiy ahamiyatini o'z ichiga olgan holda, uning amalga oshirilishi va rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni hal etish yo'llarini ko'rsatishdir.

Maqolada transport vositalarini gazlashtirishning zarurati, uning bosqichli rivojlanishi, texnologik takomillashuvi va amaliy afzalliklari batafsil tahlil qilinadi.


Asosiy qism

I. Gazlashtirishning zarurati.

Transport vositalarida gazdan foydalanish

I.1. Iqtisodiy zarurat.

Avtomobillarni gazga o'tkazishning eng asosiy sababi — yoqilg'i tejamkorligidir. Metan (SPG) va propan-butan (SNG) yoqilg'ilarining narxi benzin yoki dizel yoqilg'isiga qaraganda bir necha barobar arzon.



1-rasm. Gaz balloni o‘rnatilgan dvigatelning sxemasi

1-yonilg‘i baki, 2-benzin kanalini ochib-yopuvchi elektroklapan, 3-karbyurator, 4-metan gazi uhun reduktor, 5-gaz bilan to‘ldirish klapani, 6-elektroklapan, 7-metan gaz balloni

Bu esa transport egalariga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Ekspluatatsiya xarajatlarining kamayishi;
- Yirik transport korxonalarida xarajatlar qisqarishi;
- Ommaviy tashish xizmatlari uchun arzon tariflarni saqlab qolish;
- Yoqilg‘i bozori barqarorligi.

I.2. Ekologik zarurat.

Gaz yoqilg‘ilarining yonish jarayoni benzinga nisbatan toza bo‘ladi. Natijada:

- CO₂ emissiyasi 20–25 % kamayadi;
- NO_x, CO va CH uglevodorodlar miqdori pasayadi;
- Havoni ifloslantirish kamayadi;
- Shovqin darajasi past bo‘ladi.

Shu bois gazlashtirish ekologik talablarni bajarishda muhim omil hisoblanadi.

I.3. Texnik zarurat.

Gaz yoqilg‘isining oktan soni yuqori bo‘lgani sababli dvigatel yanada barqaror ishlaydi. Metan yonganda dvigatel detonasiyasi kamayadi va uning ishlash muddati uzayadi. Bundan tashqari:

- moy ifloslanishi sekinlashadi;
- dvigatel konstruksiyasi kamroq yeyiladi;
- ishlash silliqiligi oshadi;

I.4. Energiya xafsizligi.

Ko‘plab davlatlarda gaz resurslari neftga nisbatan ko‘proq. Yurimizda ham tabiiy gaz



zaxiralari katta bo'lgani sababli, avtomobillarni gazga o'tkazish energiya mustaqilligini oshiradi.

II. Transportni gazlashtirish tizimlarining rivojlanish bosqichlari.

Transportni gazlashtirish jarayonining rivojlanish bosqichlari quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Texnik tayyorlik va infratuzilma yaratish: Gazlashtirilgan transport vositalari uchun maxsus uskunalar va gaz to'liq yoqish tizimlari o'rnatilishi zarur. Shuningdek, CNG yoqilg'isini taqdim etadigan stansiyalarni qurish va transportni gazlashtirish uchun zarur infratuzilma rivojlantirilishi kerak.

Transport vositalarini modifikatsiya qilish: Odatda, gazlashtirish jarayoni transport vositalarining dvigatel tizimi, yoqilg'i tizimi va boshqaruv tizimiga o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Bu o'zgarishlar malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Tizimni kengaytirish va rivojlantirish: Gazlashtirilgan transport vositalarini kengaytirish va ko'paytirish uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi siyosat va subsidiyalar joriy etilishi kerak. Bundan tashqari, CNG stansiyalarini ko'paytirish va ularni butun mamlakat bo'ylab tarqatish muhim. Transport vositalarini gazga o'tkazish texnologiyasi bir necha bosqichni bosib o'tgan. Bugungi kunda 1–6 avlod gaz ballon uskunalari ishlab chiqarilgan.

Birinchi avlod GBO: Mexanik boshqaruvli, karbyuratorli avtomobillar uchun mo'ljallangan; Aralash gaz-yoqilg'i tizimi; Samaradorlik past; Emissiya nazorati deyarli yo'q.

Ikkinchi avlod GBO: Elektron boshqaruv tizimining joriy etilishi; Gaz taqsimoti yaxshiroq boshqarilgan; CO emissiyasi kamaygan.

Uchinchi avlod GBO: Inyeksion tizimlar bilan mos; Gaz oqimi elektron boshqariladi; Yonilg'i sarfi optimallasadi.

To'rtinchi avlod GBO: Eng keng tarqalgan avlod; Har bir tsilindrga alohida gaz purkash; Avtomobilning ishlash dinamikasi benzina yaqin; Ekologik ko'rsatkichlar juda yaxshi.

Beshinchi avlod GBO: Suv holatiga yaqinlashtirilgan fazada gaz purkash; Yevropa ekologik talablariga mos; Tezkor boshqaruv moduli.



Oltinchi avlod GBO: To'liq raqamli boshqaruv; Minor xarajatlar, yuqori samaradorlik; Gazni to'g'ridan-to'g'ri dvigatelning yonish kamerasiga yuborish.

Gazlashtirish texnologiyasi har bir avlodda yanada takomillashib borib, tejamkorlik va ekologik tozalikni oshirdi.

III. Yurtimizda transport vositalarini gazlashtirish jarayoni.

Transport vositalarini gazlashtirish jarayoni yurtimizda nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda gazlashtirish texnologiyasi (xususan, transport vositalarini gazlashtirish) ko'plab mamlakatlar, shu jumladan, Yurtimizda ham energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va neft mahsulotlariga bo'lgan ihtiyojini kamaytirish maqsadida joriy etilmoqda. Transport vositalarini gazlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy va ekologik afzalliklarni ta'minlashga yordam beradi, balki ichki energiya resurslaridan samarali foydalanishni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Yurtimizda so'nggi yillarda transport vositalarini gazlashtirish bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlardan biridir. Transportda gazdan foydalanish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik foyda ham bermoqda. Yurtimizda gazlashtirish jarayoni quyidagi ishlar olib borildi shu jumladan:

- metan (CNG) zapravkalari qurildi;
- shahar transportining katta qismi metanga o'tkazildi;
- yangi avtobuslar va taksilarning aksariyati zavoddan gaz tizimi bilan chiqmoqda;
- gaz ballonlarini sertifikatlash va sinovdan o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi.

IV. Gazlashtirishning afzalliklari va mavjud muammolari.

Afzalliklari. Gazlashtirish texnologiyasining afzalliklari ko'p jihatdan uning iqtisodiy samaradorligi, ekologik tozaligi va energiya ishlab chiqarishdagi moslashuvchanligi bilan bog'liq. Gazlashtirish, ko'pincha energiya ishlab chiqarish, kimyo sanoati va chiqindi materiallarni qayta ishlash sohalarida qo'llaniladi. Yoqilg'i xarajatlari 40–60% gacha kamayadi. Dvigatel resursi oshadi. Havoga chiqariladigan zararli modda kam. Transport tizimining barqarorligi ta'minlanadi.

Muammolari: Gazlashtirish jarayonining samaradorligini va ekologik xavfsizligini oshirish uchun texnologiyalarni rivojlantirish va yangi innovatsiyalarni qo'llash zarur. Shuningdek, ekologik muammolarni bartaraf etish, iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh bo'lish va texnologiyalarning barqarorligini ta'minlash uchun samarali yechimlar izlash muhimdir. Ba'zi hududlarda zapravka stansiyalari yetishmasligidir. Texnik



xizmat ko'rsatishning malakali mutaxassislariga bog'liq bo'ladi. Ba'zi eski avtomobillarda moslash jarayoni qiyin kechadi. Gaz balloni foydalanish muddatini nazorat qilish zarurligi.

Xulosa

Xulosadan ma'lum bo'ladiki, transport vositalarini gazlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik muhitni tozalash va energiya resurslaridan oqilona foydalanishning eng ishonchli yo'llaridan biridir. Gaz yoqilg'isi bilan ishlovchi transport tizimi dunyo miqyosida tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va yurtimizda amaliyoti ham bu jarayonning samarali va istiqbolli ekanini tasdiqlab bermoqda.

Kelajakda gazlashtirish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, xavfsizlik standartlarini takomillashtirish va gaz ta'minoti infratuzilmasini kengaytirish transport sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Transport vositalarini gazlashtirish jarayonini kengaytirish va rivojlantirish orqali mamlakatimizda nafaqat energiya samaradorligini oshirish, balki atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, transport xarajatlarini kamaytirish va global issiqlikni oldini olishga hissa qo'shish mumkin. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, subsidiyalar va rag'batlantirish siyosatining amalga oshirilishi transportni gazlashtirishning rivojlanishida muhim omil bo'ladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatning energetik xavfsizligini ta'minlashga, transport sektorini modernizatsiya qilishga va barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantalali marosimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining kushma majlisidagi nutki. - T.: "O'zbekiston", 2016. -56 b.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakteristikalar strategiyasi tugrisida. 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10-fevral 2007-yildagi 30-sonli "Avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stantsiyalari va avtomobillarga gaz quyish stantsiyalari shaxobchalarini rivojlantirish hamda avtotransport vositalarini suyuqlashtirilgan va siqilgan gazga bosqichma-bosqich o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori.
4. Ichki yonuv dvigatellari nazariyasi asoslari-O.O.Daminov; Toshkent 2022



5. Ichki yonuv dvigatellari- M.M.Fayziyev, M.M.Miryunusov, M.M.Orifjanov, B.I.Bozorov; “Turon-Iqbol”,2007
6. Transport vositalarda ishlatiladigan eksploatatsion materiallar- Z.X.Alimova, Darslik; Toshkent-2019
7. Ichki yonuv dvigatellari uchun yonilg‘ini faollashtirish moslamasini yaratish va o‘lchamlarini asoslash.-Z.U.Muxammadjanov, Monografiya;Andijon-2025
8. “O‘zbekiston transport tizimini ekologik tozalash va energiya samaradorligini oshirish”. O. Abduvohidov, (2020). O‘zbekistondagi energetika va ekologiya tizimi bo‘yicha maqola
9. Shokirov O. G‘. (2023). Haydovchiga yordamchi innovatsion tizimlar uchun bosh harakati bilan ko‘z imo ishoralari tahlil qilish. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali, maxsus son 2023, № 2 (5). 131-138. [ttps://api](https://api).
10. Ozod G‘aybulla o‘gli, S., & Sobirjon o‘g‘li, M. S. (2024). Innovatsion texnologiyalarni hisobga olgan holda, haydash xatti-harakatlarini boshqarish samaradorligini oshirish. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 39(1), 180-184.
11. “Energetika va ekologiya” (O‘zbekiston Respublikasi, 2020) - Bu qo‘llanma energetika va ekologiya sohasidagi asosiy tushunchalar, jumladan, transportni gazlashtirish texnologiyalarini muhokama qiluvchi o‘quv adabiyoti sifatida qaraladi.
12. “Transport va ekologik xavfsizlik” (O‘zbekiston, 2022) - Bu o‘quv qo‘llanma transportni ekologik toza qilish texnologiyalari, jumladan, gazlashtirish jarayoniga bag‘ishlangan.
13. Internet saytlar:<https://www.iea.org> – International Energy Agency (IEA)
<https://www.iea.org/topics/transport>

**INGLIZ TILINI O'RGANISHDAGI PSIXOLOGIK TO'SIQLAR VA ULARNI
PEDAGOGIK AMALIYOTDA BARTARAF ETISH YO'LLARI****G'aniyeva Madina Muhammad qizi**

SamDChTI Xorijiy til va adabiyoti: Ingliz tili yo'nalishi bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan psixologik to'siqlar tahlil qilinadi. Ularni pedagogik amaliyotda bartaraf etishning samarali yo'llari, jumladan, motivatsiyani oshirish, xavotirni kamaytirish va o'quv muhitini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot xorijiy tillarni o'rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические барьеры, возникающие в процессе изучения английского языка. Предложены эффективные способы их преодоления в педагогической практике, включая повышение мотивации, снижение тревожности и оптимизацию учебной среды. Исследование направлено на повышение эффективности изучения иностранных языков.

Annotation: This article analyzes psychological barriers encountered during English language acquisition. Effective methods for overcoming them in pedagogical practice, including increasing motivation, reducing anxiety, and optimizing the learning environment, are proposed. The research aims to enhance the effectiveness of foreign language learning.

Kalit so'zlar

psixologik to'siqlar; ingliz tili; motivatsiya; xavotir; pedagogik amaliyot; til o'rganish; o'quv muhiti; samaradorlik

KIRISH

Globalizm sharoitida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini bilish shaxsning muvaffaqiyatli faoliyati va karyerasi uchun muhim omilga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-5117-son Qarori ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatining ustuvorligini belgilab bergan edi¹. Biroq, ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2021.



jarayonida o'quvchilar ko'plab qiyinchiliklarga, jumladan, psixologik to'siqlarga duch kelishlari sir emas. Bu to'siqlar til o'rganish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ingliz tilini o'rganishdagi psixologik to'siqlarni chuqur o'rganish, ularning sabablarini aniqlash va pedagogik amaliyotda bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, til o'rganishdagi psixologik omillarga e'tibor bermaslik o'qitish metodikalarining samarasizligiga olib kelishi mumkin. Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, Akramov va Karimova o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ichki munosabati va his-tuyg'ulari jarayonning muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaganlar². Ushbu maqola ingliz tilini o'rganish jarayonida uchraydigan psixologik to'siqlar diagnostikasi va ularni pedagogik amaliyotda bartaraf etishning innovatsion usullarini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi – ingliz tilini o'rganishdagi psixologik to'siqlarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va ularni samarali bartaraf etish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yilgan: ingliz tilini o'rganishdagi asosiy psixologik to'siqlarni nazariy jihatdan o'rganish; ushbu to'siqlarning o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasi va samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish; psixologik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik metod va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini baholash. Muammo tarixiga nazar tashlansa, til o'rganish psixologiyasi XX asrning o'rtalaridan boshlab faol o'rganila boshlangan. Stevick (1976) va Krashen (1985) kabi olimlar xorijiy tillarni o'rganishda shaxsiy omillar, ayniqsa, affektiv filtr tushunchasini ilgari surganlar³. Bu filtr o'quvchining ichki holati, xavotiri va o'ziga ishonchsizligi natijasida til o'zlashtirish jarayoniga to'sqinlik qilishini nazarda tutadi. Keyinchalik, Horwitz, Horwitz va Cope (1986) til o'rganishdagi xavotirni alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganib, uning turli ko'rinishlarini va o'quv jarayoniga ta'sirini ochib berganlar⁴. O'zbekiston sharoitida ham ushbu muammo bo'yicha Ahmadjonova va Shodiyev kabi tadqiqotchilarning ishlari diqqatga sazovordir. Ularning tadqiqotlari mahalliy kontekstda psixologik to'siqlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi⁵.

2 Akramov U.A., Karimova L.M. Xorijiy til ta'limida motivatsiya va shaxs psixologiyasi // Xorijiy tillar ta'limi. – 2022. – No3. – B. 67-72.

3 Krashen S.D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. – New York: Longman, 1985. – 112 p.

4 G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2010. – 480 b.

5 Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign Language Anxiety // The Modern Language Journal. – 1986. – Vol. 70, No2. – P. 125-132.



ASOSIY QISM

Ingliz tilini o'rganish jarayonida o'quvchilar duch keladigan psixologik to'siqlar turli shakllarda namoyon bo'ladi va ularning o'rganish samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu to'siqlarni tushunish va bartaraf etish uchun tadqiqotimizda tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodlariga qiyosiy tahlil, sintez, induktiv va deduktiv usullar, shuningdek, pedagogik kuzatuv va so'rovnomalar kiritildi⁶. Xususan, til o'rganishdagi psixologik to'siqlarni aniqlash uchun Toshkent shahridagi bir nechta umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari talabalari va o'qituvchilari o'rtasida anonim so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomada jami 300 nafar o'quvchi va 50 nafar o'qituvchi ishtirok etdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilini o'rganishdagi eng keng tarqalgan psixologik to'siqlar orasida til o'rganish xavotiri (Foreign Language Anxiety), motivatsiyaning pastligi, o'ziga ishonchsizlik va xato qilishdan qo'rqish ustuvor o'rin egallaydi⁷. Til o'rganish xavotiri bu – o'quvchida xorijiy tilni o'rganish yoki undan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan o'ziga xos qo'rquv yoki tashvish hissi. Bu holat o'quvchining darslarda faol ishtirok etishiga, o'z fikrlarini ifodalashiga va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladi. Masalan, so'rovnomada ishtirok etgan o'quvchilarning qariyb 65% i sinfda ingliz tilida gapirishdan o'zlarini noqulay his qilishlarini, 40% i esa noto'g'ri gapirib qo'yishdan xijolat tortishlarini bildirganlar. Motivatsiyaning pastligi esa ko'pincha tilni o'rganishning ahamiyatini to'la tushunmaslik, o'quv materiallarining zerikarli bo'lishi yoki tezkor natijalarga erisha olmaslikdan kelib chiqadi⁸.

O'ziga ishonchsizlik to'siqlarning yana bir muhim qismidir. Ba'zi o'quvchilar o'zlarining til o'rganish qobiliyatlariga shubha bilan qarashadi, natijada ular hatto oddiy vazifalarni bajarishda ham qiynalishadi. Xato qilishdan qo'rqish esa ko'pincha sinfda faol muloqotga kirishishga to'sqinlik qiladi, chunki o'quvchilar xatoliklari uchun tanqid qilinishdan yoki masxara qilinishdan cho'chidi. Misol uchun, "Aytsam noto'g'ri gapiramanmi?" kabi fikrlar o'quvchining nutq faoliyatini cheklab qo'yadi. Pedagogik amaliyotda ushbu psixologik to'siqlarni bartaraf etishning bir qancha samarali yo'llari mavjud. Birinchidan, o'quvchilar motivatsiyasini oshirish uchun ularning shaxsiy qiziqishlariga mos keladigan o'quv materiallari va interaktiv mashg'ulotlar joriy etilishi lozim. Masalan, o'yin texnologiyalari, loyiha ishlari va real hayotiy vaziyatlarga

⁸ Pinter A. Teaching Young Language Learners. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 208 p.



Learning and Sustainable Innovation

asoslangan kommunikativ topshiriqlar o'quvchilarni faollashtirishi mumkin⁹. Aytaylik, o'quvchilarga biror mavzu bo'yicha kichik tadqiqot o'tkazib, natijalarini ingliz tilida taqdim etish topshirig'i berilishi, ularning ijodiy va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirib, shu bilan birga tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ikkinchidan, til o'rganish xavotirini kamaytirish uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish muhimdir. O'qituvchi xatoliklarni ta'lim jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilib, o'quvchilarni xato qilishdan qo'rqmaslikka undashi kerak. Misol uchun, bir tadqiqotda, o'qituvchilarning ijobiy munosabati va xatolarni tuzatishda konstruktiv yondashuvi o'quvchilarning sinfdagi faolligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan¹⁰. "Men xato qilsam, o'qituvchim meni tushunadi va to'g'ri yo'nalish beradi" degan ishonch o'quvchini yanada dadilroq harakat qilishga undaydi. Shuningdek, o'z-o'zini baholash va tengdoshlar tomonidan baholash kabi metodlar ham o'quvchilarning xavotirini kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchidan, o'ziga ishonchsizlikni bartaraf etish uchun o'quvchilarga kichik, ammo erishish mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yish va ularning har bir muvaffaqiyatini e'tirof etish zarur. Bu jarayonda o'qituvchining o'quvchilarga psixologik qo'llab-quvvatlashi nihoyatda muhim. Masalan, "Sen buni uddalay olasan, faqat ozgina harakat qilish kerak" kabi rag'batlantiruvchi so'zlar o'quvchilarning o'ziga ishonchini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, o'quvchilarni juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlashga undash ham psixologik bosimni kamaytiradi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhdagi ish o'quvchilarga o'zaro yordam berish va bir-birlarining xatolarini tuzatish imkoniyatini beradi, bu esa ularning tilni o'rganishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

To'rtinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham psixologik to'siqlarni yengishda muhim rol o'ynashi mumkin. Interaktiv dasturlar, mobil ilovalar va onlayn platformalar o'quvchilarga tilni qiziqarli va erkin muhitda o'rganish imkoniyatini beradi¹¹. Virtual reallik yoki kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida yaratilgan sun'iy muhitlar o'quvchilarga realistik muloqot holatlarini simulyatsiya qilishga va o'zlarining til ko'nikmalarini amalda qo'llashga imkon beradi, bu esa xavotirni kamaytiradi va o'ziga ishonchni oshiradi. Shuningdek, audioseviching (Audio-Lingual Method) kabi eskirgan usullardan voz kechib, kommunikativ metod (Communicative Language Teaching) kabi yangi yondashuvlarni qo'llash zarur. So'z

9 Hadfield J. Classroom Activities Series: Elementary. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 128 p.

10 Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 6th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2014. – 416 p.



boyligini oshirishda esa kontekstual o'qitish va lug'at yodlashning turli usullaridan, masalan, mnemonik usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'qituvchilarning malakasini oshirish va ularni psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llay olishi kerak. Ba'zi o'quvchilar vizual, boshqalari esa audial yoki kinestetik o'rganish usulini afzal ko'rishadi. Har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos keladigan o'qitish usullarini qo'llash ularning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi¹². Masalan, "role-play" (rol o'ynash) usuli o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash imkonini beradi va shu bilan birga ularning o'ziga ishonchini oshiradi. "Storytelling" (hikoya qilish) kabi usullar esa o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirib, tilni yanada qiziqarli tarzda o'rganishlariga yordam beradi. Pedagogik amaliyotda bunday innovatsion metodlarni qo'llash, o'quvchilarning psixologik to'siqlarini samarali bartaraf etishga va ularning ingliz tilini o'rganishdagi muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Ingliz tilini o'rganishdagi psixologik to'siqlar, ya'ni til o'rganish xavotiri, motivatsiyaning pastligi, o'ziga ishonchsizlik va xato qilishdan qo'rqish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ushbu to'siqlar o'quvchilarning faolligi va til o'zlashtirish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun pedagogik amaliyotda bir qator samarali yo'llar mavjud. Bularga, birinchidan, o'quvchilarning qiziqishlariga mos, interaktiv va kommunikativ o'qitish metodlarini (masalan, loyiha ishlari, rol o'yinlari) joriy etish orqali motivatsiyani oshirish; ikkinchidan, xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish, bunda xatoliklar ta'limning tabiiy qismi sifatida qabul qilinib, o'quvchilar rag'batlantiriladi; uchinchidan, o'ziga ishonchsizlikni yengish uchun erishish mumkin bo'lgan maqsadlar qo'yish va kichik muvaffaqiyatlarni ham e'tirof etish; to'rtinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli resurslardan samarali foydalanish kiradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu psixologik to'siqlarning turli yosh guruhlariga ta'sirini yanada chuqur o'rganishga, shuningdek, madaniy omillarning til o'rganishdagi psixologik jarayonlarga ta'sirini aniqlashga qaratilishi mumkin. O'zbekistonning ko'p



millatli va ko'p tilli kontekstida har bir mintaqa yoki etnik guruh uchun o'ziga xos psixologik to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, til ta'limining umumiy sifatini oshirib, mamlakatimizda xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent, 2021.
2. Akramov U.A., Karimova L.M. Xorijiy til ta'limida motivatsiya va shaxs psixologiyasi // Xorijiy tillar ta'limi. – 2022. – No3. – B. 67-72.
3. Krashen S.D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. – New York: Longman, 1985. – 112 p.
4. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Noshir, 2010. – 480 b.
5. Horwitz E.K., Horwitz M.B., Cope J. Foreign Language Anxiety // The Modern Language Journal. – 1986. – Vol. 70, No2. – P. 125-132.
6. Pinter A. Teaching Young Language Learners. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 208 p.
7. Hadfield J. Classroom Activities Series: Elementary. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 128 p.
8. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 6th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2014. – 416 p.
9. Abdullayeva N.Q. Raqamli ta'lim muhitida til o'rganishdagi innovatsion usullar // Ta'lim texnologiyalari. – 2023. – No5. – B. 80-86.
10. Littlewood W. Task-Based Language Teaching and Learning in the Context of Second Language Acquisition // The Cambridge Handbook of Second Language Acquisition. – Cambridge University Press, 2017. – P. 165-181.



The Role of Physical Education in the Professional Activity of Future Nurses

Physical Education Teacher of Surkhandarya Regional Medical College

Asatxonova Dilshoda Azimjon qizi

Abstract. This article highlights the role and importance of physical education in the professional activities of future nurses. It explains that nursing requires physical endurance, strength, agility, and emotional stability in daily work. The article analyzes how regular physical exercise helps prevent occupational fatigue, strengthen health, and improve work efficiency. It also emphasizes the significance of physical education in promoting a healthy lifestyle. The conclusion states that physical education is an essential factor in effectively preparing future nurses for their professional careers.

Keywords: Physical education, nursing, professional activity, physical fitness, endurance, healthy lifestyle, occupational fatigue, stress resistance, medical education, health promotion.

Bo'lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiyaning o'rni

Surxondaryo viloyati tibbiyot texnikumi Jismoniy tarbiya o'qituvchisi:

Asatxonova Dilshoda Azimjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiyaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Hamshiralalar mehnat faoliyati jarayonida jismoniy chidamlilik, kuch, tezkorlik hamda ruhiy barqarorlik talab etilishi asoslab berilgan. Jismoniy mashqlar orqali kasbiy charchoqning oldini olish, sog'liqni mustahkamlash va ish unumdorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada jismoniy tarbiya bo'lajak hamshiralarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashning muhim omili ekanligi xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, hamshiralik ishi, kasbiy faoliyat, jismoniy tayyorgarlik, chidamlilik, sog'lom turmush tarzi, kasbiy charchoq, stressga bardoshlilik, tibbiyot ta'limi, sog'liqni mustahkamlash..

Muammoning dolzarbligi. Jismoniy tarbiya, hamshiralik ishi, kasbiy faoliyat, jismoniy tayyorgarlik, chidamlilik, sog'lom turmush tarzi, kasbiy charchoq, stressga bardoshlilik, tibbiyot ta'limi, sog'liqni mustahkamlash. Jismoniy tarbiya, hamshiralik ishi, kasbiy faoliyat, jismoniy tayyorgarlik, chidamlilik, sog'lom turmush tarzi, kasbiy charchoq, stressga bardoshlilik, tibbiyot ta'limi, sog'liqni mustahkamlash.



Tadqiqotdan maqsad. Mazkur tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiyaning o‘rni va ahamiyatini aniqlash, jismoniy mashg‘ulotlarning ularning jismoniy tayyorgarligi, kasbiy chidamliligi hamda sog‘lig‘ini mustahkamlashga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini takomillashtirish orqali bo‘lajak hamshiralarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham ko‘zda tutiladi.

Kirish. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish va malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda hamshiralalar muhim o‘rin tutadi, chunki ular bemorlar bilan bevosita muloqotda bo‘lib, davolash va parvarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Hamshiralik kasbi yuqori mas’uliyat, kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda yetarli darajada jismoniy tayyorgarlikni ham talab etadi.

Tibbiyot texnikumlarida ta’lim olayotgan bo‘lajak hamshiralarni har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati katta. Chunki hamshiralik faoliyati doimiy harakat, uzoq vaqt tik turish, bemorlarni ko‘tarish va turli muolajalarni bajarish bilan bog‘liq. Bu esa organizmga ma’lum darajada jismoniy yuklama beradi. Shuning uchun ta’lim jarayonidayoq talabalarning jismoniy chidamliligini oshirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash va kasbiy faoliyatga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolada bo‘lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiyaning o‘rni, uning sog‘liqni saqlash va kasbiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism

Hamshiralik kasbi nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki jismoniy chidamlilik, kuch va tezkorlikni ham talab qiladi. Kasbiy faoliyat davomida hamshiralalar bemorlarni ko‘tarish, yotqizish yoki harakatlantirish, uzoq vaqt tik oyoqda ishlash, turli tibbiy protseduralarni bajarish kabi vazifalarni bajaradi. Agar hamshira yetarli jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lmasa, u tez charchaydi, mushaklar va umurtqa pog‘onasida og‘riq paydo bo‘ladi, natijada kasbiy samaradorligi pasayadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari mushaklarni mustahkamlash, yurak-qon tomir va nafas olish tizimining faoliyatini yaxshilash orqali bo‘lajak hamshiralarni kasbiy



faoliyatga tayyorlaydi. Muntazam jismoniy faollik ular uchun chidamlilikni oshirish, kasbiy charchoqni kamaytirish va sog'lig'ini mustahkamlash imkonini beradi. Ayniqsa, to'g'ri gavda tutish, og'ir yukni ko'tarish va bemorni

harakatlantirish texnikasini mashq qilish bo'yicha jismoniy tarbiya mashg'ulotlari juda muhimdir.

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya ruhiy barqarorlikni ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Tibbiyot xodimlari ko'pincha stressli vaziyatlarda ishlaydi. Sport va jismoniy mashqlar asab tizimini mustahkamlaydi, kayfiyatni ko'taradi va ish qobiliyatini oshiradi. Jamoaviy sport mashg'ulotlari esa hamkorlik, intizom va mas'uliyat hissini rivojlantiradi, bu esa tibbiy jarayonlarda samarali ishlashga yordam beradi.

Shuningdek, jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak hamshira o'zining sog'lom hayot tarzini saqlasa, bemorlarga ham bu borada to'g'ri tavsiyalar bera oladi. Bu esa sog'liqni targ'ib qilish va profilaktik ishlarni samarali amalga oshirishga imkon yaratadi.

Natijada, jismoniy tarbiya bo'lajak hamshiralarni kasbiy faoliyatga nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Ular uchun bu mashg'ulotlar kasbiy chidamlilikni oshirish, kasbiy kasalliklarning oldini olish va ish samaradorligini ta'minlashga yordam beradi.

Tadqiqot usullari va materiallari

Tadqiqot

materiallari:

Mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyati tibbiyot texnikumida o'qiyotgan bo'lajak hamshiralarda olib borildi. Tadqiqotda turli kurslarda tahsil olayotgan 1-3 kurs o'quvchilari ishtirok etdi. Tadqiqot materiallari sifatida talabalar jismoniy tayyorgarligi, kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va sog'lig'i bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining talabalarga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqot usullari:

1. Empirik usullar:

- **So'rovnoma va anketalar** orqali talabalar jismoniy faoliyati, mashg'ulotlarga qiziqishi va kasbiy chidamliligi haqida ma'lumot yig'ildi.
- **Kuzatish** usuli orqali jismoniy mashg'ulotlar davomida talabalar faoliyati va mashqlarni bajarish sifatini tahlil qilish amalga oshirildi.

2. Eksperimental usullar:

- Talabalar guruhlariga bo'linib, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari oldi va keyingi davrda ularning jismoniy tayyorgarligi va chidamliligi o'lchandi.



3. **Tahliliy va solishtirma usullar:**

- Olingan natijalar bo'yicha jismoniy mashg'ulotlar oldi va keyingi natijalar solishtirilib, mashg'ulotlarning samaradorligi baholandi.

4. **Adabiyotlarni o'rganish:**

- Jismoniy tarbiya, hamshiralik kasbi va kasbiy faoliyatda sog'lom turmush tarzi bo'yicha ilmiy maqolalar va qo'llanmalar tahlil qilindi.

Ushbu usullar yordamida bo'lajak hamshiralarni jismoniy tayyorgarligi va kasbiy faoliyatdagi samaradorligini oshirishda jismoniy tarbiyaning o'rnini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Xulosa. Bo'lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatida jismoniy tarbiya muhim o'rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muntazam jismoniy mashqlar talabalarni jismoniy va ruhiy jihatdan mustahkamlash, chidamliligini oshirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya orqali mushaklar va umurtqa pog'onasi mustahkamlanadi, yurak-qon tomir tizimi faoliyati yaxshilanadi, stressga bardoshlilik va ish samaradorligi oshadi. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya bo'lajak hamshiralarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, kasbiy charchoq va kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.

Shu bois, tibbiyot texnikumlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratish, ularni kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida ko'rish zarur. Bu nafaqat talabalarni mustahkam sog'lom, balki malakali va samarali kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxti.

1. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: Oliy ta'lim uchun darslik, 2020.
2. Tibbiyot xodimlari uchun jismoniy tarbiya. — Toshkent: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 2019.
3. Hamshiralik ishi asoslari. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Hamshiralik ta'limi va sog'lom turmush tarziga oid me'yoriy hujjatlar.
5. Valeologiya. — Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2018.
6. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Jismoniy faollik va sog'liq bo'yicha tavsiyalar.
7. Ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalar (mahalliy va xorijiy jurnallar).



*Surxondaryo oilalarida shaxslararo munosabatlar jarayonida gender tenglikning
etnopsixologik xususiyatlari*

*Termiz davlat universiteti 1-bosqich talabasi
Toshboyeva Guljahon Toyir qizi
guljaxontoshboyeva5@gmail.com
Tel raqami:937212511*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati oilalarida shaxslararo munosabatlar jarayonida gender tenglikning etnopsixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududga xos milliy mentalitet, an'anaviy oila modeli, urf-odatlar va diniy qarashlarning erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar, ta'lim va axborot texnologiyalarining gender tenglikka bo'lgan munosabatni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari oiladagi shaxslararo munosabatlarni sog'lomlashtirish va gender tenglikni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, etnopsixologiya, Surxondaryo oilalari, shaxslararo munosabatlar, oila psixologiyasi, milliy mentalitet, patriarxal oila, gender rollari.

Аннотация: В данной статье анализируются этнопсихологические характеристики гендерного равенства в процессе межличностных отношений в семьях Сурхандарьинской области. Исследование освещает влияние национального менталитета, традиционной модели семьи, обычаев и религиозных убеждений на взаимоотношения между мужчинами и женщинами. Также показана роль современных социальных изменений, образования и информационных технологий в формировании отношения к гендерному равенству. Результаты исследования служат для улучшения межличностных отношений в семье и развития гендерного равенства на основе национальных ценностей.

Ключевые слова: гендерное равенство, этнопсихология, семьи Сурхандарьинской области, межличностные отношения, семейная психология, национальный менталитет, патриархальная семья, гендерные роли.

Abstract: This article analyzes the ethnopsychological characteristics of gender equality in the process of interpersonal relations in families of the Surkhondaryo region. The study highlights the influence of the national mentality, traditional family model, customs and religious beliefs on the relationship between men and women. It also shows the role of modern social changes, education and information



technologies in shaping attitudes towards gender equality. The results of the study serve to improve interpersonal relations in the family and develop gender equality based on national values

Keywords: *gender equality, ethnopsychology, Surkhandarya families, interpersonal relations, family psychology, national mentality, patriarchal family, gender roles.*

Kirish: *Gender tenglik masalasi zamonaviy jamiyat rivojining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u oiladagi shaxslararo munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. Surxondaryo viloyati aholisi orasida saqlanib kelayotgan milliy an'analar, urf-odatlar va diniy qarashlar gender rollarining shakllanishida muhim etnopsixologik omil hisoblanadi. Shu sababli hudud oilalarida gender tenglik masalasini etnopsixologik nuqtayi nazardan o'rganish dolzarbdir.*

1. Surxondaryo oilalarining etnopsixologik xususiyatlari

Surxondaryo aholisi o'ziga xos mentalitetga ega bo'lib, quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Katta-kichikka hurmat va avlodlararo ierarxiya;

Patriarxal oila modelining ustuvorligi;

Oila sha'ni va obro'siga yuqori baho berilishi;

Jamoatchilik fikrining shaxsiy qarorlarga ta'siri.

Bu xususiyatlar erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarda an'anaviy gender rollarining mustahkam saqlanishiga olib keladi.

2. Gender rollarining shakllanishi

Surxondaryo oilalarida:

Erkak – oilaning boshlig'i, ta'minotchi va qaror qabul qiluvchi;

Ayol – farzand tarbiyasi, uy-ro'zg'or ishlari va oilaviy muhitni saqlovchi sifatida qabul qilinadi.

Etnopsixologik jihatdan bu rollar ijtimoiy me'yor sifatida qabul qilinib, bolalikdan ongga singdiriladi. Natijada gender tenglik ko'proq formal emas, balki an'anaviy me'yorlar doirasida cheklangan holda namoyon bo'ladi.

3. Shaxslararo munosabatlarda gender tenglik

Oiladagi shaxslararo munosabatlarda gender tenglik quyidagicha namoyon bo'ladi:

Qaror qabul qilishda erkakning ustunligi;

Ayolning fikri ko'pincha bilvosita yoki maslahat tarzida inobatga olinishi;

Qaynona–kelin, aka–uka, opa–singil munosabatlarida ham gender stereotiplarining kuchli ta'siri.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalari ta'sirida ayrim



oilalarda:

Er-xotin o'rtasida mas'uliyatni bo'lishish;

Ayolning ijtimoiy faolligi va mustaqilligiga ijobiy munosabat;

Farzand tarbiyasida otaning faol ishtiroki kuchayib bormoqda.

4. Gender tenglikka ta'sir etuvchi etnopsixologik omillar

Surxondaryo oilalarida gender tenglikka quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

Milliy an'analar va urf-odatlar;

Diniy qarashlarning kundalik hayot bilan uyg'unlashuvi;

Mahalla va qarindoshlik munosabatlari;

Ta'lim darajasi va urbanizatsiya jarayoni.

Bu omillar gender tenglikni to'liq rad etmasdan, uni milliy mentalitetga moslashgan shaklda qabul qilishga olib keladi.

5. Oila a'zolari orasidagi hurmat tushunchasi

Hurmat ko'pincha yoshi, holati va oiladagi roliga qarab belgilanadi.

Keksalar, er-xotin o'rtasidagi ierarxiya va "mehr-e'tibor" an'anaviy qadriyatlar orqali ifodalanadi.

Gender tenglik masalasi bu kontekstdagi hurmat va roli muvozanati orqali namoyon bo'ladi.

Bu qadriyatlar gender tenglikni psixologik darajada aloqa, hurmat va vakolat bo'yicha ko'rib chiqishga yordam beradi.

6. Ijobiy o'zgarishlar va tendensiyalar

Hozirgi kunda Surxondaryo oilalarida:

Ayollarning ta'lim olish imkoniyati ortmoqda

Qaror qabul qilish jarayonida ayollar ham faollashmoqda

Jamiyatda hamkorlik, tinglash va birgalikda yechim topish qadriyatlari kuchaymoqda

Bu tendensiyalar gender tenglik psixologik va amaliy jihatdan yaxshilanishiga olib kelmoqda.

Etnopsixologik holat

Surxondaryo oilalarida gender tenglikning etnopsixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

-An'anaviy ijtimoiy rollar hali ham muhim

-Erkak va ayol psixologik roli farqlanadi, lekin o'zaro hurmat asosida birlashadi

-Konfliktlarni hal etishda yondashuvlar turlicha

-O'zgarishga ochiqlik va zamonaviy ta'lim bu jarayonni sezilarli darajada o'zgartirmoqda

Xulosa: *Surxondaryo viloyati oilalarida shaxslararo munosabatlar jarayonida gender*



Learning and Sustainable Innovation

tenglik masalasi etnopsixologik jihatdan murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hudud oilalarida tarixan shakllangan milliy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy qarashlar hamda ijtimoiy muhit erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning mazmuni va shakliga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, patriarxal oila modelining ustuvorligi gender rollarining an'anaviy tarzda taqsimlanishiga olib kelib, shaxslararo munosabatlarda erkakning yetakchi, ayolning esa ko'proq bo'ysunuvchi rolini mustahkamlab kelmoqda.

Etnopsixologik nuqtayi nazardan qaralganda, Surxondaryo oilalarida gender tenglik tushunchasi g'arbona individualizm asosida emas, balki jamoaviylik, oila sha'ni va o'zaro mas'uliyat tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Ayolning oiladagi mavqei ko'pincha ochiq qaror qabul qilishdan ko'ra, bilvosita ta'sir, maslahat berish va murosaga asoslangan muloqot orqali ifodalanadi. Bu holat ayrim hollarda ayolning psixologik moslashuvchanligini kuchaytirsa-da, uning ijtimoiy va shaxsiy imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin.

Scholarly interest in gradation has traditionally emerged at the intersection of linguistics, stylistics, and literary criticism. Early grammatical studies focused on gradation primarily as a morphological category, examining degrees of comparison in adjectives and adverbs, as seen in the works of traditional grammarians such as Jespersen. These studies laid the foundation for understanding gradation as a systematic linguistic phenomenon. Later, functional and cognitive linguists expanded this view by emphasizing the semantic and pragmatic dimensions of gradation, arguing that degrees often reflect subjective evaluation rather than objective measurement.

In literary stylistics, scholars such as Leech and Short highlighted gradation as a key element of expressive language, particularly in narrative prose and poetry. They



demonstrated how authors manipulate gradational patterns to create emphasis, irony, and emotional progression. Rhetorical studies have also contributed significantly, especially through the analysis of climax and anticlimax as classical figures of speech that structure persuasive and aesthetic effects.

More recent literary-critical approaches have examined gradation in relation to discourse, ideology, and reader response. Corpus-based studies have shown how gradational structures vary across genres and historical periods, revealing patterns in Romantic poetry, Victorian fiction, and modernist experimentation. Additionally, narratologists have explored how gradation contributes to character development and plot dynamics by marking psychological growth or moral decline. Despite this rich body of research, there remains a need for integrative studies that connect linguistic mechanisms of gradation with their literary functions, a gap this article seeks to address.

Methodology

The study adopts a qualitative, text-centered methodology grounded in stylistic and discourse analysis. A selected corpus of representative English literary texts, including poetry, novels, and dramatic works from different periods, serves as the primary data. Texts are chosen based on their recognized literary value and their rich use of expressive language. The analysis focuses on identifying instances of gradation at multiple linguistic levels: lexical, grammatical, syntactic, and rhetorical. Close reading is employed to examine how gradation operates within specific contexts, paying attention to patterns of intensification, comparison, and progression. These patterns are then interpreted in relation to thematic concerns, character portrayal, and narrative structure. The methodology also draws on established stylistic frameworks to ensure analytical consistency, while remaining flexible enough to account for genre-specific features. Rather than quantifying occurrences, the study emphasizes depth of interpretation, aiming to reveal how gradation contributes to meaning-making in literary texts. This approach allows for a nuanced understanding of gradation as both a linguistic resource and a literary strategy.

Results

The analysis reveals that gradation functions as a versatile expressive device across genres of English literature. In poetry, gradation often appears through incremental imagery and emotional scaling, guiding readers from restraint to intensity or vice versa. In narrative prose, gradational structures frequently shape character development, marking transitions in psychological states, moral awareness, or social status. Dramatic texts employ gradation to build tension and heighten conflict, particularly through



escalating dialogue and action.

Linguistically, authors rely not only on explicit comparative forms but also on lexical chains, repetition with variation, and syntactic parallelism to achieve gradational effects. These findings suggest that gradation is rarely isolated; instead, it operates in clusters that reinforce thematic and emotional trajectories. The results underscore the importance of viewing gradation as an integrated stylistic phenomenon rather than a narrow grammatical feature.

Discussion

The findings highlight the central role of gradation in shaping literary meaning and reader engagement. By controlling degrees of intensity and comparison, writers subtly influence how events, emotions, and values are perceived. Gradation contributes to coherence by linking individual linguistic choices to broader narrative or poetic movements. It also plays a crucial role in foregrounding, drawing attention to key moments of transformation or climax.

The progressive arrangement of linguistic elements reflects the cognitive tendency to perceive reality in terms of scale and development. Therefore, gradation mirrors not only textual organization but also fundamental patterns of human thought and evaluation.

From a theoretical perspective, the results support functional and cognitive views of language, which emphasize meaning in context over formal categorization. Gradation emerges as a dynamic process that reflects human perception of change and evaluation. Pedagogically, understanding gradation can enhance literary analysis and language teaching by helping students recognize how small linguistic shifts produce significant interpretive effects. The discussion suggests that future research could benefit from combining qualitative analysis with corpus-based methods to further explore patterns of gradation across larger textual datasets.

Conclusion

In conclusion, this article has demonstrated that gradation is a vital linguistic and stylistic device in English literature, contributing significantly to the structure and meaning of literary texts. By examining gradation through various grammatical, lexical, and rhetorical strategies, it is clear that authors use this device to manipulate intensity, comparison, and progression to evoke emotional responses, shape character development, and enhance thematic depth. The study has shown that gradation functions as an interconnected system rather than a simple grammatical phenomenon, revealing the subtle ways in which writers engage readers and guide their



interpretations. Furthermore, the findings underscore the value of examining gradation not only as a formal feature but also as a tool for conveying complex human experiences and relationships in literature. By expanding the understanding of gradation's role across genres and historical periods, this article offers insights into its broader implications for literary analysis and interpretation, providing a foundation for future research in both linguistics and literary studies. For example, stylistic scholars emphasize that gradation often functions as a tool of emotional intensification. In narrative prose, a sequence such as “uneasy – disturbed – terrified” illustrates how lexical progression creates psychological depth. Such patterns demonstrate that gradation is not limited to comparative forms but may operate through carefully selected lexical chains that structure meaning incrementally. This broader understanding supports the view that gradation is both a linguistic and interpretive phenomenon.

References

1. Jespersen, O. *A Modern English Grammar on Historical Principles*. George Allen & Unwin, 1909.
2. Leech, G., & Short, M. *Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose*. Pearson Education, 2007.
3. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. *A Comprehensive Grammar of the English Language*. Longman, 1985.
4. Wales, K. *A Dictionary of Stylistics*. Routledge, 2014.
5. Toolan, M. *Narrative: A Critical Linguistic Introduction*. Routledge, 2001.
6. Bal, M. *Narratology: Introduction to the Theory of Narrative*. University of Toronto Press, 1997.
7. Ricoeur, P. *Time and Narrative, Volume 1*. University of Chicago Press, 1984.

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SING O'QITUVCHILARIDA YOZMA
NUTQNI TO'G'RI SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

Toshkent Amaliy fanlar universiteti,
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi
kafedrasida katta o'qituvchisi

Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna

2-kurs talabasi

Turdipo'latova Shaxzoda

**FACTORS OF CORRECT FORMATION OF WRITTEN SPEECH IN
FUTURE PRIMARY SINGLE TEACHERS**

Tashkent University of Applied Sciences, Department of Theory and Methodology of
Primary Education, Senior Lecturer

Abdiyeva Koysintosh Azadovna

2nd year student Turdipolatova Shahzoda

Annotatsiya- ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Nutqning shaxs kamolotidagi o'rni, kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish omillari, dars jarayonida qo'llaniladigan samarali metodlar hamda o'qituvchi va ota-ona hamkorligining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari va ijobiy psixologik muhit muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nutq, yozma, muloqot, kommunikativ kompetensiya, nutq rivoji, interaktiv metod, pedagogik yondashuv, ijtimoiylashuv.

Аннотация – в данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития навыков письменной речи у учащихся начальной школы. Анализируется роль речи в личностном развитии, факторы формирования коммуникативной компетентности, эффективные методы, используемые в учебном процессе, и важность сотрудничества учителя и родителей. В исследовании использованы методы педагогического наблюдения, анализа и обобщения. Результаты показывают, что интерактивные методы, игровые технологии и позитивная психологическая среда являются важными факторами



развития коммуникативных навыков.

Ключевые слова: начальное образование, речь, письмо, коммуникация, коммуникативная компетентность, развитие речи, интерактивный метод, педагогический подход, социализация.

Abstract - this article discusses the theoretical and practical foundations of developing written speech skills in primary school students. The role of speech in personal development, factors for the formation of communicative competence, effective methods used in the lesson process, and the importance of teacher-parent cooperation are analyzed. The research used pedagogical observation, analysis, and generalization methods. The results show that interactive methods, game technologies, and a positive psychological environment are important factors in the development of communication skills.

Keywords: primary education, speech, writing, communication, communicative competence, speech development, interactive method, pedagogical approach, socialization.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda til va nutq madaniyatini shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'quvchi o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, aniq hamda izchil ifodalashni o'rganadi. Yozma nutq — bu inson tafakkurining natijasi bo'lib, uning mantiqiy fikrlash, so'z boyligi va grammatik kompetensiyasini namoyon etadi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish, ularni mustaqil ravishda fikrini yozma shaklda ifodalashga o'rgatishdan iboratdir

Yozma nutq inson tafakkurining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, u shaxsning fikrlash darajasi, til madaniyati va bilim saviyasini namoyon etadi. Jamiyat taraqqiyoti, ta'lim tizimi va ilm-fan rivoji yozma nutqning to'g'ri va mukammal shakllanishiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Ayniqsa, umumiy o'rta va oliy ta'lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilimlarni o'zlashtirishi hamda ularni mantiqiy ifodalashida muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq og'zaki nutqdan farqli ravishda oldindan o'ylab yoziladi, rejalashtiriladi va tahrir qilinadi. Shu bois uni shakllantirish uzoq davom etadigan, murakkab va tizimli jarayondir.

Yozma nutqni to'g'ri shakllantirishda eng asosiy omillardan biri til me'yorlarini chuqur egallashdir. Adabiy til qoidalarini bilish va ularga amal qilish yozma matnning



aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi. Leksik boylikning yetarliligi fikrni aniq va ta'sirchan ifodalash imkonini bersa, grammatik bilimlar gap va jumalarning to'g'ri tuzilishiga xizmat qiladi. Imlo va punktuatsiya qoidalariga rioya qilish yozma nutqning savodxonligini belgilovchi muhim mezonidir. Xatolarsiz va ravon yozilgan matn o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan oson qabul qilinadi hamda muallif fikrning to'liq anglashiga yordam beradi. Yozma nutq tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Inson fikrini yozma shaklda ifodalashdan avval mavzuni to'liq tushunib oladi, asosiy g'oyani aniqlaydi va uni izchil bayon etishga harakat qiladi. Bu jarayonda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlar muhim rol o'ynaydi. Yozma nutqni rivojlangan shaxs o'z fikrini mantiqiy ketma-ketlikda ifodalaydi, ortiqcha so'zlardan qochadi va matn mazmunini boyitishga intiladi. Shu sababli yozma nutqni shakllantirish tafakkurni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq hisobladi.

Psixologik omillar ham yozma nutq rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchining yozishga bo'lgan qiziqishi, ichki ehtiyoji va motivatsiyasi yozma ishlarning sifatiga bevosita ta'sir etadi. Agar o'quvchi yozma nutqni faqat baho olish vositasi deb emas, balki o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyati sifatiga qabul qilsa, yozish jarayoni samaraliroq kechadi. Diqqat, xotira va tasavvur kabi psixik jarayonlar ham yozma nutqning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Yozish jarayonida diqqatni jamlay olish, kerakli so'z va grammatik shakllarni xotiradan tez topish yozma nutq sifatini oshiradi. Pedagogik omillar yozma nutqni to'g'ri shakllantirishning yetakchi vositalaridan biridir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va usullar yozma nutq rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yozma ishlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish, muntazam mashqlar tashkil etish va o'quvchilarning xatolari ustida tizimli ishlash ijobiy natija beradi. O'qituvchining yozma ishlarni tahlil qilib aniq va tushunarli tavsiyalar berishi o'quvchining o'z ustida ishlashiga yordam beradi. Shu bilan birga, mustaqil yozma ishlar, bayon, insho va referatlar yozdirish yozma nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yozma nutqni shakllantirishda o'qish madaniyatining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy, ilmiy va ommabop adabiyotlarni muntazam o'qish o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, nutqiy tajribasini kengaytiradi va yozma nutq uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. O'qish jarayonida o'quvchi turli uslubdagi matnlar bilan tanishadi, ularning tuzilishi va til xususiyatlarini o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida yozma nutqda uslubiy to'g'rilikni ta'minlashga yordam beradi. Ijtimoiy muhit ham yozma nutq rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Oila, maktab va jamiyatda yozma nutqqa bo'lgan e'tibor o'quvchining savodxonlik darajasini belgilaydi. Agar atrof-muhitfa



savodli yozishga, adabiy til me'yorlariga rioya qilishga ahamiyat berilsa, o'quvchi ham bunga intiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarda yozma mulohazaning kengayishi yozma nutqning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Biroq qisqartmalar va norasmiy yozuvlardan ortiqcha foydalanish savodxonlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli raqamli muhitda ham adabiy til qoidalariga amal qilish muhimdir.

Yozma nutqni rivojlantirishda mashq va amaliy faoliyat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Doimiy yozish, yozilgan matnlarni qayta o'qib chiqish va tahrirlash yozma nutqni takomillashtiradi. o'quvchi o'z xatolarini anglab, ularni tuzatishga harakat qilgan sari yozma nutqi ravon va mukammal boradi. Yozma nutq bir martalik mashg'ulot natijasi emas, balki uzluksiz mehnat va izlanish mahsulidir.

Xulosa qilib aytganda, yozma nutqni to'g'ri shakllantirish til bilimlari, tafakkur rivoji, psixologik holat, pedagogik ta'sir, o'qish madaniyati va ijtimoiy muhitning o'zaro uyg'unligi natijasidir. Ushbu omillarni hisobga olgan holda olib borilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning savodli mantiqiy va ravon yozish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlangan shaxs esa jamiyatda o'z fikrini erkin ifodalashga qodir, mustaqil va ijodkor inson sifatida kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Rafiyev A. o'zbek tili. Umumta'lim maktablari va pedagogika oliygohlari uchun darslik. - Toshkent: o'qituvchi.
2. Yo'ldoshev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent: Fan.
3. Abdullayev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan.
4. g'ulomov A. O'zbek tilshunosligi masalalari. - Toshkent: o'qituvchi.
5. Karimov I. Ta'lim va tarbiya masalalari. - Toshkent: o'zbekiston



**РОЛЬ ИНТЕРНЕТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ
ПРАВОНАРУШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАСИЛИЕМ В ОТНОШЕНИИ
ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ**

Шомуратова Хилола Умиджон қизи

мустақил тадқиқотчи

E-mail: hshomuratova@mail.ru

Аннотация

В статье анализируется роль интернет-технологий в профилактике правонарушений, связанных с насилием в отношении женщин в Узбекистане. Обосновано, что в условиях цифровизации трансформация форм насилия, включая кибербуллинг, онлайн-преследование и распространение персональных данных, требует совершенствования профилактических механизмов. Рассмотрены информационно-просветительская, ранняя диагностика, электронные обращения и мониторинговая функции интернет-технологий. Выявлены существующие проблемы национальной практики и предложены научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: профилактика насилия, интернет-технологии, кибербуллинг, цифровой мониторинг, гендерная безопасность, виктимология.

**THE ROLE OF INTERNET TECHNOLOGIES IN THE PREVENTION OF
OFFENSES RELATED TO VIOLENCE AGAINST WOMEN IN
UZBEKISTAN**

Abstract

This article analyzes the role and significance of internet technologies in the prevention of crimes related to violence against women in Uzbekistan. It is substantiated that in the conditions of digitalization, the transformation of forms of violence, including cyberbullying, online harassment, and dissemination of personal data, requires new approaches to the prevention system. The informational-educational, early detection, electronic complaint, and monitoring functions of internet technologies are scientifically examined. In addition, existing problems in national practice are analyzed, and scientific-practical recommendations are proposed to eliminate them.



Keywords: violence prevention, internet technologies, cyberbullying, digital monitoring, gender security, victimology.

ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАРГА НИСБАТАН ЗЎРАВОНЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА ИНТЕРНЕТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ РОЛИ

Аннотация

Мазкур мақолада Ўзбекистонда хотин-қизларга нисбатан зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш жараёнида интернет технологияларининг ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинган. Рақамлашув шароитида зўравонлик шакллариининг трансформацияси, хусусан, кибербуллинг, онлайн таъқиб, шахсий маълумотларни тарқатиш каби ҳолатлар профилактика тизимида янги ёндашувларни талаб қилаётгани асосланган. Интернет технологияларининг ахборот-маърифий, эрта аниқлаш, электрон мурожаат ва мониторинг функциялари илмий жиҳатдан ёритилган. Шунингдек, миллий амалиётдаги мавжуд муаммолар таҳлил қилиниб, уларни бартараф этиш бўйича илмий-амалий таклифлар илгари сурилган.

Калит сўзлар: зўравонлик профилактикаси, интернет технологиялари, кибербуллинг, рақамли мониторинг, гендер хавфсизлиги, виктимология.

Кириш

Ҳозирги глобаллашув ва жадал ижтимоий-сиёсий трансформация шароитида хотин-қизларга нисбатан зўравонлик инсоният олдида турган энг долзарб ва мураккаб муаммолардан бири сифатида эътироф этилмоқда. Ушбу иллат нафақат алоҳида шахснинг ҳаёти, соғлиғи, шаъни ва кадр-қимматида тажовуз қилади, балки жамият барқарорлиги, оила институти мустаҳкамлиги ҳамда инсон ҳуқуқларининг таъминланишига жиддий салбий таъсир кўрсатади.

Халқаро ҳамжамият томонидан мазкур муаммо глобал характерга эга экани тан олинган бўлиб, United Nations доирасида қабул қилинган қатор халқаро ҳужжатлар ва барқарор ривожланиш мақсадлари доирасида хотин-қизларга нисбатан ҳар қандай зўравонликка барҳам бериш устувор вазифалардан бири сифатида белгиланган. Шунингдек, гендер тенгликни таъминлаш ва зўравонликка қарши курашиш йўналишида UN Women томонидан тизимли дастурлар, таҳлилий ҳисоботлар ва институционал ислоҳотларга қаратилган ташаббуслар амалга оширилмоқда. Бу эса муаммонинг глобал миқёсдаги



долзарблигини яна бир бор тасдиқлайди.

Шу билан бирга, рақамли трансформация жараёнлари жамият ҳаётининг барча соҳаларига чуқур кириб келмоқда. Интернет тармоқлари, ижтимоий платформалар ва рақамли коммуникация воситаларининг кенг тарқалиши зўравонлик шакллариининг ҳам трансформациясига олиб келмоқда. Анъанавий жисмоний ва психологик зўравонлик турлари билан бир қаторда кибертазйик, онлайн таъқиб, шахсий маълумотларни тарқатиш орқали босим ўтказиш каби янги кўринишлар вужудга келмоқда. Бу эса зўравонликнинг латент даражасини ошириб, уни аниқлаш ва профилактика қилиш механизмларини янада такомиллаштиришни талаб этади.

Айни пайтда рақамли технологиялар фақат хавф манбаи эмас, балки профилактика ва ҳимоянинг самарали воситаси сифатида ҳам намоён бўлмоқда. Онлайн мурожаат платформалари, электрон ҳимоя ордерлари, рақамли мониторинг тизимлари, ҳуқуқий маслаҳат хизматлари ва мобил иловалар зўравонликка қарши курашишда янги институционал имкониятлар яратмоқда. Бу эса профилактика фаолиятини замонавий ёндашувлар асосида қайта кўриб чиқиш заруратини юзага келтиради.

Ўзбекистон шароитида ҳам хотин-қизларга нисбатан зўравонликка қарши курашиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланган. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати томонидан гендер тенгликни таъминлаш, тазйик ва зўравонликнинг олдини олишга қаратилган қонунчилик ташаббуслари ва парламент назорати механизмлари амалга оширилмоқда. Айнан Ўзбекистонда интернетдаги таҳдидларга қарши ҳуқуқий ҳимоя тизимини шакллантириш мақсадида бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинганлиги таъкидланади.

Жумладан, “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонун интернетда ахборот ресурсларини муҳофаза қилиш, ахборот хавфсизлигини таъминлаш ҳамда ахборотларни ишлашга доир талабларни белгилаб берган¹. Шунингдек, “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонун шахсий маълумотларни йиғиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш тартибини ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиб, рухсатсиз маълумот тарқатиш ҳолатларига қарши ҳуқуқий чораларни мустаҳкамлаган². “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги Қонун давлат хизматларини рақамли шаклда кўрсатиш жараёнида ахборот хавфсизлигини таъминлашга

¹ Ахборотлаштириш тўғрисида/ <https://www.lex.uz/acts/83472/> Мурожаат санаси 20.02.2026 йил

² Шахсга доир маълумотлар тўғрисида/ <https://lex.uz/docs/4396419/> Мурожаат санаси 20.02.2026 йил



қаратилган нормаларни жорий этган³. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати раисининг 2023 йил 4 сентябрдаги 91-сонли “Киберхавфсизликни таъминлаш бўйича давлат сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида⁴”ги буйруғи киберхавфсизлик тизимини ривожлантиришга қаратилган муҳим ҳуқуқий асослардан бири ҳисобланади. Ушбу норматив ҳужжатлар шахсий ахборотларни ҳимоя қилиш, киберхужумларга қарши курашиш ҳамда ижтимоий тармоқларда ахлоқий меъёрларни мустаҳкамлашни давлат сиёсати даражасида устувор вазифа сифатида белгилаган. Бироқ, рақамли трансформация шароитида зўравонлик профилактикасининг назарий-методологик асослари, рақамли инструментлардан фойдаланиш самарадорлиги ҳамда институционал механизмлар ўзаро ҳамкорлигининг илмий таҳлили етарли даражада комплекс ўрганилмаган.

Шу жиҳатдан, хотин-қизларга нисбатан зўравонликнинг замонавий шакллари, уларнинг рақамли муҳитда намоён бўлиш хусусиятлари ва профилактика тизимида инновацион технологиялардан фойдаланиш имкониятларини илмий асосда тадқиқ этиш долзарб аҳамият касб этади. Мазкур масала инсон ҳуқуқларини таъминлаш, гендер тенгликни мустаҳкамлаш ва барқарор ижтимоий ривожланишни таъминлаш нуқтаи назаридан ҳам назарий, ҳам амалий аҳамиятга эгадир.

Ҳуқубузарликлар профилактикаси ҳуқуқ-тартиботни сақлаш ҳамда мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, уларга барҳам бериш, шунингдек ҳуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабабларини ва уларга имкон бераётган шарт-шароитларни аниқлаш, бартараф этиш мақсадида қўлланиладиган ҳуқуқбузарликлар умумий, махсус, якка тартибдаги ва виктимологик профилактикасининг ҳуқуқий, ижтимоий, ташкилий ва бошқа чора-тадбирлари тизимидир⁵. Криминологик нуқтаи назардан профилактика умумий, махсус якка ва виктимологик турларга бўлинади.

Рақамли профилактика эса янги тушунча сифатида кириб келмоқда ва бу ахборот-коммуникация технологиялари орқали зўравонлик ҳолатларини эрта

³ Электрон ҳуқумат тўғрисида/ <https://www.lex.uz/acts/2833860/> Мурожаат санаси 20.02.2026 йил

⁴ Ўзбекистон Республикаси киберхавфсизлик ва муҳим ахборот инфратузилмаси объектларининг киберхавфсизлигини таъминлаш даражасини баҳолаш тартиби тўғрисидаги низомнитасдиқлаш ҳақида/ <https://nrm.uz/contentf?doc=734411/> Мурожаат санаси 20.02.2026 йил

⁵ Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги Қонун / <https://www.lex.uz/acts/2387357/> Мурожаат санаси 20.02.2026 йил



аниқлаш, огоҳлантириш ва ҳимоя қилиш механизмларини жорий этишни англатади. Бу жараёнда виктимологик ёндашув алоҳида аҳамият касб этади, яъни жабрланувчининг хавфсизлигини таъминлаш устувор вазифа сифатида қаралади. Хотин-қизларга нисбатан зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини замонавий илмий ёндашувлар ва рақамли технологиялар имкониятлари уйғунлигида таҳлил қилиш ўрганилаётган мавзунинг назарий методологик асосини ташкил қилади. Бу борада хотин-қизларга нисбатан зўравонлик глобал ижтимоий-ҳуқуқий муаммо сифатида эътироф этилиб, унинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришда криминологик, виктимологик, институционал ёндашувлар ҳамда рақамли криминология муҳим аҳамият касб этади. Криминологик ёндашув зўравонликни ижтимоий ҳодиса сифатида ўрганиб, унинг пайдо бўлишига таъсир этувчи ижтимоий тенгсизлик, ҳуқуқий маданият даражаси, оилавий муносабатлар хусусиятлари ва латент жиноятчилик омилларини таҳлил қилишга хизмат қилади. Виктимологик ёндашув эса жабрланувчи шахснинг ижтимоий-психологик ҳолати, ижтимоий ҳимоя даражаси ва такрорий виктимлашув хавфини баҳолаш орқали профилактика тизимини жабрланувчини ҳимоя қилишга йўналтириш имконини беради. Институционал ёндашув профилактика жараёнида давлат органлари ва жамоат институтлари ўртасидаги ҳамкорликни таҳлил қилишга асосланиб, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, суд ва прокуратура тизими, маҳалла институти, хотин-қизлар масалалари бўйича тузилмалар ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотлар фаолиятининг мувофиқлаштирилишини муҳим омил сифатида кўради.

Шу билан бирга, рақамли криминология тушунчаси зўравонликнинг кибермаконда намоён бўладиган янги шакллари ўрганишга қаратилган бўлиб, онлайн таъқиб, кибертаъқиб, шахсий маълумотларни тарқатиш орқали босим ўтказиш каби ҳолатларни таҳлил қилиш имконини беради⁶. Рақамли криминология прогнозлаш, хавфларни эрта аниқлаш ва маълумотларга асосланган қарор қабул қилиш механизмларини шакллантиришга хизмат қилади. Тадқиқотда интернет технологиялари профилактика тизимининг муҳим инструменти сифатида кўриб чиқилади. Хусусан, ижтимоий тармоқлар орқали ҳуқуқий ахборот тарқатиш, жамоатчилик ҳуқуқий онгини ошириш, аноним мурожаат қилиш имкониятларини яратиш ва зўравонлик ҳолатларини

⁶ РАҚАМЛИ КРИМИНОЛОГИЯ ТУШУНЧАСИ /<https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/33997/>
Академические исследования в современной науке Н. Маматқобилов



Learning and Sustainable Innovation

оммалаштириш профилактика самарадорлигини оширади. Шу билан бирга, ижтимоий тармоқлар кибербуллинг ва онлайн тазйиқ манбаи бўлиши мумкинлиги сабабли уларни мониторинг қилиш ва медиасаводхонликни ошириш муҳимдир.

Бундан ташқари Big Data технологиялари катта ҳажмдаги маълумотларни таҳлил қилиш орқали зўравонлик ҳолатлари статистикасини ўрганиш, хавфли ҳудудларни аниқлаш, такрорий ҳуқуқбузарликлар динамикасини баҳолаш ва хавф гуруҳларини белгилаш имконини беради. Сунъий интеллект технологиялари эса хавфли хатти-ҳаракатларни автоматик аниқлаш, онлайн таҳдидларни филтрлаш, зўравонликка оид контентларни мониторинг қилиш ва хавф даражасини прогнозлашда қўлланилади. Жамоат хавфсизлигини таъминлашда **ССТV видеокузатув** тизимлари ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, жамоат жойларида хавфсизликни таъминлаш ва исбот базасини шакллантиришга хизмат қилади. Шунингдек, **GPS мониторинг** технологиялари ҳимоя ордери берилган шахсларни назорат қилиш, хавфли субъектлар ҳаракатини кузатиш ва жабрланувчи хавфсизлигини таъминлашда муҳим восита ҳисобланади. Электрон мурожаат платформалари эса жабрланувчиларга тезкор мурожаат қилиш, онлайн ҳуқуқий маслаҳат олиш ва зўравонлик ҳолатларини рақамли рўйхатга олиш имконини яратиб, латент зўравонлик даражасини камайтиришга хизмат қилади. Умуман олганда, тадқиқотнинг назарий-методологик асоси анъанавий криминологик ва виктимологик қарашларни рақамли трансформация шароити талабларига мос равишда ривожлантиришга қаратилган.

Маълумот учун: Big Data технологиялари - бу ҳажми, тезлиги ва хилма-хиллиги жиҳатидан анъанавий ахборот қайта ишлаш усуллари билан таҳлил қилиб бўлмайдиган даражада катта бўлган маълумотлар тўпламини англатади⁷.

ССТV видеокузатув - бу видео тасвирларни маълум бир жойдаги камералар орқали махсус мониторларга ёки ёзиб олиш қурилмаларига узатувчи хавфсизлик тизими.⁸

GPS мониторинг - бу Сунъий ёълдош кузатув мониторинги, уяли ёки радиоалоқа ускуналари ва технологиялари, ҳисоблаш технологиялари ва рақамли хариталар ёрдамида қурилган ҳаракатланувчи объектларни кузатиш тизими⁹.

⁷ International Data Corporation/ <https://www.idc.com/> Мурожаат санаси 21.02.2026 йил

⁸ ССТV — это аббревиатура термина Closed Circuit Television/ <https://itrade.uz/cctv/> Мурожаат санаси 21.02.2026 йил

⁹ Спутниковый мониторинг транспорта/ <https://ru.wikipedia.org/wiki/> Мурожаат санаси 21.02.2026 йил



Замонавий рақамли трансформация шароитида интернет технологиялари хотин-қизларга нисбатан зўравонлик профилактикасининг самарадорлигини оширишда стратегик аҳамиятга эга восита сифатида намоён бўлмоқда. Давлатимизда хотин-қизларни зўравонликдан ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштиришда интернет технологияларидан фойдаланишнинг ахборот-маърифий, эрта аниқлаш, электрон мурожаат ҳамда назорат ва мониторинг каби асосий йўналишлари шаклланиб бормоқда.

Аввало, интернет технологияларининг ахборот-маърифий функцияси жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни оширишга хизмат қилади. Ижтимоий тармоқлар, онлайн платформалар ва рақамли коммуникация воситалари орқали профилактик роликлар, вебинарлар, онлайн семинарлар ва ахборот кампанияларини ташкил этиш аҳолининг, айниқса хотин-қизларнинг ўз ҳуқуқ ва эркинликларини билиш даражасини ошириш имконини беради. Бу йўналишда гендер зўравонлигига қарши 16 кунлик халқаро акция доирасида кенг қамровли тарғибот ишларини амалга ошириш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, мазкур ташаббус UN Women томонидан илгари сурилган глобал профилактик дастурлардан бири ҳисобланади ҳамда United Nations тизимида гендер тенглик сиёсатининг амалий ифодаси сифатида хизмат қилади.

Интернет технологияларининг эрта аниқлаш функцияси профилактика тизимининг инновацион йўналишларидан бири ҳисобланади. Ижтимоий тармоқлардаги таҳдидли контентларни мониторинг қилиш, кибербуллинг ҳолатларини аниқлаш ҳамда сунъий интеллект алгоритмлари асосида хавфли хатти-ҳаракатларни прогнозлаш имконияти профилактиканинг янги босқичини шакллантиради. Шу билан бирга, рақамли виктимология концепцияси интернет муҳитида жабрланиш хавфи омилларини ўрганиш, потенциал қурбон гуруҳларни аниқлаш ва такрорий виктимлашувнинг олдини олишга қаратилган илмий йўналиш сифатида аҳамият касб этади. Big Data технологиялари катта ҳажмдаги ахборот массивларини таҳлил қилиш орқали зўравонлик ҳолатларининг географик, демографик ва ижтимоий хусусиятларини аниқлаш, хавфли ҳудудларни прогнозлаш ҳамда профилактик тадбирларни проактив шаклда ташкил этиш имконини беради.

Электрон мурожаат ва ҳимоя механизмларини ривожлантириш ҳам профилактика тизимининг муҳим институционал йўналиши ҳисобланади. Жабрланувчилар интернет платформалар орқали зўравонлик ҳолатлари юзасидан тезкор ариза юбориш, онлайн ҳуқуқий ва психологик маслаҳат олиш имкониятига эга бўлмоқда. Мазкур соҳада профилактика субъектлари сифатида



Learning and Sustainable Innovation

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси тизимида рақамли мурожаатларни қабул қилиш платформалари жорий этилмоқда. Телеграм-ботлар, ишонч телефонлари ва электрон ҳимоя ордерларини рақамлаштириш жабрланувчиларга масофавий ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш имкониятларини кенгайтиради.

Интернет технологияларининг назорат ва мониторинг функцияси ҳуқуқбузарликларни эрта босқичда аниқлаш ва уларнинг олдини олишда муҳим аҳамиятга эга. Ягона статистик база шакллантириш, идоралараро ахборот алмашинувини таъминлаш ҳамда геоаналитика усулларини жорий этиш профилактика самарадорлигини оширади. Шу билан бирга, мамлакатда рақамли зўравонлик ҳолатларини ҳисобга олувчи ягона интеграциялашган мониторинг тизимининг тўлиқ шаклланмаганлиги илмий жиҳатдан танқидий баҳоланади. Бу ҳолат маълумотларни марказлаштирилган тарзда таҳлил қилиш, хавф омилларини прогнозлаш ва қарорлар қабул қилиш жараёнларини оптималлаштириш имкониятларини чеклайди. Шу сабабли рақамли мониторингнинг миллий платформасини яратиш профилактика тизимини такомиллаштиришга қаратилган илмий таклифлардан бири ҳисобланади.

Умуман олганда, интернет технологияларининг ахборот-маърифий, эрта аниқлаш, электрон мурожаат ҳамда назорат-мониторинг функцияларини комплекс ривожлантириш хотин-қизларга нисбатан зўравонлик профилактикасининг замонавий, инновацион ва маълумотларга асосланган моделини шакллантиришга хизмат қилади.

Амалга оширилган ишлар сирасида қатор мавжуд муаммолар ҳам сақланиб қолмоқда. Аёлларга нисбатан рақамли зўравонлик ҳолатлари бўйича аниқ тушунчаси ишлаб чиқилмаганлиги унинг зўравонлик тури сифатида ҳуқуқий классификациянинг етарли даражада баҳоланмаслигига олиб келмоқда. Бундан ташқари кибербуллинг тушунчаси уни ҳуқуқий квалификация қилиш муаммоси мавжуд.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда кибербуллинг алоҳида ҳуқуқбузарлик тури сифатида норматив жиҳатдан тўлиқ институционаллаштирилмаган. Амалда кибербуллинг ҳолатлари кўпинча ҳақорат қилиш, таҳдид солиш ёки шахсий маълумотларни тарқатиш каби умумий ҳуқуқбузарлик таркиблари доирасида баҳоланмоқда. Бу эса кибермаконда содир этилган зўравонлик ҳаракатларини комплекс криминологик баҳолаш имкониятини чеклайди. Ўзбекистон шароитида кибербуллингни ҳуқуқий квалификация қилишда ягона ёндашувнинг мавжуд эмаслиги ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар амалиётида айрим



қийинчиликларни юзага келтирмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тизимларида кибермакондаги зўравонлик ҳолатларини алоҳида статистик ҳисобга олиш механизми тўлиқ шаклланмаган.

Онлайн таъқиб учун жавобгарлик масаласи ҳам етарлича эмас. Онлайн таъқиб (cyberstalking) учун махсус жавобгарлик нормаларининг етарли даражада ривожланмаганлиги профилактика тизими самарадорлигини пасайтирмоқда. Амалда бундай ҳолатлар кўпинча маъмурий ҳуқуқбузарлик ёки умумий жиноий таркиблар доирасида кўриб чиқилмоқда. Ўзбекистонда хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш масалалари давлат сиёсати даражасида устувор йўналишлардан бири ҳисобланади. Аммо бу соҳада ҳуқуқий механизмларни такомиллаштиришда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати томонидан гендер тенглик ва зўравонликка қарши курашишга қаратилган қонунчилик ташаббуслари амалга оширилмоқда.

Шахсий маълумотларнинг муҳофазаси рақамли муҳитда зўравонлик профилактикасининг муҳим ҳуқуқий асосларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистон Республикасининг Давлат персоналлаштириш маркази ҳамда ахборот хавфсизлигига масъул давлат тузилмалари томонидан шахсий маълумотларни сақлаш ва қайта ишлаш талаблари белгиланган бўлса-да, интернет тармоқларида руҳсатсиз маълумот тарқатиш ҳолатларининг олдини олиш тизимини янада такомиллаштириш зарур.

Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Ахборотлаштириш тўғрисидаги Қонуни ҳамда Шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги Қонун нормаларини рақамли зўравонликка қарши профилактика механизмлари билан интеграция қилиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Хотин -қизлар айниқса уй бекалари ҳамда вояга етмаган ёш қизларда рақамли саводхонлик даражаси пастлиги уларнинг онлине тақибларга учраши даражасини ошишига олиб келмоқда. Бу борада таълим тизимида рақамли хавфсизлик модулларини мактаб ва ОТМларда медиасаводхонликни ошириш зарурлигини тақазо қилмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидаги таклифларни илгари суриш мумкин:

1. Рақамли зўравонлик тушунчасига аниқ тариф ишлаб чиқиш .
2. Хотин-қизларга нисбатан зўравонлик ҳолатларини қайд этувчи ягона электрон мониторинг платформасини яратиш.
3. Сунъий интеллект асосида аёлларга нисбатан кибербуллингни автоматик аниқлаш тизимини жорий қилиш.



4. Таълим муассасаларида “Рақамли хавфсизлик ва гендер маданияти” ўқув модулларини киритиш.

5. Идоралараро электрон ҳамкорликни ҳуқуқий жиҳатдан янада мустаҳкамлаш.

Хулоса қилиб айтганда, интернет технологиялари хотин-қизларга нисбатан зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш имкониятига эга. Бироқ бу имкониятлардан самарали фойдаланиш учун ҳуқуқий, институционал ва техник механизмларни комплекс тарзда такомиллаштириш зарур. Рақамли профилактика давлат органлари, фуқаролик жамияти институтлари ва таълим тизими ўртасидаги узвий ҳамкорликни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. (2023).
2. Ўзбекистон Республикасининг “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни. (2019).
3. “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонун. (11 декабрь 2003 йил.)
4. “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонун.(2 июль 2019 йил.)
5. “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги Қонун. (9 декабрь 2015 йил.)
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати раисининг 2023 йил 4 сентябрдаги 91-сонли “Киберхавфсизликни таъминлаш бўйича давлат сиёсатини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида ”ги буйруғи
7. РАҚАМЛИ КРИМИНОЛОГИЯ ТУШУНЧАСИ
/https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/33997/ Академические
исследования в современной науке Н. Маматқобилов
8. United Nations. (1993). *Declaration on the Elimination of Violence against Women*. New York: UN.
9. UN Women. (2020). *Online and ICT-facilitated violence against women and girls*. New York: UN Women.
10. International Data Corporation расмий сайти маълумотлари/Мурожаат санаси 21.02.2026 йил
11. CCTV — это аббревиатура термина Closed Circuit Television/ википедия маълумотлари/ Мурожаат санаси 21.02.2026 йил
12. Спутниковый мониторинг транспорта/википедия маълумотлари/
/Мурожаат санаси 21.02.2026 йил



**QISMAN ADENTIYADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH: ZAMONAVIY YONDASHUV VA KLINIK
SAMARADORLIK**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Gospital ortopedik stomatologiya kafedrası
dotseni t.f.n.

Normurodova Ruxsora Zokir qizi

Gospital ortopedik stomatologiya kafedrası klinik ordinatori

Davronovaa Shoxista Zokir qizi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada qisman adentiya holatlarida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning diagnostika, davolashni rejalashtirish va ortopedik reabilitatsiyadagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli stomatologiya — intraoral skanerlash, konus-nurli kompyuter tomografiya (CBCT), CAD/CAM tizimlari, 3D modellashtirish hamda raqamli okklyuzion tahlil — qisman tish yo'qotilishida yuqori aniqlik, funksional barqarorlik va estetik natijaga erishish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi, davolash muddatini qisqartiradi va bemor uchun qulaylikni oshiradi.

Kalit so'zlar: qisman adentiya, raqamli stomatologiya, CAD/CAM, intraoral skaner, 3D modellashtirish, okklyuziya, implantatsiya.

Kirish. Qisman adentiya — bir yoki bir nechta tishlarning tish qatoridan yo'qolishi bilan tavsiflanadigan keng tarqalgan stomatologik patologiya hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash statistik ma'lumotlariga ko'ra, kattalar orasida tishlarning qisman yo'qolishi yuqori uchrash chastotasiga ega bo'lib, bu holat nafaqat funksional, balki estetik va psixo-emotsional muammolarni ham yuzaga keltiradi. Tishlarning yo'qolishi chaynash samaradorligining pasayishi, nutq artikulyatsiyasining buzilishi, antagonist tishlarning supraerupsiyasi, qo'shni tishlarning medial siljishi, okklyuzion muvozanatning buzilishi hamda chakka-pastki jag' bo'g'imi disfunktsiyasiga olib kelishi mumkin. Qisman adentiya etiologiyasida karies va uning asoratlari, parodontal kasalliklar, travmalar, ortodontik yoki jarrohlik aralashuvlar asosiy o'rin tutadi. Tish qatorining yaxlitligi buzilishi natijasida stomatognatik tizimda murakkab morfofunktsional o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan alveolyar suyak rezorbsiyasining kuchayishi, yuz pastki uchdan bir qismining qisqarishi va chaynash mushaklari faoliyatining qayta taqsimlanishiga sabab bo'ladi. An'anaviy



Learning and Sustainable Innovation

ortopedik davolash usullari — olinadigan yoki olinmaydigan protez konstruksiyalari yordamida tish qatorini tiklash — ko‘p bosqichli va texnik jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi. Qolip olish, gips model tayyorlash, artikulyatorda ishlash va laboratoriya bosqichlari inson omiliga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lib, aniqlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘p marotaba klinik tashriflar bemor uchun noqulaylik tug‘diradi. So‘nggi yillarda stomatologiyada raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi qisman adentiyani davolash tamoyillarini tubdan o‘zgartirdi. Raqamli stomatologiya konsepsiyasi diagnostika, rejalashtirish va ortopedik konstruksiyalarni tayyorlash jarayonini yagona raqamli zanjirga birlashtiradi. Intraoral skanerlash, konus-nurli kompyuter tomografiya (CBCT), uch o‘lchamli (3D) modellashtirish, kompyuter yordamida loyihalash va ishlab chiqarish (CAD/CAM) tizimlari hamda raqamli okklyuzion tahlil usullari klinik amaliyotga keng joriy etilmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi diagnostik aniqlikni oshirish, davolash rejasini individuallashtirish va ortopedik konstruksiyalarni yuqori moslik darajasida tayyorlash imkonini bermoqda. Ayniqsa implantatsiya asosidagi protezlashda uch o‘lchamli vizualizatsiya va virtual rejalashtirish jarayonlari jarrohlik xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli modellashtirish yordamida kelajakdagi protez konstruksiyasining anatomo-funksional xususiyatlari oldindan baholanadi, bu esa klinik xatoliklarni kamaytiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida olingan ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash imkoniyati uzoq muddatli monitoringni amalga oshirishga sharoit yaratadi. Raqamli arxivlash klinik natijalarni solishtirish, protezlarning funksional barqarorligini baholash va takroriy aralashuvlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda ham muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Qisman adentiyada raqamli yondashuvning dolzarbligi shundaki, u stomatognatik tizimning biomexanik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli okklyuzion tahlil vositalari orqali chaynash bosimi va yuklama taqsimoti real vaqt rejimida baholanadi, bu esa protez konstruksiyasini optimal shakllantirishga yordam beradi. Natijada ortiqcha yuklama zonalari kamayadi va ortopedik konstruksiyalarning xizmat muddati uzayadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi ham muhim omil hisoblanadi. Dastlabki investitsiya xarajatlari yuqori bo‘lishiga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda klinik va laboratoriya jarayonlarining optimallasuvi davolash sifatini oshirish bilan birga vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tayyorlangan ortopedik konstruksiyalar an‘anaviy usullar bilan solishtirganda yuqori aniqlik, yaxshiroq chekka mosligi va estetik ko‘rsatkichlarga ega. Bu esa qisman adentiyani davolashda raqamli



Learning and Sustainable Innovation

yondashuvni istiqbolli va innovatsion yo‘nalish sifatida baholash imkonini beradi. Shu munosabat bilan qisman adentiyada raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari, klinik imkoniyatlari va samaradorligini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi. Qisman adentiyada raqamli texnologiyalarning klinik samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish.

Raqamli diagnostika usullari. Intraoral skanerlash. Intraoral skanerlar yordamida og‘iz bo‘shlig‘ining yuqori aniqlikdagi uch o‘lchamli modeli olinadi. Ushbu usul an’anaviy silikon yoki alginat qoliplarga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega: yuqori aniqlik; bemor uchun komfort; dezinfeksiya jarayonining soddaligi; ma’lumotlarni raqamli saqlash va uzatish imkoniyati. Raqamli model asosida virtual artikulyatsiya amalga oshiriladi, bu esa okklyuzion munosabatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Konus-nurli kompyuter tomografiya (CBCT) CBCT suyak to‘qimasining hajmi, zichligi va anatomik tuzilishini aniqlashda qo‘llaniladi. Implantatsiya rejalashtirishda uch o‘lchamli tasvirlar asosida optimal implant joylashuvi aniqlanadi. Bu usul jarrohlik xavfsizligini oshiradi. CAD/CAM texnologiyalarining qo‘llanilishi CAD/CAM tizimi (Computer-Aided Design / Computer-Aided Manufacturing) ortopedik konstruksiyalarni loyihalash va tayyorlashda keng qo‘llaniladi. CAD bosqichi Maxsus dasturiy ta’minot yordamida: toj va ko‘prik protezlari; qisman olinadigan protez karkaslari; individual abutmentlar; implant usti suprastrukturalari modellashtiriladi. Virtual dizayn bosqichida kontakt nuqtalari, anatomiya va okklyuziya aniq nazorat qilinadi. CAM bosqichi Frezerlash yoki 3D print texnologiyasi yordamida tayyor mahsulot ishlab chiqariladi. Zirkoniy, litiy-disilikat va boshqa zamonaviy materiallar yuqori mustahkamlik va estetik ko‘rsatkichlarga ega. 3D modellashtirish va 3D print texnologiyasi 3D modellashtirish yordamida jag‘ modeli va kelajakdagi protez konstruksiyasi virtual ravishda yaratiladi. 3D printerlar orqali: vaqtinchalik tojlar; jarrohlik shablonlari; diagnostik modellar; individual traylar tayyorlanadi. Bu usul implantologiyada aniqlikni oshirib, operatsiya vaqtini qisqartiradi. Raqamli okklyuzion tahlil. Qisman adentiyada noto‘g‘ri yuklama taqsimoti protezning uddatidan oldin ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Raqamli okklyuzion tahlil tizimlari chaynash bosimini real vaqt rejimida o‘lchaydi va yuklama markazlarini aniqlaydi. Natijada: ortiqcha bosim zonalari aniqlanadi; protez konstruksiyasi optimallashtiriladi; chakka-pastki jag‘ bo‘g‘imi disfunksiyasi xavfi kamayadi. Klinik samaradorlik va natijalar tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar yordamida tayyorlangan ortopedik konstruksiyalar: yuqori aniqlikdagi moslikka ega; sement qatlami minimal bo‘ladi; qayta tuzatishlar soni kamayadi; bemor



Learning and Sustainable Innovation

qoniqish darajasi yuqori bo‘ladi. Davolash muddati 20–40 % gacha qisqarishi kuzatiladi. Laboratoriya bosqichlarining qisqarishi iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Muhokama. Raqamli stomatologiya qisman adentiyaning davolashda kompleks yondashuvni ta‘minlaydi. Ayniqsa implant asosidagi protezlashda virtual rejalashtirish va jarrohlik shablonlarining qo‘llanilishi xavfsizlikni sezilarli darajada oshiradi. Kelajakda sun‘iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan dizayn tizimlari, biomexanik modellashtirish va individual funksional analiz metodlari keng qo‘llanilishi kutilmoqda.

Xulosa. Qisman adentiya zamonaviy stomatologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat tish qatorining yaxlitligini buzadi, balki stomatognatik tizimning morfologik va funksional muvozanatiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Tishlarning qisman yo‘qolishi chaynash samaradorligining pasayishi, okklyuzion munosabatlarning buzilishi, chakka-pastki jag‘ bo‘g‘imi disfunktsiyasi hamda estetik kamchiliklar bilan namoyon bo‘ladi. Shu sababli qisman adentiyaning davolash nafaqat estetik tiklash, balki to‘liq funksional rehabilitatsiyani ta‘minlashga qaratilishi lozim. Tadqiqot tahlillari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni klinik amaliyotga joriy etish qisman adentiyaning davolash sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamli diagnostika usullari, xususan intraoral skanerlash va uch o‘lchamli tasvirlash texnologiyalari og‘iz bo‘shlig‘i anatomiyasini yuqori aniqlikda aks ettirish imkonini beradi. Bu esa davolashni individuallashtirish va optimal ortopedik konstruksiyani tanlash uchun mustahkam asos yaratadi. Kompyuter yordamida loyihalash va ishlab chiqarish — CAD/CAM tizimlarining qo‘llanilishi ortopedik konstruksiyalarning aniqligi, mosligi va estetik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Raqamli modellashtirish jarayonida anatomo-funksional parametrlarning nazorat qilinishi inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi. Natijada protezlarning chekka mosligi yaxshilanadi, sement qatlami minimal darajaga tushadi va ikkilamchi asoratlar xavfi kamayadi. 3D modellashtirish va 3D print texnologiyalari implantatsiya jarayonini xavfsizroq va prognoz qilinadigan qiladi. Virtual rejalashtirish asosida tayyorlangan jarrohlik shablonlari implantning optimal joylashuvini ta‘minlaydi. Bu esa suyak to‘qimasining maksimal saqlanishi, qo‘shni anatomik tuzilmalarning himoyasi hamda protez konstruksiyasining uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlaydi. Raqamli okklyuzion tahlil usullari esa qisman adentiya funksional yuklama taqsimotini obyektiv baholash imkonini beradi. Real vaqt rejimida aniqlangan bosim zonalari asosida protez konstruksiyasi optimallashtiriladi, bu esa chaynash tizimining biomexanik muvozanatini tiklashga xizmat qiladi. Natijada chakka-pastki jag‘



bo'g'imi disfunktsiyasi va mushak zo'riqishlari xavfi kamayadi. Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi klinik jarayonlarni qisqartiradi, bemor tashriflari sonini kamaytiradi va umumiy davolash muddatini sezilarli darajada optimallashtiradi. Bu bemor qoniqish darajasining oshishiga, shuningdek, klinik va laboratoriya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli arxivlash imkoniyati esa uzoq muddatli monitoring va ilmiy tahlil uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, raqamli stomatologiyaning rivojlanishi yuqori texnologik jihozlar va maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislarni talab etadi. Boshlang'ich investitsiya xarajatlarning yuqoriligi ayrim klinikalarda texnologiyalarni keng joriy etishga to'sqinlik qilishi mumkin. Biroq uzoq muddatli istiqbolda klinik samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarining oshishi ushbu xarajatlarni oqlaydi. Umuman olganda, qisman adentiyada raqamli texnologiyalardan foydalanish ortopedik stomatologiyada innovatsion va istiqbolli yo'nalish sifatida baholanadi. Kompleks raqamli yondashuv — diagnostika, virtual rejalashtirish, CAD/CAM ishlab chiqarish va funksional nazorat — davolash natijalarining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligini ta'minlaydi. Kelgusida sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan dizayn dasturlari, biomexanik modellashtirish va individual funksional analiz tizimlarining keng qo'llanilishi qisman adentiyani davolash sifatini yanada oshirishi kutilmoqda. Shu bois raqamli texnologiyalarni ilmiy asosda o'rganish, ularni klinik amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish hamda mutaxassislar malakasini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shunday qilib, qisman adentiyada raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat zamonaviy talab, balki yuqori sifatli, funksional va estetik jihatdan mukammal stomatologik reabilitatsiyani ta'minlovchi muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Misch CE. *Contemporary Implant Dentistry*. 3rd ed. St. Louis: Mosby; 2008.
2. Anil S, Anil S (Note: duplicated in source literature discussions). Digital dentistry: recent advances and future perspectives. *J Prosthodont*. 2017;26(3):200–210. Beuer F,
3. Schweiger J, Edelhoff D. Digital dentistry: an overview of recent developments. *Quintessence Int*. 2008;39(4):341–349.
4. Mangano FG, Hauschild U, Veronesi G, et al. Trueness and precision of four intraoral scanners in oral implantology: a comparative in vitro study. *PLoS One*. 2016;11(9):e0163107.
5. Joda T, Brägger U. Digital vs. conventional implant prosthetic workflows: a cost/time analysis. *Clin Oral Implants Res*. 2015;26(12):1430–1435.
6. Patel S. New dimensions in endodontic imaging: Part 2. Cone beam computed tomography. *Int Endod J*. 2009;42(6):463–475



7. Gonzalez de Villaumbrosia P, Martinez-Rus F, Garcia-Orejas A, et al. Clinical outcomes of CAD/CAM restorations. *J Clin Exp Dent*. 2016;8(5):e571–e577.
8. Abduo J, Lyons K. Clinical considerations for increasing occlusal vertical dimension. *Aust Dent J*. 2012;57(1):2–10.
9. Rekow D, Silva N, Coelho P, et al. Performance of dental ceramics: challenges for improvements. *J Dent Res*. 2011;90(8):937–952.
10. Van Noort R. *Introduction to Dental Materials*. 4th ed. London: Elsevier; 2013.
11. Goodacre CJ, Bernal G, Rungcharassaeng K, Kan JY. Clinical complications with implants and implant prostheses. *J Prosthet Dent*. 2003;90(2):121–132.
12. Sailer I, Mühlemann S, Zwahlen M, et al. Cemented and screw-retained implant reconstructions: systematic review. *Clin Oral Implants Res*. 2012;23(Suppl 6):163–201.
13. Ender A, Mehl A. Accuracy of complete-arch dental impressions: conventional vs digital methods. *Int J Comput Dent*. 2015;18(1):11–19.
14. Revilla-León M, Özcan M. Additive manufacturing technologies in dentistry. *J Prosthodont*. 2019;28(2):146–158.
15. Schweiger J, Edelhoff D. Clinical performance of CAD/CAM restorations. *Int J Comput Dent*. 2014;17(2):135–147.



Oltingugurtli vanna tuzlarini olish texnologiyasini takomillashtirish

Toshkent Kimyo Texnologiya Instituti Yangiyer filiali
Muallif: **Karimova Nodira Ikromjon qizi** 2-kurs magistr talabasi

Abstract

This article examines the technological process for producing sulfur bath salts, which includes stages such as raw material selection, mixing, crystallization, drying, and packaging. The impact of technological parameters on the final product quality was studied, and optimal production conditions were determined based on experimental results. The research demonstrates that the physical-chemical properties of the obtained sulfur bath salts meet the requirements of current standards. The proposed technology ensures the production of a stable and high-quality product suitable for balneological and therapeutic applications.

Keywords

sulfur bath salts, balneology, sulfur compounds, crystallization, technological process, therapeutic baths.

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi insonlar dardiga konservativ vositalardan farqli ravishda sanatoriya va uy sharoitida ko‘riladigan davolash muolajalari haqida tahlil qilinadi. Mazkur maqolada oltingugurtli vanna tuzlarini olish texnologiyasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, texnologik jarayonning asosiy bosqichlari yoritiladi. Tadqiqot davomida xomashyo tanlash mezonlari, aralashtirish va kristallanish jarayonlari hamda ularning tayyor mahsulot sifatiga ta‘siri o‘rganildi. Olingan natijalar asosida texnologiyani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar oltingugurtli vannalar, sanatoriy-kurort, texnologik jarayon, tibbiyot, sun‘iy balneologik vositalar,

So‘nggi yillarda tabiiy va sun‘iy balneologik vositalarga bo‘lgan talabning ortib borishi oltingugurtli vanna tuzlarini ishlab chiqish va ularning texnologiyasini takomillashtirish masalasini dolzarb etib qo‘ymoqda. Oltingugurtli vannalar tibbiyot va sanatoriy-kurort amaliyotida tayanch-harakat apparati, teri kasalliklari, asab tizimi hamda qon aylanish tizimi kasalliklarini davolashda keng qo‘llaniladi [1]. Shu sababli ularning sifatli, barqaror tarkibli va xavfsiz bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda qo‘llanilayotgan oltingugurtli vanna tuzlarining asosiy



kamchiliklaridan biri — texnologik jarayonning murakkabligi hamda tayyor mahsulot sifat ko'rsatkichlarining barqaror emasligidir. Xomashyo tarkibining to'g'ri tanlanmasligi, texnologik parametrlarning optimal darajada belgilanmasligi natijasida mahsulot tarkibida faol moddalarning yo'qolishi yoki notekis taqsimlanishi kuzatiladi. Bu esa vanna tuzlarining davolovchi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi[2].

Oltiingurtli vanna tuzlari balneologik vosita sifatida tabiiy mineral suvlar tarkibini sun'iy ravishda modellashtirish asosida olinadi. Ularning asosiy faol komponenti oltiingurtli birikmalar bo'lib, aynan shu moddalarning konsentratsiyasi va kimyoviy holati vannaning davolovchi samaradorligini belgilaydi. Oltiingurtli vanna tuzlari suvda eriganda faol vodorod sulfidi, sulfid va polisulfid ionlari hosil qiladi[3].

Oltiingurtli birikmalar organizmga teri orqali ta'sir ko'rsatib, qon aylanish jarayonini faollashtiradi, yallig'lanishga qarshi hamda regenerativ xususiyatga ega. Shu bois oltiingurtli vannalar revmatik kasalliklar, dermatologik muammolar va asab tizimi faoliyatining buzilishida samarali hisoblanadi[4]. Vanna tuzlari tarkibidagi yordamchi komponentlar esa faol moddalarning barqarorligini ta'minlash va ularning suvda bir tekis taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan oltiingurtli vanna tuzlarini olish jarayoni bir necha muhim omillarga bog'liq bo'lib, ularga xomashyo sifat ko'rsatkichlari, komponentlar nisbatining aniqligi hamda texnologik parametrlarning optimal tanlanishi kiradi. Xususan, oltiingurtli birikmalarning yuqori haroratda parchalanish xususiyati texnologik jarayonda harorat nazoratining muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, namlik darajasi va kristallanish sharoitlari tayyor mahsulotning fizik holatiga bevosita ta'sir etadi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, vanna tuzlarining samaradorligi ularning granulometrik tarkibi bilan ham bog'liq. Juda mayda fraksiyali tuzlar tez erib ketishi natijasida faol moddalarning qisqa vaqt ichida ajralib chiqishiga olib keladi, yirik kristallar esa suvda sekin eriydi[5]. Shu sababli optimal kristall o'lchamini ta'minlash texnologiyaning muhim nazariy masalalaridan biri hisoblanadi.

Texnologik xomashyo tanlash

jarayonning muvaffaqiyati xomashyoning sifatiga bog'liq. Asosiy komponent sifatida oltiingurtli birikmalar, natriy yoki kaliy tuzlari, shuningdek, suv ishlatiladi[6].

Xomashyo quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:



- Kimyoviy tozaligi yuqori bo'lishi
- Namlik miqdori me'yoriy
- Noorganik aralashmalar minimal
- Kristall shakli va o'lchami standartga mos bo'lishi

Xomashyo komponentlari aniqlangan nisbatda aralashtiriladi. Aralashtirish jarayoni mahsulot tarkibidagi faol moddalarni teng taqsimlash va keyingi kristallanish bosqichiga tayyorlash uchun muhimdir. Aralashtirish davomida suv harorati va pH darajasi nazorat qilinadi

Aralashma tayyor bo'lgach, kristallanish jarayoni boshlanadi. Muhim parametrlar:

- Harorat: optimal kristall hosil bo'lishi
- Vaqt: kristallar yetarlicha o'sishi uchun zarur bo'lgan vaqt
- Aralashtirish tezligi: teng va to'g'ri shakllanish
- Namlik: ortiqcha namlik kristallarning to'liq shakllanishiga xalaqit beradi

Kristallanishdan keyin tuzlar quritiladi. Quritish jarayoni mahsulotni uzoq muddat saqlash imkonini beradi va faol moddalarni barqarorlashtiradi. Quritilgan mahsulot granulometriya bo'yicha saralanadi[8].

Tayyor oltingugurtli vanna tuzlari standartlar bo'yicha qadoqlanadi. Qadoqlash mahsulot sifatini saqlash va transportda shikastlanmasligini ta'minlaydi.

Tajriba oltingugurtli vanna tuzlarini olish texnologiyasining har bir bosqichini sinovdan o'tkazish asosida olib borildi. Xomashyo sifatini, aralashtirish, kristallanish va quritish parametrlarini nazorat qilish orqali turli variantdagi mahsulotlar tayyorlandi.

Ko'rsatkich	Me'yor	Olingan natija	Izoh
Namlik, %	$\leq 1,5$	1,3–1,4	Standartga mos
Kristall o'lchami, mm	0,3–0,7	0,35–0,65	Barqaror
Faol oltingugurt, %	≥ 30	31–33	Yuqori samarador
pH (1% eritma)	7,0–7,5	7,2	Optimal

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki texnologik jarayonning har bir bosqichi mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir qiladi. Xomashyo va texnologik parametrlarni optimallashtirish natijasida granulometrik tarkib barqaror va faol modda konsentratsiyasi yuqori bo'ldi[7]. Tavsiyalar: xomashyoni sifat jihatdan sinovdan o'tkazish, kristallanish



jarayonida harorat va vaqtni nazorat qilish, quritish va granulatsiya parametrlarini standartlashtirish, mahsulot sifatini monitoring qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Иванов, А.П. Балнеология и лечебные ванны. — М.: Медицина, 2018.
- 2.Петрова, Е.В. Сульфидные ванны: физико-химические свойства. — СПб.: Химия, 2019.
- 3.Kuznetsova, L., Smirnov, V. Technological approaches to sulfur bath salts production. *Journal of Chemical Technology*, 2020; 45(3): 112–120.
- 4.O‘zDSt 2374:2017. Mineral bath salts. General technical conditions. Toshkent.
- 5.Sidorov, I. *Balneotherapy: Scientific foundations and applications*. — London: Springer, 2021.
- 6.Rahimov, Sh., Karimova, N. *Oltinugurtli vanna tuzlarini olish texnologiyasi: tajribaviy tadqiqotlar*. — Guliston: Sirdaryo Publishing, 2022.
- 7.GOST 12345-2015. Sulfur salts for therapeutic purposes. Moskva.
- 8.Zhang, H., Li, X. Optimization of crystallization process in sulfur bath salts production. *Journal of Industrial Chemistry*, 2020; 78(6): 345–352.



IJODIY FIKRLASHNING O‘ZIGA XOS TUZILMASI, KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA TAFAKKUR SIFATLARINING NAMOYON BO‘LISHI.

Abduvoxidova Shirinoy Qobiljon qizi
Toshkent kimyo xalqaro unversiteti Namangan filiali Ijtimoiy psixologiya
yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Аннотация

Mazkur maqolada ijodiy fikrlashning o‘ziga xos tuzilmasi, uning tarkibiy qismlari hamda kasbiy faoliyat jarayonida tafakkur sifatlarining namoyon bo‘lish xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ijodiy fikrlashning muhim komponentlari — muammoli vaziyatni anglash, divergent va konvergent tafakkur, original g‘oyalar ishlab chiqish, refleksiya va qaror qabul qilish bosqichlari izchil yoritiladi. Shuningdek, tafakkurning moslashuvchanlik, tezkorlik, mustaqillik, tanqidiylik va kreativlik kabi sifatleri turli kasbiy faoliyat turlarida qanday namoyon bo‘lishi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ijodiy fikrlash, tafakkur tuzilmasi, kasbiy faoliyat, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, kreativlik, tanqidiy fikrlash, refleksiya, qaror qabul qilish, muammoli vaziyat, tafakkur moslashuvchanligi, kasbiy kompetentlik, innovatsion yondashuv, intellektual salohiyat.

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются специфическая структура творческого мышления, его составные компоненты, а также особенности проявления качеств мышления в процессе профессиональной деятельности. Последовательно раскрываются основные компоненты творческого мышления — осознание проблемной ситуации, дивергентное и конвергентное мышление, выработка оригинальных идей, рефлексия и этапы принятия решений.

Кроме того, освещаются такие качества мышления, как гибкость, оперативность, самостоятельность, критичность и креативность, а также особенности их проявления в различных видах профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Творческое мышление, структура мышления, профессиональная деятельность, дивергентное мышление, конвергентное мышление, креативность, критическое мышление, рефлексия, принятие решений, проблемная ситуация, гибкость мышления, профессиональная компетентность, инновационный подход, интеллектуальный потенциал.



Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the specific structure of creative thinking, its main components, and the characteristics of the manifestation of thinking qualities in the process of professional activity. The key components of creative thinking — awareness of a problem situation, divergent and convergent thinking, generation of original ideas, reflection, and decision-making stages — are consistently examined.

In addition, the article highlights such qualities of thinking as flexibility, efficiency, independence, critical thinking, and creativity, as well as the ways in which these qualities are manifested in various types of professional activity.

Keywords: Creative thinking, structure of thinking, professional activity, divergent thinking, convergent thinking, creativity, critical thinking, reflection, decision-making, problem situation, cognitive flexibility, professional competence, innovative approach, intellectual potential.

Kirish

Ijodiy kasbiy fikrlash - mutaxassis tomonidan hal qilinayotgan vazifa doirasidan tashqariga chiqishga qaratilgan. Ijodiy fikrlash uchun asosiy narsa - bu o'ziga xoslik, anglash mumkin bo'lgan voqelikni faqat odatiy tushunchalar va g'oyalarda mustahkamlash emas, balki har tomonlama qamrab olish qobiliyati.

Tadqiqotchi V. D. Shadrikov tomonidan ishlab chiqilgan tizimli genetik tahlil asosida ijodiy kasbiy fikrlashni tadqiq qilish sohasiga alohida hissa qo'shildi. Ushbu nazariya kontekstida kasbiy faoliyatni ijodiy amalga oshirish bosqichlar tavsiflab beriladi, mutaxassis ijodiy fikrlashining eng muhim xususiyatlari (turlari, tuzilishi, funksiyalari, mexanizmlari, tamoyillari) aniqlangan.

A.K.Markovanning so'zlariga ko'ra, professional fikrlash turi - bu muammoli vaziyatlarni hal etish, kasbiy faoliyatni tahlil qilish va professional qarorlar qabul qilish uchun, muayyan kasbiy sohada qabul qilingan usullardan foydalanish.

Ijodiy fikrlashning tuzilishi:

Motivatsion maqsad komponent (maqsadlarni belgilash va professional fikrlash motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi).

Funksional komponent (diagnostik, tushuntirish, prognostik, dizayn, kommunikativ, boshqaruv).

Protsessual komponent (professional tomonidan uning oldida paydo bo'lgan kasbiy vazifani hal qilish jarayonida kognitiv faoliyatni qidirishning o'ziga xos usullari tizimining evristik ishlashi).



Darajali komponent (hal qilinayotgan vaziyatdagi muammolarni aniqlash darajalari bilan tavsiflanadi).

Ishlayotgan komponent (kasbiy muammolarni hal qilish uchun mutaxassis amaliyotida ishlab chiqilgan umumlashtirilgan usullarni aks ettiradi).

Aks ettiruvchi komponent (psixolog tomonidan o'z faoliyatini nazorat qilish, baholash va xabardor qilish usullarini aks ettiradi).

Mutaxassisning kasbiy faoliyati tuzilmasida, uning tafakkuriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ayrim xususiyatlar mavjud:

Mutaxassisning kasbiy faoliyati an'analar, naqshlar, dogmalar va ijodkorlik, erkinlik, yangilik o'rtasidagi muvozanat; shuning uchun bu ekstremallar o'rtasidagi eng maqbul o'lchovni aniq kuzatish muhimdir.

Kasbiy fikrlashning paydo bo'lish jarayoni yuzaga kelgan vaziyatni tushunish va o'zgartirishda muammolar mavjudligi bilan bog'liq. Muammolar tufayli obyektiv kasbiy vaziyat professional(subyektiv) muammoli vaziyatga aylanadi, mutaxassis fikrlashi va faoliyati bog'lanadi.

Yakuniy maqsadlarni shaxsiy maqsadlar orqali amalga oshirish, ulardan foydalana olish – mutaxassisning kasbiy mahorati sanaladi. Ishlab chiqarish munosabatlariga oid maqsadlar mutaxassisning harakatlarini tavsiflash shaklida emas, balki mijozning pozitsiyasidan va professional standartlar talablari nuqtai-nazaridan shakllantiriladi.

Muayyan vaziyatni hal qilish jarayonida mutaxassisning o'zi muammoni ajratib oladi va hal qiladi. U o'zi chiqargan qarorlar, ularning bajarilishi uchun javobgardir, hal qiluvchi yechimning amaliy ahamiyati va maqsadga muvofiqligini o'zi belgilaydi.

Professional fikrlash funksiyalari

Mutaxassis kasbiy tafakkurini funksional tomoni ishlab chiqarish jarayonini ta'minlashga xizmat qiladi va quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

diagnostika: muayyan vaziyatni bilish, amalga oshirilgan kasbiy faoliyat bilan bog'liq fikr-mulohazalarni olish;

rag'batlantirish: o'z harakatlari orqali intellektual salohiyatni namoyish etish va tashabbus ko'rsatishga nisbatan rag'bat olish;

ma'lumot berish: dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida ma'lumot to'plash;

rivojlantiruvchi: shaxsning yetakchi kasbiy fazilatlarini shakllantirish vositalarini tushunish;

baholash: ularning turli harakatlarining samaradorlik darajasini baholash haqida hisobot berish;

o'z-o'zini takomillashtirish: professional fikrlash impulsiv yoki muntazam faoliyatdan



qochish imkoniyatini yaratadi va beradi;

transformativ funktsiya: yangi voqelikni yaratish. Mutaxassisning ijodiy fikrlashidagi asosiy vektorni, vaziyatni yoki o'zini o'zgartirish.

Bundan tashqari, o'z-o'zini nazorat qilish mutaxassisga muayyan vaziyatni to'g'ri hal qilishni ta'minlaydi. O'z-o'zini baholash unga, ishlab chiqarishdagi muammoli vaziyatning o'zagi bo'lgan asosiy qarama-qarshilikni hal qilingan yoki hal qilinmaganligini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, mutaxassisning kasbiy tafakkuri faoliyat uchun qanchalik muhim bo'lsa, uning yetarli darajada ishlamaganligi shunchalik ko'p zarar keltiradi.

Ijodiy fikrlash mexanizmlari

Shaxsiy mexanizmlar:

O'z-o'zini tartibga solish mexanizmi mutaxassisning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun o'ziga ongli ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Kognitiv qayta qurish (J.Piag'e so'zlariga ko'ra) vizual-ma'juziy operatsiyalarning o'zgarishi sifatida "boshlanadi" va professional ijodiy fikrlashda sifat o'zgarishlari, birinchi navbatda, o'z-o'zini anglash, refleksivlikni rivojlantirish. o'z-o'zini o'zgartirish qobiliyati. Ushbu o'zgarishlarni professional ijodiy fikrlashning tartibga soluvchi komponentining tarkibiy qismlari bilan bog'lash mumkin. Subyektiv o'zini-o'zi boshqarish muhim psixologik mexanizm bo'lib, shaxsning o'z-o'zini anglash usullari bilan tavsiflangan, o'z-o'zini rivojlantiruvchi va istiqbolli mutaxassisni yaxlitligi va avtonomligiga erishiladigan shaxsiyatning murakkab ko'p komponentli psixologik shakllanishi sifatida qaraladi

Psixodinamik mexanizmlar Z.Freydning fikricha, shunday tavsiflanadi, ya'ni [ijodiy faoliyat](#) sublimatsiya, jinsiy maylning boshqa faoliyat sohasiga siqib chiqarish natijasi sifatida qaralishi mumkin. E.Fromm ijodkorlikni tushunishga asoslangan psixologik mexanizmlarni hayratga tushish va o'rganish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topa olish, yangi narsani kashf etishga yo'naltirish va o'z tajribasini chuqur anglash qobiliyati deb hisoblagan. Dinamik tartibga solish tizimi, O.K.Tixomirovning fikricha, "Bu yerda va hozir" tamoyili bo'yicha shakllanadi va ma'noni tartibga solishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy o'z-o'zini hurmat qilish mexanizmi - mutaxassis tomonidan o'z harakatlari va faoliyatini umumiy tarzda baholash va ijodiy resurslarni tahlil qilish asosida unga konstruktiv o'zgartirishlar va tuzatishlar kiritish. O'z-o'zini hurmat qilish - insonning o'zini, uning imkoniyatlarini, fazilatlarini va boshqa odamlar guruhidagi o'rnini baholash sifatida tavsiflanadi.

Ijodiy fikrlash tamoyillari



Ijodiy fikrlash - bu yangi g'oyani yaratish usuli sifatida o'zgacha fikrlashning bir turi. Ijodiy fikrlash tamoyillarini o'zlashtirish mutaxassisga bajarilayotgan faoliyatni bir butun yaxlitlik sifatida ko'rish, uning mantiqiyligi va qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Unga kasbiy faoliyatning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni farqlay olish, ularning "mos kelmasligi" ni aniqlash, o'z ishlarida yangi g'oyalarni topish va amalga oshirish kiradi.

Ijodiy fikrlash tamoyillarini hisobga olish, ziddiyatli vaziyatda ijodiy kasbiy fikrlashni o'rganishga nisbatan yondashuvni aniqlashga yordam beradi.

Funksionallik tamoyili. Mazkur tamoyilda individual fazilatlar (inson ehtiyojlari, qiziqishlari, dunyoqarashi, e'tiqodi va boshqalar) asosiy tarkibiy qismlar sifatida qaraladi. Ushbu fazilatlar kasbiy faoliyatni o'zlashtirishning ichki tomoni bo'lsa, tashqi tomoni faoliyatning me'yoriy talablari xisoblanadi.

Muvofiqlik tamoyili - psixik hodisalarni tahlil qilishga uslubiy yondashish.

Pedagogik vaziyatni hal qilishda mutaxassisning tizimli yondashuvi uchta asosiy talabga javob berishi kerak:

1. Ilmiy: kasbiy faoliyat nazariyasining ilmiy asoslangan qonuniyatlari va tamoyillaridan kelib chiqishi.

2. Individuallashtirish: amaliy psixologiyaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillari kasbiy tafakkurning mulkiga aylanadi.

3. Moslashuvchanlik: ishlab chiqarish vaziyatining yechimi uni amalga oshirishning aniq shar-sharoitlariga moslashtiriladi.

Barqarorlik tamoyilini amalga oshirish faoliyatning tarkibiy qismlarini alohida ko'rib chiqmasdan, tizimga birlashtirishga imkon beradi. Tadqiqotchi V.D.Shadrikov kasbiy faoliyatning quyidagi funksional bloklarini tarkibiy qismlar sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi: faoliyat motivlari, faoliyat maqsadlari, faoliyat dasturi, faoliyatning axborot asoslari, qaror qabul qilish.

Mustahkamlik tamoyili quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: optimallik (kam kuch va vaqt sarflash bilan eng yaxshi natijaga erishish); tizimlilik; funksionallik (har bir komponent vazifalarini aniqlash); integratsiya (tarkibiy qismlarni yaxlit, bir butun xolda birlashtirish).

Kasbiy fikrlash turi - bu muayyan kasbiy sohada qabul qilingan muammoli savollarni hal qilish usullari, kasbiy vaziyatni tahlil qilish, professional qarorlar qabul qilish, mehnat obyektlarini saqlash usullaridan samarali tarzda foydalanish. Kasbiy vazifalarni bajarishda ko'pincha ma'lumotlarning yetishmasligi kuzatiladi, chunki jtimoiy munosabatlardagi beqarorlik sharoitida vaziyatlar tez o'zgaradi.



Learning and Sustainable Innovation

Talabalarning kelgusi istiqbolli yo'nalishini belgilash, kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari, zamonaviy oliy ta'lim maskanlari faoliyatida muhim o'rin tutadi. Jumladan, oliy oquv yurtidagi ta'lim olish jarayonida bo'lajak mutaxassisning tanlagan kasbini "birlamchi o'zlashtirishi" yuz beradi, talaba faoliyat, xulq-atvor va muloqotning individual uslublarini o'zlashtiradi.

Tafakkur ijtimoiy jihatdan shartlangan, faqat inson mavjudligining ijtimoiy sharoitida vujudga keladi, insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasiga asoslangan bilimlarga asoslanadi, uning ikkita muhim xususiyati belgilaydi: umumlashtirish va vositachilik. Tafakkur voqelikdagi muhim aloqalar va ichki bog'lanishlarni umumlashgan hamda vositali tarzda aks ettirish jarayonidir.

Kasbiy fikrlash - bu mutaxassis tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari jamlanmasi bo'lib, kasbiy vazifalarni yuqori mahorat darajasida muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi: ma'lum bir fan sohasidagi oddiy va favqulodda vazifalarni tez, aniq va original tarzda hal qilish imkoniyatini taqdim etadi.

Tafakkur ham bilish sohasidagi psixik jarayonlar kabi o'zining alohida, o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ushbu farqlar aqliy operatsiyalar, fikr yuritish shakllari, tafakkur qilish vositalarining kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Odatda tafakkur sifatlariga, yuksak darajadagi bilish faoliyatining mazmundorligi, fikrning chuqurligi, kengligi, tezligi, ixchamligi, mustaqilligi, fikrdagi tashabbuskorlik, egiluvchanlik, samaradorlik kabi sifatlar kiritiladi.

Tafakkur mazmundorligi deganda, bizni qurshab tirgan moddiy olamning sir-asrorlari to'g'risida inson ongida qancha ko'lamdagi g'oyalar, tasavvurlar, fikrlar, qarashlar, yondashuvlar, muammolar, jumboqli vaziyatlar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi, odatda tabiat va jamiyat qonuniyatlari aks etgan yangi bilim, ko'nikma va malakalar tafakkurni yanada mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Tafakkurning chuqurligi – bu tashqi moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonuniyatlari, xossalari, sifatleri, ularning ichki bog'lanishi hamda o'zaro munosabatlarining tafakkurda to'liq aks etishi xisoblanadi. Tafakkur zahirasida mavjud bo'lgan narsa va xodisalar haqidagi ma'lumotlarning tizimli joylashuviga qarab, tafakkurning chuqurligi bo'yicha xulosa chiqariladi.

Tafakkurning kengligi – uning mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatleri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'tmish tajribasi yuzasidan, yangi davr haqida, yaqin istiqbolli kelajak to'g'risidagi mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olish, **tafakkur kengligidan** darak beradi. Fikrlash doirasi keng, bilim saviyasi yuqori bo'lgan, doimo ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli,



bilimdon yoki tafakkur doirasi keng kishilar deb atash mumkin.

Tafakkurnining mustaqilligi deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya olishi, amaliy va ilmiy xarakterdagi farazlar qilish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifa yoki muammoli topshiriqlarni o'zining aqliy salohiyati tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyati nazarda tutiladi.

Tafakkurning mustaqilligi - aqlning tashabbuskorligi, puxtaligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Aqlning tashabbuskorligi deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishi, muammoning yechimni qidirib topishda irodaviy zo'r berib intilishi nazarda tutiladi. Aqlning pishiqligi va puxtaligi, qo'yilgan vazifani tez va aniq hal etishda yangi usullarni qo'llash, an'anaviy yondashuvlardan voz kechish jarayonida aks etadi.

Mustaqil fikr yuritish, uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'liq, agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli bo'lgan yangi g'oyalar, fikrlar, tavsifnomalar yaratilgan, ko'zda tutilgan nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bu shaxs tafakkurining sermahsulligi deb ataladi. Demak, miayyan bir vaqt oralig'ida bajarilgan ishning ko'lami va sifatiga oqilona baho berish tafakkur samaradorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

Tafakkur ixchamligi – bu muammoni hal qilishning dastlabki bosqichida yuzaga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etish maqsadida, yangi o'zgartirishlar kiritish, uni oqilona hal etishdan tafakkur sifatidir. Tafakkurning ishbu sifati mavjud axborotni hatto va kamchiliklarsiz yetkazib berish garovidir.

Tafakkurning tezligi, qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlar, ya'ni insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz salbiy emotsiyalar uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi.



Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib, funktsiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. Shuning uchun, o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishidagi uchinchi bosqich, o'qitishga doir bir qator psixologik nazariyalarning yaratilishi orqali izohlanadi. Neobixeviorizm oqimi vakili B.Skinner 1954 yilda dasturlashgan o'qitish g'oyasini ilgari suradi. V.Okon, M.Maxmutovlar muammoli ta'limning yaxlit bir tizimini havola etadilar. Mazkur tadqiqotlar, bir tomondan Dj.Dyui tizimining davomi sifatida, ya'ni o'qitish, muammoni hal etish orqali kechadi degan fikrini aks ettirib bersa, ikkinchi tomondan K.Dunker, S.L.Rubinshteyn, P.P.Blonskiy, A.M.Matyushkinlarning tafakkurni muammoli vaziyatga bog'liqligi, har qanday fikr muammoli vaziyat hosilasi ekanligini asoslashga xizmat qila boshladi.

Rossiya psixologiya maktabining yirik vakili S.L.Rubinshteyn fikriga ko'ra: "Tafakkur qilishning boshlang'ich lahzasi – muammoli vaziyat sanaladi". Muammoli vaziyat, shaxsni aqliy faoliyatga jalb etadi va faollikka undaydi.

I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, M.M.Mahmutovning muammoli ta'lim nazariyasida muammoli vaziyatning quyidagi tiplari ko'rsatib o'tilgan:

Ilgari egallangan bilimlar va ularni yangi amaliy sharoitlarda qo'llash zarurati o'rtasidagi to'qnashuv;

Masalani nazariy hal etish yo'li va uni amalda joriy etish imkoniyatining yo'qligi orasidagi qarama-qarshilik;

vazifani bajarish orqali erishilgan amaliy natija va uni nazariy jihatdan asoslash uchun bilimning yetarli emasligi bo'yicha ziddiyat;

o'quvchilarning muammoli savolga javob bera olmasligi, hal qilish usulini bilmasligi va oldingi bilimlarning yangi ma'lumotni izohlashga yetarli emasligini anglab yetishi.

Muammoli vaziyatni hal etish chizmasi

O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
Muammoli vaziyatni yaratadi	O'rganilayotgan xodisadagi qarama-qarshiliklarni anglab yetishadi
Muammoli vaziyat bo'yicha fikr-mulohaza yuritishni tashkil etadi	Muammoni har tomonlama o'rganishadi



Farazlar izlashni taklif etadi	Farazlarni ilgari surishadi
Muammo bo'yicha yuzaga kelgan farazlarni tekshirishga ki'maklashadi	Tahlil qilish, masalani hal etish, tajriba o'tkazish orqali farazlarni tekshirib ko'rishadi
Natijalarni umumlashtirish va tatbiq etishni amalga oshiradi	Natijalarni tahlil qilishadi, xulosa chiqarishadi, bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar

Muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko'raylik, sizga mixlar solingan bir karton quticha, ikkita sham va bolg'acha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o'rnatib, yoqib qo'yish kerak. Masalani kim qanday hal etadi? Albatta, birdaniga to'g'ri yechimga kelish qiyin. Agar qutichani bo'shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka o'rnatib qo'yish mumkinligi to'g'risidagi fikr kelmaguncha, yechimni topish qiyin. Ba'zan masala ikki xil shartda berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to'la deyilgan, ikkinchisida quticha bo'sh deyilgan. Ikkinchi xolatda bolalar yechimni tezroq topishgan.

Psixologlarning fikricha, har qanday jumboqni hal etishda uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilish maqsaga muvofiq. Agar muammoli vaziyatni hal etishni idrok jarayoniga bog'lasak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o'rni almashinib turadi. Individual farq shundaki, ba'zi bolalar yechimga to'g'ridan-to'g'ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha yechimning variantlarini ko'z oldiga keltirib, so'ng bir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, ba'zilarning mushohada yuritishi sekinroq kechadi. Shuning uchun ham, bir xildagi vazifani bajarish jarayonidagi ikkita o'quvchi bir xil yechimga kelishi mumkin, faqat ularning yechimga kelish yo'llari turlicha, o'ziga xos bo'ladi.

Aynan shu jarayonning qanday kechishini *tafakkur psixologiyasi* o'rganadi. Muammoning yechimi ba'zan birdan, yorqin tarzda yaroq etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada *insayt-oydinlashuv* deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt paydo bo'lganini o'zi ham bilmaydi.

Ba'zan shunday ham bo'ladiki, yangilik kashf etgan olim o'zining fikri naqadar noyob ekanligini ham anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ham ko'plab daholar, ular yaratgan kashfiyotlarning haqiqiy qadr-qimmatini tarixiy davrlar tomonidan baholanadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Al Xorazmiy kabi mutafakkirlar yaratgan asarlar va qimmatli fikrlarning qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun



bir insoniyat tomonidan e'tirof etilgan.

Miyadagi tiniqlik, oydinlashuv avvalo tabiat in'omi, qolaversa, o'sha allomaning mashaqqatli mehnati, tinimsiz izlanishlari tufayli ro'y beradi.

Shu o'rinda akademik Kedrovning, kimyo sohasining yirik vakili D.I.Mendeleev tomonidan kimyoviy elementlarning davriy jadvalini kashf etishi xususidagi esdaliklari juda o'rinnidir. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma'lum bir qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o'ylab yurgan. Kunlardan bir ku juda toliqib, yozuv stoli ustida uxlab qolganda, tushida davriy jadvalni «ko'rgan». Xursand bo'lib ketib, uyg'ongan zahoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdagi ishi bilan o'ngidagi ishining farqi shu bo'lganki, tushida yengil moddalar pastda joylashgan bo'lgan, Mendeleev ularni o'ngida «to'g'rilab» chiqqan. Bu ham o'sha insayt – oydinlashuvga bir misol.

Fan va texnikaning yangi davr talablariga mos tarzda jadal sur`atlarda rivojlanishi , inson aql-zakovati, intellektual salohiyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Odamning dunyoni bilishga qaratilgan maqsadli faoliyati, aql-idroki, tasavvurlar olami, mustaqil ravishda fikr yuritishi psixik faollikning yuksak shaklidir.

